



A.S. JO'RAYEV, , A.M. AMANOV
O.A. SHODIYEV

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

65 261 4 9983
J-91

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A.S. JO'RAYEV,
A.M. AMANOV
O.A. SHODIYEV

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan oliy ta'lif muassasalarining 5230800-Soliqlar va
soliqqa tortish bakalavriat ta'lif yo'nali shida tafsil olayotgan
talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2020

UO‘K: 336.226.12(075.8)

KBK: 65.261.4ya73

Taqrizchilar *i.f.d.*, prof. M.I. Almardonov;
i.f.d., prof. B.E. Toshmurodova

J 91 Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik /
A.S.Jo‘rayev, A.M.Amanov, O.A.Shodiyev; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020.
360 b.

Mazkur darslikda soliq qonunchiligiga asosan yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va yig‘imlar tarkibi, yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Darslik oliv ta’limning 230000 - Iqtisod ta’lim sohasidagi 5230800-Soliqlar va soliqqa tortish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari va iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari mavjud oliv ta’lim muassasalarining talabalari, magistrantlari, davlat soliq xizmati organlari, moliya va bank xodimlari, buxgalterlar va ilmiy izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 336.226.12(075.8)

KBK: 65.261.4ya73

ISBN 978-9943-13-896-4

© A.S.Jo‘rayev, A.M.Amanov,
O.A.Shodiyev, 2020
© «IQTISOD-MOLIYA», 2020

KIRISH

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tkazilayotgan soliq islohotlarining amaliy natijasi asosan yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarni soddalashtirish va unifikatsiya qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat byudjeti bilan hisob-kitoblari mexanizmini takomillashtirish, soliq hisobotlarini taqdim etish holatlarini kamaytirishga qaratilgan. Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari yuridik shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga, soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, soliqqa tortiladigan obyektlarni maqbul darajada kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlι hisoblanadi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida, Juhon bankining "Biznes yuritish – 2020" hisobotida O'zbekiston Respublikasi 7 pog'onaga ko'tarilib, 69-o'rinni egalladi va dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan o'r'in oldi. Yangi korxona ochish qulayligi bo'yicha yurtimiz ilk bor dunyoda sakkizinch o'ringa ko'tarildi.

Soliq siyosatida olib borilayotgan islohotlarning keyingi bosqichi soliq ma'muriyatçiligidini takomillashtirishdir. Shu munosabat bilan, zamonaviy usullar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, yashirin faoliyat yuritish orqali soliqdan qochishning oldini olish choralarini ishlab chiqilmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur. O'z ehtiyoji uchun obyektlar qurayotgan, yangi tashkil etilgan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga yagona

soliq to‘lovini ma’lum muddatga kechiktirish huquqini berish darkor. Shuningdek, kichik korxonalar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashga o‘tishni rag‘batlantirish shart. Shu bilan birga, tez rivojlanayotgan, yiriklashib borayotgan korxonalarни rag‘batlantirish siyosatiga o‘tish lozim. Soliq imtiyozlari berishda individual yondashuvlardan voz kechib, ularni faqat iqtisodiyotning ma’lum tarmoqlari uchun qo‘llash amaliyotiga o‘tishni taklif etaman”¹.

Shulardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshliligin oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar ishtirokchisi sifatida asosan yuridik shaxslar maqomiga ega bo‘lgan subyektlar faol ishtirok etadi. Tayyorlangan ushbu darslik yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, u 5230800-Soliqlar va soliqqa tortish bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan oliy ta’lim muassasalari talabalariga mo‘ljallangan.

Darslik O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, soliq qonunchiligiga oid me’yoriy hujjatlar hamda internet tarmog‘i ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Ushbu darslikda yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va yig‘imlar boblarga ajratilib o‘rganilgan.

Birinchi bobda “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining maqsadi, predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va yig‘imlarga umumiy tavsif berilgan.

Ikkinci bob yuridik shaxslardan olinadigan bevosita soliqlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i batafsil o‘rganib chiqilgan. Bobda mazmunan foyda solig‘i to‘lovchilari, soliq obyekti va bazasi, soliqlarni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi hamda xorijiy davlatlar tajribalari yoritilgan. Shu bilan bir qatorda aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq yuzasidan ham nazariy ham amaliy ma’lumotlar bayon qilingan.

Uchinchi bob yuridik shaxslardan undiriladigan bilvosita soliqlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yuridik shaxslardan undiriladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i mazmunan yoritilgan hamda ularning

¹Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. 55-bet

to‘lovchilari, soliq obyektlari va bazasi, soliq stavkalari va soliqni to‘lash muddatlari, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari keltirilgan.

To‘rtinchi bobda mol-mulk solig‘i va resurs to‘lovlari o‘rganilgan hamda mazkur soliqlar bo‘yicha soliq elementlari yoritib berilgan. Mazkur bobda asosan yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar borasidagi fikr va mulohazalar aks etgan.

Beshinchi bobda yuridik shaxslardan undiriladigan avtotransport yig‘imlari va ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im o‘rganib chiqilgan.

Oltinchi bobda soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to‘lovchilarga soliq solish, maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari, advokatlar hay‘atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga hamda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga soliq solish tartibi aks etgan.

Yettinchi bob davlat soliq xizmati organlari tizimida yuridik shaxslarga oid axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiq etilishi va ularning qo‘llanilishiga oid ma’lumotlarga bag‘ishlangan. Unda davlat soliq xizmati organlarida soliq ma’murchiligini avtomatlashtirish, idoralararo elektron ma’lumot ayirboshlash ulushini kengaytirish maqsadida, davlat soliq xizmati organlariga ma’lumotlar taqdim etuvchi idoralar bilan ma’lumotlarni elektron ayirboshlash kanallari yuzasidan fikr-mulohazalar aks ettirilgan.

Darslik yakunida yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni qamrab olgan test savollari keltirilgan. Ushbu test savollari talabalarda yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni yanada mukammal o‘zlashtirishga amaliy yordam beradi.

Mualliflar mazkur darslikda mavjud kamchiliklar xususida kitobxonlar tomonidan fikrlar bildirilishiga umid bog‘lagan holda, oldindan minnatdorchilik izhor etadi.

I BOB. “YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANIGA KIRISH

1.1. “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining mazmuni, predmeti va metodi

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining maqsadi va vazifalari

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining maqsadi iqtisodiyotni taraqqiy ettirish sharoitida yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va

yig‘imlarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib, yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish, fan bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilim va ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Mazkur fan yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayonini, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va yig‘imlarning iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy xususiyatlarini o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fani ixtisoslik fanlaridan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fanning vazifasi yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini talabalarga o‘rgatish hamda ularda amaliy ko‘nikmalar shakllantirish hisoblanadi. Shuningdek, rivojlangan xorij davlatlarining soliq amaliyotidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish asosida qilingan xulosalarni iqtisodiy optimizga mos tomonlarini tatbiq etishdan iboratdir.

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fani O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining predmeti va o‘rganish metodlari

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining asosiy vazifasi yuqori malakali davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda va ularni ham nazariy, ham ilmiy, ham

amaliy jihatidan o'rganishlarini va bilimga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

"Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fani barcha iqtisodiy fanlar kabi o'zining predmetiga, ya'ni izlanish obyektiga ega. "Soliq nazariyasi" fanining predmeti bo'lib soliqlar va soliq munosabatlarini paydo bo'lishi hamda soliqlarning harakati hisoblansa, "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" fanida esa jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini har taraflama o'rganish, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning harakati, yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmmini o'rganish, yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayoni "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining predmeti bo'lib hisoblanadi.

"Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanini o'rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo'linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini tadqiq qilishning ilmiy uslubi dialektik uslubdir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy uslub barcha fanlarning, shu jumladan "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi. Dialektika iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, harakat va rivojlanishida tadqiq qilishni talab etadi. Dialektik uslub shuni tadqiq etadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo'ladi, bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu uslub tadqiq etishning induksiya va deduksiya usullarini o'z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo'lsa – induksiya usuli vujudga keladi. Umumiy qoidalardan xususiy xulosalar hosil qilinsa – deduksiya usuli yuzaga keladi.

Hamma iqtisodiy fanlar kabi "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining ham o'ziga xos ilmiy tadqiq etish usullari mavjud, ya'ni ilmiy tadqiq etish usullari biri bu ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati bu tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, tadqiq etilayotgan jarayonning asosiy mohiyatiga e'tibor qaratilib, xalaqit berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali elementlarning ta'siri e'tibordan chetda qoldiriladi.

Tabiat va jamiyatdagi voqe-a-hodisalar singari iqtisodiy jarayonlarning ham tarkibiy bo'limlarini tadqiq etmay turib, ya'ni tahlil qilmay turib, ularni ilmiy jihatidan o'rganib bo'lmaydi.

"Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fani, shuningdek, o'z predmetini o'rganishda tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi.

Tahlil usuli bo'lib, bu usul vositasida voqeа-hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tadqiq etiladi.

Sintez usuli tadqiq etilgan bo'limlardan olingen xulosa va natijalarni butun bir yaxlit jarayon deb hisoblab, umumiy xulosa chiqarishdan iborat. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliq turlarini hisoblash va davlat byudjetiga o'tkazish tartibining amaliy masalalari mazkur usul bilan tadqiq etiladi.

To'liq tasavvur paydo bo'lishi uchun predmetning ayrim tarkibiy elementlarining bog'liqligini va mavjud muammolarni aniqlab olish, umumlashtirish, ya'ni sintez qilish lozim. Tahlilsiz sintez ham bo'lmaydi.

Shuningdek, "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanini o'rganishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: foiz chiqarish, taqqoslash, koeffitsiyent, zanjirli bog'lanish, korrelyatsiya, matematik usullarni qo'llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilgan usullardan foydalanib yuridik shaxslarning faoliyatini tahlil qilish iqtisodiyotdagи yangi imkoniyatlarni topishda yordam beradi, yuridik shaxslarni soliqqa tortish samaradorligini yanada oshiradi.

Statistik guruhlash usuli – bu ma'lumotlarni ma'lum belgilariga ko'ra guruhlarga ajratish statistik tadqiq etishning muhim usuli hisoblanadi. Statistik usul deb atalishiga sabab shundaki, bunda ko'rsatkichlar bir qancha statistik ma'lumotlarni guruhlarga bo'lish asosida o'rganiladi. Statistik guruhlash usuli orqali iqtisodiy ko'rsatkichlar bir xil bo'lgan guruhlarga ajratiladi va ayrim ko'rsatkichlar o'rtasida bir-biriga bog'liqlik borligini hamda tadqiq etilayotgan voqeа-hodisalarning eng zaruri, muhimi aniqlanadi.

"Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

"Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fani yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning harakatini va yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini chuqr o'rganish asosida xulosa qilib olingen, takrorlanib turadigan

munosabatlarni tartibga solib o'rgatadi.

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fani “Soliq nazariyasi” fani bilan chambarchas bog‘liqidir. Chunki yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar soliq nazariyasi qonuniyatları va soliqqa tortish tamoyillaridan chetga chiqib ketmaydi, aksincha ularga asoslanadi.

Bu fan moliya fani bilan ham chambarchas bog‘liqidir. Chunki yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar moliya munosabatlarining tarkibiga kiradi. Shuning uchun moliya ham, yuridik shaxslar soliqlari ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Bu ikkala fan uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar keyinchalik o‘ziga xos bo‘lgan pul munosabatlarini, ya’ni soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy pul munosabatlarini ifodalaydi.

Shuningdek, “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fani bakalavriat ta’lim yo‘nalishidagi “Soliq nazariyasi”, “Moliya”, “Buxgalteriya hisobi”, “Davlat byudjeti”, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Makroiqtisodiyot”, “Soliq tushumlari hisobi va prognozi”, “Moliyaviy va boshqaruv hisobi”, “Moliyaviy tahlil”, “Soliq ma’murchiligi”, “Byudjet hisobi”, “Audit” va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqidir.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va yig‘imlar tizimi

Yuridik shaxs tushunchasi. Soliq kodeksining 32-moddasiga asosan, quyidagilar yuridik shaxslardir:

- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);

- chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar);

- xalqaro tashkilotlar.

Yuridik shaxsning hududiy jihatdan alohida bo‘lgan, turgan yeri bo‘yicha doimiy ish joylari jihozlangan har qanday bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining alohida bo‘linmasidir.

Yuridik shaxsning alohida bo‘linmasini e’tirof etish, unga qanday vakolatlar berilganligidan va uning tashkil etilishi bo‘yicha yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida yoki boshqa tashkiliy-boshqaruv hujjatlarida aks ettirilganligi yoki aks ettirilmaganligidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Agar ish joyi bir oydan ortiq muddatga yaratilgan bo‘lsa, u doimiy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi alohida bo'linmasining joylashgan yeri ushbu yuridik shaxs mazkur alohida bo'linma orqali faoliyat olib boradigan joydir.

Qonun hujjatlarida notijorat tashkilot uchun belgilangan shaklda ro'yxatdan o'tkazilgan, quyidagi shartlarga muvofiq bo'lgan yuridik shaxs notijorat tashkilot deb e'tirof etiladi, agar:

- daromad olish maqsadiga ega bo'lmasa;
- daromadlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamasa.

Yuridik shaxslar maqomi quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- pochta manziliga ega bo'lishi;
- o'zining mol-mulkiga ega bo'lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- bankda hisob-raqamiga ega bo'lishi;
- identifikatsion raqamga ega bo'lishi.

– mahalliy hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplari

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o'zlariga soliq qonunchiligi hujjatlarida yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat nazariy jihatlarini o'rghanib qolmasdan, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi, umumiy asosga ega bo'lgan soliq qonunchiligi tamoyillari, soliqlar va majburiy to'lovlar tizimi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning turlari va yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini amaldaqi holatini puxta egallagan bo'lishi zarur. Buning uchun esa, yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini chuqur o'rghanishi kerak.

"Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fani soliqlarning mohiyati, yuridik shaxslar tushunchasi va ularning soliqlari tarkibi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustahkamlashdagi ahamiyati, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga to'lash tartibi, foyda solig'i, soliq hisob-kitobini tuzish va taqdim etish tartibi hamda to'lash muddatlari, qo'shilgan qiymat solig'i tushunchasi va uni hisoblash usullari, aksiz solig'i tushunchasi va soliq to'lovchilarni guruhash, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yuridik shaxslarning yer solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, maxsus soliq rejimlari, yuridik shaxslardan olinadigan

yig‘imlar, ularni amaliyotga tatbiq etish uslublari va soliq tizimiga oid boshqa harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish soliq solishning majburiyligi, aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi,adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiysi prinsiplariga asoslanadi.

Soliq solishning majburiyligi prinsipi - har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shart.

Hech kimga soliqlar va yig‘imlarning barcha alomatlariga ega bo‘lgan, biroq Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi prinsipi – soliqlarni va yig‘imlarni belgilovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig‘imlarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to‘lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to‘lovchilar bilan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini to‘g‘ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to‘lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to‘sqliar yaratishga haqli emas, soliq to‘lovchilar esa soliq organlari o‘z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.

Soliq solishningadolatliligi prinsipi – soliqlar va yig‘imlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi hamda ijtimoiy, irqiyl, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning - kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq - stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi – soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir.

O‘zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning

(xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag‘larning erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yadigan soliqlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi prinsipi – soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari rasman e’lon qilinishi shart.

Rasman e’lon qilinmagan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiysi prinsipi – soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida soliqlar va yig‘imlar tizimi

Amaldagi Soliq kodeksining 16-moddasiga asosan, soliq deganda Soliq kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga (bundan buyon matnda byudjet tizimi deb yuritiladi) to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

Yig‘im deganda byudjet tizimiga Soliq kodeksida yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan majburiy to‘lov tushuniladi, bu yig‘imning to‘lanishi uni to‘lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabдор shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi.

Shaxsning zimmasiga sud tartibida yuklatilgan jarimalar va boshqa to‘lovlari, shuningdek, qonunda belgilangan hollarda mol-mulkni musodara qilish hamda boshqacha tarzda olib qo‘yish soliqlar yoki yig‘imlar jumlasiga kirmaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va yig‘imlarning yig‘indisi soliqlar va yig‘imlar tizimi, deb tushuniladi.

Soliqlarni joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga haqli.²

Soliq kodeksining 17-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

- 1) qo‘silgan qiymat solig‘i;
- 2) aksiz solig‘i;
- 3) foyda solig‘i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

² O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. 123-modda

- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

O'zbekiston Respublikasi hududida yig'imlar belgilanishi mumkin. Yig'imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi.

Avtotransport yig'imini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Soliq kodeksining 18-moddasiga muvofiq, soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining predmeti va o'rGANISH usullarini tushuntirib bering?
3. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining boshqa fanlar bilan qanday bog'liqligi mavjud?
4. Yuridik shaxs tushunchasini izohlang.
5. Soliqlar va yig'imlar tizimi deganda nimani tushunasiz?

6. Soliq deganda nimani tushunasiz?
7. Yig‘im deganda nimani tushunasiz?
8. O‘zbekiston Respublikasi hududida qanday soliqlar belgilangan?
9. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplarini aytинг.
10. Soliq solishning majburiyligi prinsipini izohlang.
11. Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi prinsipini izohlang.
12. Soliq solishningadolatliligi prinsipini izohlang.
13. Soliq tizimining yagonaligi prinsipini izohlang.
14. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi prinsipini izohlang.
15. Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiysi prinsipini izohlang.
16. Soliqlar qaysi davlat organi tomonidan joriy qilinadi?
17. Qaysi soliqlar mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadi va qanday tartibda?
18. Maxsus soliq rejimlariga qanday yuridik shaxslar o‘tgan?
19. Davlat boji deganda nimani tushunasiz?
20. Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi qanday qonun hujjatlarida belgilanadi?

II BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN BEVOSITA SOLIQLAR

2.1. Foyda solig‘i

Foyda solig‘ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari 1991-yilga qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma

davlat tomonidan belgilangan majburiy to‘lov bo‘lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo‘lgan qismini byudjetga olib ketar, qolgan mablag‘lar esa korxona tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig‘iga ko‘ra tegishli jamg‘armalarga taqsimlanar edi.


Respublikamiz ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o‘tishi tufayli mamlakatimiz xo‘jalik turmushida chuqr ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakkllari rivojlanishi, korxonalar imkoniyatining oshishi, bozor infratuzilmasi rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi korxonalarning xo‘jalik yuritish samaradorligini ta‘minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to‘sinqinlik qila boshladi. Chunki foydadan ajratma o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra faqat davlat korxonalari foydasidan ajratilishi lozim edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o‘rniga daromad solig‘ini joriy etish zarurati paydo bo‘ldi va 1992-yildan boshlab barcha turdag‘ xo‘jalik yurituvchi subyektlar “daromad” solig‘ini to‘lashga o‘tdilar.

O‘zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtida daromad solig‘ini olishga o‘tish pul qadrsizlanishi tufayli ish haqi o‘sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo‘ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum hajmi kamaygani holda, ular o‘z ishlab chiqarishlari yo‘nalishini o‘zgartirishga, foyda olmasalar ham juda katta miqdorda ishchilarga ish haqi to‘lashga majbur bo‘ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida faoliyatlarini foyda bilan yakunlamasada, daromad solig‘ini ish haqi jamg‘armasidan belgilangan stavkada to‘lashga majbur edilar.

1995-yil 1-yanvardan boshlab soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan bir qatorda soliq to‘lovchilarining ayrim toifalari (tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, tamosha-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko‘ngilochar o‘yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar) uchun daromad solig‘i va yalpi daromad solig‘ini to‘lash tartibi saqlab qolindi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra foyda solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.



2.1.1-diagramma. Foyda solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i dinamikasi (foizda)³

Diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i 2004-yilda 7,0 foizni tashkil etgani holda, 2006-yilda 5,4 foizni, 2018-yilda esa 4 foizni tashkil etgan, ya’ni tahvil etilgan 15 yil davomida ushbu ko‘rsatkich 2,2 barobarga kamaygan. Bu holat yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalarining mazkur yillarda pasayib borganligi bilan izohlanadi. Biroq, 2019-yilda foyda solig‘ining salmog‘i 11,6 foizli bandga ortgan va 15,6 foizni tashkil etgan. Bunday o‘sish foyda solig‘i to‘lovchilarining keskin ortishi bilan izohlanadi.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003–2018-yillardagi “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida tayyorlangan.

Daromadning ko‘p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o‘rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko‘rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

Soliq to‘lovchilar tar-kibi, soliq obyekti va soliq bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 294-moddasiga muvofiq quyidagilar foyda solig‘ining soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi:

– O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

– O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari;

– O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

– soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar;

– soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan yoki o‘z ixtiyori bilan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

– oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining mazkur guruh mas’ul ishtirokchisi tomonidan hisoblab chiqarish uchun zarur bo‘lgan qismi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajaradi.

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aylanmadan soliq to‘lovchi shaxslar soliq to‘lovchilar hisoblanmaydi.

Yuridik shaxslar foyda solig‘i bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim iqtisodiyot tarmoq korxonalari byudjet bilan hisob-kitoblarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin (misol uchun, energetika, neftgaz-xolding kabi tarmoq korxonalari).

Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to‘lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi. Soliq kodeksining 33-moddasiga muvofiq,

quyidagi yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlaridir:

– O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

– O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalariga muvofiq ushbu xalqaro shartnomalarni qo‘llash maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etilgan chet el yuridik shaxslari;

– haqiqatdagi boshqaruvi joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan chet el yuridik shaxslari, agar O‘zbekiston Respublikasining soliq masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lmanan yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar O‘zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig‘iga tortildilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko‘rsatuvchilar bo‘lsa, norezidentlar faoliyati Respublikada vaqtinchalik xarakterga ega bo‘ladi.

Soliq kodeksining 295-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish obyekti hisoblanadi.

Quyidagilar foyda deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxs uchun – Soliq kodeksining XII bo‘limida nazarda utilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun – Soliq kodeksining 49-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jami daromad (shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar) va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

3) norezident uchun – Soliq kodeksining 50-bobida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;

4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun – Soliq kodeksining 51-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko‘rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib

realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to‘g‘ri keladigan bиргаликдаги faoliyatga kiritilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

Soliq kodeksining 296-moddasiga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to‘lovchi daromadlarining va (yoki) xarajatlarining (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo‘yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Soliq to‘lovchi foydani va zararni hisobga olishning umumiy tartibidan farq qiladigan tartibi nazarda tutilgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlarning (xarajatlarning) alohida-alohida hisobini yuritadi.

Soliq bazasi, agar Soliq kodeksining 48 va 50-boblarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq davri boshlanganidan e’tiboran ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan hisobot (soliq) davrida ko‘rilgan zararlar soliq solish maqsadlarida soliq bazasini belgilangan tartib va shartlarda kamaytiradi.

Soliq bazasi nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining Soliq kodeksining VII bo‘limi va 331-moddasiga muvofiq belgilanadigan umumiy foydasini ham o‘z ichiga oladi. Soliq bazasiga Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda tuzatishlar kiritiladi.

Ayrim soliq to‘lovchilar va operatsiyalar turlari bo‘yicha soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Notijorat tashkilotlarining soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Soliq kodeksining 318-moddasiga muvofiq notijorat tashkilotining quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

- notijorat tashkilotlarining ta’minoti va Soliq kodeksining 48-moddasida ko‘rsatilgan ustav faoliyatini amalga oshirishi uchun maqsadli tushumlar;

- kursdagi ijobjiy farq summasining kursdagi salbiy farq summasidan ortiq qismi;

- aholining diniy maqsadda foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad.

Notijorat tashkilotlarining Soliq kodeksi 318-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilmagan daromadlariga umumiy belgilangan tartibda soliq solinadi.

Notijorat tashkilotining Soliq kodeksining 44-bobiga muvofiq xarajatlar jumlasiga kiritilishi lozim bo‘lgan chiqimlari quyidagi usullarning biri orqali aniqlanadi:

1) Soliq kodeksi 318-moddasi bиринчи qismida ko'rsatilmagan daromadlarning notijorat tashkilotlari daromadlarining umumiy summasidagi ulushidan kelib chiqqan holda;

2) Soliq kodeksi 318-moddasi bиринчи qismida ko'rsatilgan daromadlar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlarning va boshqa daromadlar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlarning alohida-alohida hisobga olinishini nazarda tutuvchi soliq hisobi ma'lumotlari asosida.

Soliq kodeksi 318-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hisob mayjud bo'limgan va (yoki) 318-moddasining bиринчи qismida ko'rsatilgan daromadlardan mo'ljallangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda (byudjet mablag'lari bundan mustasno), soliq to'lovchi tomonidan olingen maqsadli mablag'lar ushbu soliq to'lovchining jami daromadi tarkibiga kiritiladi va unga umumiy belgilangan tartibda soliq solinadi.

Maqsadli foydalanilmagan byudjet mablag'lariga nisbatan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

Soliq kodeksining 318-moddasi qoidalari faoliyatni ijtimoiy sohada amalga oshiruvchi notijorat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) doirasida operatsiyalarni amalga oshirishda soliqni hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari. Soliq solish maqsadlarida oddiy shirkatning (birgalikdagi faoliyat shartnomasining) ishonchli shaxsi oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan operatsiyalarning umumiy hisobini yuritish, shu jumladan soliq hisobi va hisobga qo'yish tartibi to'g'risidagi qoidalar foyda solig'ini hisoblab chiqarish hamda to'lashda qo'llaniladi.

Soliq bo'yicha oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) sheringining (ishtirokchisining) soliq bazasini aniqlashda, uning tomonidan umumiy mulkka pulsiz hissa sifatida ulush kiritilgan taqdirda:

1) mol-mulkning baholash qiymati va ushbu mol-mulkning qoldiq qiymati o'rtaсидаги ijobiy farq jami daromadga kiritiladi;

2) salbiy farq soliq bazasini kamaytirmaydi.

Ishonchli shaxs oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomasi) barcha sheriklarining (ishtirokchilarining) ushbu oddiy shirkatning (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomasi) faoliyati bilan bog'liq bo'lgan daromadlar va xarajatlarning alohida-

alohida hisobini yuritadi, bunday faoliyat bo'yicha alohida soliq bazasini aniqlaydi, soliqni hisoblab chiqaradi va to'laydi. Bunda ushbu shaxs mazkur soliq summasiga nisbatan Soliq kodeksida belgilangan soliq to'lovchining barcha huquqlariga ega bo'ladi va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Ishonchli shaxs foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini va (yoki) pasaytirilgan soliq stavkalarini qo'llashga haqli emas.

Birgalikdagi faoliyat natijasida olingen daromad birgalikdagi faoliyat sheriklari (ishtirokchilar) o'rtasida har bir sherik (ishtirokchi) hissasining ulushi asosida yoki oddiy shirkat shartnomasining (birgalikdagi faoliyat shartnomasi) shartlariga muvofiq taqsimlanadi. Mazkur daromad har bir sherikda (ishtirokchida) dividendga tenglashtiriladi va unga Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadi.

Kursdagi farqlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Balansning valyuta moddalarini qayta baholashda, shuningdek, chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan kursdagi ijobjiy (salbiy) farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq jami daromadlar (xarajatlar) tarkibiga kiritiladi.

Soliq to'lovchining daromadlariga va (yoki) xarajatlariga (zararlariga) Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda tuzatishlar kiritiladi.

Natura shaklidagi daromadlar va xarajatlar soliq to'lovchi tomonidan bitimning haqiqiy narxidan kelib chiqqan holda inobatga olinadi. Agar bunday bitimdagi tovarlarning (xizmatlarning) narxi ularning bozor narxidan farq qilsa va bunday farqlanish soliq to'lovchining soliq bazasi kamayishiga yoki zarari ko'payishiga olib kelsa, soliq bazasi Soliq kodeksining VI bo'limiga muvofiq belgilanadigan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Jami daromadlar tarkibi, jami daromad dan chegirmalar

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlari tarkibiga nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi.

Soliq kodeksining 297-moddasiga muvofiq, jami daromad yuridik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingen daromadlardan iboratdir.

Jami daromad, agar Soliq kodeksining 299-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini inobatga olmagan holda aniqlanadi.

Jami daromadga har qanday shaklda va (yoki) har qanday faoliyatdan olinishi lozim bo'lgan daromadlar, xususan, quyidagi daromadlar kiradi:

- 1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;
- 2) kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo'yicha mukofot tarzidagi daromad;
- 3) sug'urta, qayta sug'urta tashkilotining sug'urta, qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha daromadi;
- 4) REPO operatsiyalari bo'yicha daromad;
- 5) qimmatli qog'ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo'yicha olingan daromad;
- 6) asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad. Asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromad deb buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan foyda e'tirof etiladi;
- 7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo'yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;
- 8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;
- 9) royalty;
- 10) tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar). Soliq to'lovchi tomonidan tekin olingan mol-mulk va (yoki) xizmatlar soliq to'lovchining daromadi deb e'tirof etiladi;
- 11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;
- 12) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad, bundan Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar mustasno;
- 13) talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromad;
- 14) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromad;
- 15) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromad. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar deganda faoliyati soliq to'lovchining asosiy

faoliyatiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan va soliq to'lovchining asosiy faoliyati doirasida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'limgan xo'jaliklar tushuniladi;

16) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

17) qarzdor tomonidan e'tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek, zararlarning (ziyonning) o'rmini qoplash summalar;

18) kursdagi ijobiy farq;

19) dividendlar va foizlar;

20) ishonchli boshqaruv muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;

21) shakllantirilish xarajatlari Soliq kodeksining 44 va 45-boblarida belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zaxiralalar summalar;

22) aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o'z ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromadi;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

24) narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingan daromad;

25) nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

26) alohida hisobi mavjud bo'limgan va (yoki) ulardan maqsadli foydalanimagan maqsadli mablag'lar tarzidagi daromad (bundan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladigan byudjet mablag'lari mustasno);

27) 1 - 26-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar.

Daromadlar soliq to'lovchi tomonidan olingan daromadlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlар va boshqa hujjatlар, shu jumladan elektron hujjatlар, shuningdek, soliqni hisobga olishga doir hujjatlар asosida aniqlanadi.

Jami daromad pul, natura shaklida va (yoki) boshqa shakllarda kelib tushgan barcha tushumlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan olingan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlar qiymati milliy valyutada ifodalangan daromadlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, mol-mulkning va pulda ifodalananadigan bahoga ega bo‘lgan nomulkiy huquqlarning qiymati va (yoki) yuridik shaxslarni qayta tashkil etish chog‘ida huquqiy vorislik tartibida olinadigan (o‘tkaziladigan), qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslar o‘zining qayta tashkil etilish sanasiga qadar olgan majburiyatlarining qiymati yangi tashkil etilgan, qayta tashkil etilayotgan va qayta tashkil etilgan yuridik shaxslarning daromadlari deb e’tirof etilmaydi.

Agar daromadni buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq e’tirof etish daromadni Soliq kodeksiga muvofiq aniqlash va e’tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur daromad soliq solish maqsadlarida Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llash chog‘ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o‘zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan daromadlarga soliq solish maqsadidagi daromadlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda olingan daromadlar mustasno.

Daromadni e’tirof etish sanasi buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq to‘lovchining daromadlariga tuzatish kiritish Soliq kodeksining 332-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar muayyan bir daromad daromadlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo‘lsa, jami daromadni aniqlashda mazkur daromad faqat bir marta kiritiladi.

Soliq kodeksining 304-moddasiga ko‘ra quyidagilar soliq to‘lovchining daromadi sifatida hisobga olinmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘silgan hissa tarzida olingan mablag‘lar;

2) aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish narxining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiqcha summasi;

3) ishtirokchilar tarkibidan chiqish (chiqib ketish) chog‘ida ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘silgan hissa doirasida olingan yoki ishtirokchining ulushi miqdorini kamaytirish, shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulkini ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash chog‘ida olingan mablag‘lar;

4) oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag‘lar;

- 5) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) shartnomasi sherkilari (ishtirokchilar) umumiy mulkidagi ulushi qaytarilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, ushbu sherik (ishtirokchi tomonidan) qo'shilgan hissa miqdorida olingen mablag'lar;
- 6) realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to'lov (bo'nak) tarzida boshqa shaxslardan olingen mablag'lar;
- 7) qonun hujjatlariga muvofiq ushbu majburiyatlarning ta'minoti sifatida garov yoki zaklat tarzida olingen mablag'lar, ularga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tgan paytga qadar;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingen mol-mulk va xizmatlar;
- 9) Soliq kodeksining 48-moddasida nazarda tutilgan talablar bajarilish sharti bilan olingen grantlar, insonparvarlik yordami va maqsadli tushumlar;
- 10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta toponi (sug'urta summasi) tarzida olingen mablag'lar;
- 11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarishi munosabati bilan, shuningdek, vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud boshqa ishonch bildiruvchi uchun amalga oshirilgan xarajatlarning o'rnini qoplash hisobidan kelib tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno). Bunday xarajatlar, agar tuzilgan shartnomalar shartlarida bu xarajatlarning o'rnini qoplash nazarda tutilgan bo'lsa, vositachidan yoki ishonchli vakildan chegirib tashlanmaydi;
- 12) moliyaviy ijara (lizing) obyektining qiymati o'rnini ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingen ijara (lizing) to'lovining qismi tarzida qoplash;
- 13) mol-mulk ijarasiga doir shartnomasi bo'yicha olingen mol-mulk, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;
- 14) telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekniq olingen texnik vositalari, shuningdek, ulardan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar;
- 15) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlarini sifatida kiritiladigan mol-mulk;

16) kredit yoki qarz shartnomalari bo'yicha mablag'lar yoki boshqa mol-mulk (mablag' jalb qilishni rasmiylashtirish usulidan qat'i nazar, boshqa shunday mablag'lar yoki boshqa mol-mulk, shu jumladan qarz qimmatli qog'ozlar), shuningdek, bunday jalb qilingan mablag'larni to'lash hisobidan mablag'lar yoki boshqa mol-mulk;

17) konsessiya bitimi bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq olingan mol-mulk;

18) davlat muassasalari tomonidan barcha darajalardagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaroriga ko'ra olingan mol-mulk;

19) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan va O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar;

20) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan penyalarning va jarimalarning summasi.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

$$\text{YaF}=\text{SST-IT},$$

bunda:

YaF – yalpi foyda, SST – sotishdan olingan sof tushum, IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2) asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda.

$$\text{AFF}=\text{YaF-DX+BD-BZ},$$

bunda:

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX – davr xarajatlari, BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, B3 – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3) xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

$$\text{UF}=\text{AFF+MD-MX},$$

bunda:

UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda; MD – moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4) soliq to‘languncha olingan foyda.

STF=UF+FP-F3,

bunda:

STF – soliq to‘langungacha olingan foyda; FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda; F3 – favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar.

5) yilning sof foydasi.

SF= STF-DS-BS,

bunda,

SF – sof foyda; DS – foydadan to‘lanadigan soliq; BS – boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Xarajatlar va jami daromaddan chegirmalar. Soliq kodeksiga muvofiq xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo‘linadi. Soliq kodeksiga muvofiq, yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bog‘liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi, bundan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.

Soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko‘rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari (Soliq kodeksining 333–336-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa zararlar) xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Asoslangan xarajatlar deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

Har qanday chiqimlar, basharti ular hech bo‘lmaganda quyidagi shartlardan biriga muvofiq kelgan taqdirda, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar deb e’tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida qilingan bo‘lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlab turish yoki rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa yoxud xizmat qilsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan aloqasi aniq asoslangan bo‘lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar deganda quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlar tushuniladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

2) tegishli xarajatlar amalga oshirilgan chet davlat hududida qo'llaniladigan tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

3) boshqa shaklda rasmiylashtirilgan, shu jumladan xizmat safari to'g'risidagi buyruq, yo'l hujjatlari, shartnomaga muvofiq ko'rsatilgan xizmat haqidagi hisobot bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar.

Agar ayni bir xarajatlar xarajatlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, soliq bazasini hisob-kitob qilishda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlari milliy valyutada qiymati ifodalangan xarajatlar bilan birqalikda hisobga olinadi.

Agar buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq xarajatni e'tirof etish Soliq kodeksiga muvofiq xarajatni aniqlash va e'tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur xarajat soliq solish maqsadlarida hisobga olinadi.

Soliq solish maqsadlarida, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash chog'ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o'zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan chiqimlarga xarajatlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda to'langan xarajatlar mustasno.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, uzoq muddatli aktivlarning dastlabki qiymatiga va zaxiralarning tannarxiga kiritiladigan xarajatlar amortizatsiya ajratmalari vositasida va bunday zaxiralarning tannarxi orqali chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

Soliq to'lovchining xarajatlariga tuzatishlar kiritish Soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq, soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalardan, ular mavjud bo'lmaganda esa, soliq to'lovchi tomonidan belgilangan normalardan ortiqcha tovarlar yo'qolishi;

- 2) umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa tashkilotlarga joylarni tekin berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlarning qiymatini to'lash;

- 3) soliq to'lovchining jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblangan xarajatlari;

4) dala (safar) ta'minoti, xodimning shaxsiy avtotransportidan xizmat maqsadlarida foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lovlari;

5) pensiyalarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlari;

6) Soliq kodeksining 377-moddasi birinchi qismi 10-bandining to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida ko'rsatilgan (bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan ko'rsatiladigan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzida ko'rsatiladigan) moddiy yordam;

7) xayriya yordami tarzida berilgan mablag'lar, bundan metsenatlilik ko'magini ko'rsatish uchun yo'naltirilgan mablag'lar mustasno;

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari;

9) loyihalar va qurilish-montaj ishlariidagi kamchiliklarni, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergen buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etishga doir xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarini qismlarga ajratish) xarajatlari hamda ushbu xarajatlarning o'mini kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobidan qoplash imkonini bo'limgan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

10) aybdorlari aniqlanmagan talon-taroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarining o'mini qoplash imkonini bo'limgan taqdirda ko'rildigan zararlar;

11) boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar;

12) soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'imlar;

13) soliq to'lovchining tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan tadbirdirlarga (sog'liqni saqlashga oid, sport va madaniy tadbirdirlar, dam olishni tashkil etish hamda boshqa shunga o'xshash tadbirdirlarga) doir xarajatlari, bundan tadbirdirlarni o'tkazishga doir majburiyatlar qonun hujjatlarini bilan soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilgan hollar mustasno;

14) kasaba uyushmalari qo'mitalariga yordam ko'rsatish;

15) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan xizmatlar (shaharlarni va shaharchalarni obodonlashtirish bo'yicha xizmatlar,

qishloq xo‘jaligiga yordamlashish va xizmatlarning boshqa turlari) ko‘rsatganlik uchun qilingan xarajatlar;

16) Soliq kodeksining XII bo‘limida nazarda tutilgan hollardan tashqari soliq solinmaydigan daromad olish bilan bog‘liq xarajatlar;

17) haqiqatda xizmatlar ko‘rsatmasdan, tovarlarni jo‘natmasdan turib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar, agar bunday fakt sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan va unda ushbu xarajatlarni amalga oshirgan soliq to‘lovchining nomi ko‘rsatilgan bo‘lsa;

18) daromad olishga qaratilgan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar, agar qonun hujjatlariga muvofiq bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatilmagan bo‘lsa;

19) byudjet tizimiga kiritilishi lozim bo‘lgan (kiritilgan) penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar;

20) sotib olishga, ishlab chiqarishga, qurilishga, montaj qilishga, o‘rnatishga doir va amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qiymatiga qo‘shiladigan boshqa xarajatlar, shu jumladan qo‘srimcha qurish, qo‘srimcha jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash hollarida amalga oshiriladigan, amortizatsiya chegirmalari vositasidagi xarajatlar jumlasiga kiritiladigan xarajatlar;

21) soliq to‘lovchining amortizatsiya qilinmaydigan mol-mulkning boshlang‘ich qiymatiga buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladigan xarajatlari;

22) chegirmalar jumlasiga kiritish normalari belgilangan xarajatlarning mazkur normalari qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilgan chegirmaning eng yuqori summasidan ortiq bo‘lgan summa;

23) shakllantirilishi Soliq kodeksining XII bo‘limida va (yoki) qonun hujjatlari talablarida nazarda tutilmagan zaxiralarga, zaxira fondlari va boshqa fondlarga ajratmalar, bundan Soliq kodeksining 315, 316 va 326-moddalarida nazarda tutilgan normalar doirasidagi xarajatlar mustasno;

24) soliq to‘lovchi tomonidan hisoblangan dividendlar summalarini;

25) soliq to‘lovchi tomonidan boshqa shaxslarning foydasiga to‘lanadigan ixtiyoriy sug‘urta badallari;

26) soliq to‘lovchi tomonidan Soliq kodeksining 310-moddasiga muvofiq soliq solish maqsadlarida xarajatlar deb e’tirof etiladigan

xarajatlarning summasidan ortiqcha hisoblangan foizlar va ayrim chiqimlar;

27) tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bunday berish bilan bog‘liq bo‘lgan (shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi kiritilgan) xarajatlar, bundan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra mol-mulkni o‘tkazish, shuningdek, telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tizimining texnik vositalarini o‘tkazish va ulardan foydalanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish mustasno;

28) ishonchli boshqaruv muassisining ishonchli boshqaruv shartnomasini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari, agar ishonchli boshqaruv shartnomasiga ko‘ra muassis naf oluvchi bo‘lmasa;

29) notijorat tashkilotlariga va xalqaro tashkilotlarga to‘lanadigan badallar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar, bundan bunday badallarni, yig‘imlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lash qonun hujjatlarida (shu jumladan chet davlatlarning qonun hujjatlarida) nazarda tutilgan va (yoki) ushbu badallarni, yig‘imlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lagan soliq to‘lovchilar tomonidan faoliyatni amalga oshirishning sharti yoxud mazkur tashkilotlar tomonidan soliq to‘lovchilar o‘z faoliyatini yuritishi uchun zarur xizmatlar taqdim etishning sharti bo‘lgan hollar mustasno;

30) soliq to‘lovchi tomonidan tashkil etilgan zaxira mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan xarajatlar, agar bunday zaxiralarni tashkil etishga doir xarajatlar Soliq kodeksida yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa;

31) mol-mulk narxining pasayish (qadrsizlanish) summalar;

32) oddiy shirkat shartnomasi doirasida sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiyligi mulkdagi ulushni qaytarish yoki bunday mol-mulkni bo‘lish chog‘ida ko‘rilgan zararlar;

33) soliq to‘lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi tomonidan ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisiga soliqni (bo‘nak to‘lovlarini, joriy to‘lovlarni, penyalarni, jarimalarni) Soliq kodeksida soliq to‘lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhi uchun belgilangan tartibda to‘lash uchun berilgan pul mablag‘lari, shuningdek soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan shu guruhning ishtirokchisiga ushbu soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq (bo‘nak to‘lovlarini, joriy to‘lovlarni, penyalarni, jarimalarni) summasi aniqlashtirilishi munosabati bilan berilgan pul mablag‘lari;

34) tovar-moddiy qimmatliklarni yaroqsizligi sababli (saqlash muddati o'tganligi, jismoniy va (yoki) ma'naviy eskirganligi, shunga o'xshash boshqa sabablarga ko'ra) hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, bundan favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong'in, avariya, yo'l-transport hodisasi va hokazolar) oqibatida ko'rilgan zararlar mustasno);

35) muddati o'tgan va kechiktirilgan kreditlar (qarzlar) bo'yicha muddatli qarz uchun kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha foizlar;

36) xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari.

Soliq kodeksining 46-bobida nazarda tutilgan hollardagina soliq bazasiga tuzatish kiritilishi mumkin. Bu haqda kengroq to'xtalib o'tamiz.

Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish. Soliq kodeksining 332-moddasiga muvofiq, hisobot soliq davridagi daromad (xarajatlar) miqdorining soliq bazasini aniqlashda ilgari daromad (xarajat) deb e'tirof etilgan summa doirasida ko'payishi yoki kamayishi tuzatish kiritish deb e'tirof etiladi.

Daromadlar va xarajatlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritilishi lozim:

1) tovarlar, shuningdek sug'urtalanuvchiga sug'urta mukofoti to'liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o'zgartirilganda;

3) narxlari o'zgartirilganda, sotib oluvchi tomonidan chegirmadan foydalanimanganda;

4) ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish quyidagicha amalga oshiriladi:

kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha — kafolat muddati doirasida;

sug'urta mukofotlari bo'yicha — shartnomani bekor qilish paytida; boshqa hollarda — bir yillik muddat doirasida.

Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish yuqorida ko'rsatilgan hollar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (xizmatni) sotuvchi Soliq kodeksining 257-moddasida nazarda tutilgan tartibda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritadi.

Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish mazkur hollar sodir bo'lgan soliq davrida amalga oshiriladi. Daromadlar va xarajatlarga

tuzatish kiritish soliq to‘lovchi soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o‘tgan taqdirda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritilayotgan daromadlar bo‘yicha soliq imtiyozlarini qo‘llash hollari mustasno.

Zararlarni kelgusiga o‘tkazish. Soliq kodeksining 333-moddasiga muvofiq, daromadlar va xarajatlarga kiritilgan tuzatishlarni inobatga olgan holda chegirilishi lozim bo‘lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi soliq to‘lovchining zarari deb e’tirof etiladi.

Muomaladagi qimmatli qog‘ozlar va muddatli bitimlarning muomaladagi moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar tadbirdorlik faoliyatidan ko‘rilgan zararlar deb e’tirof etiladi.

Oldingi soliq davrida (davrlarida) hisoblab chiqarilgan zarari (zararlari) bo‘lgan soliq to‘lovchi joriy soliq davrining foydasini ushbu ko‘rilgan zararning butun summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga haqlidir.

Soliq to‘lovchi zararni ushbu zarar ko‘rilgan soliq davridan keyingi o‘n yil mobaynida kelgusiga o‘tkazishni amalga oshirishga haqlidir.

O‘tkazilayotgan zararning har bir keyingi soliq davrida hisobga olinadigan jami summasi, hisoblab chiqarilgan joriy soliq davri soliq bazasining 60 foizidan oshib ketishi mumkin emas.

Soliq bazasi oldingi soliq davrida (davrlarida) ko‘rilgan zarar summasiga faqat joriy soliq davrining yakunlari bo‘yicha kamaytirilishi mumkin.

Bir kalendar yildan ortiq yillarda ko‘rilgan zararlar ular ko‘rilgan ketma-ketlikda o‘tkaziladi.

Bosh bankdan umidsiz qarzlarni oluvchi sho‘ba tashkiloti tomonidan ko‘rilgan zararlar kelgusi davrlarga o‘tkazilmaydi.

Zararlarni o‘tkazishning alohida hollardagi o‘ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 334–336-moddalarida nazarda tutilgan bo‘lib, unga muvofiq qayta tashkil etish munosabati bilan o‘tkaziladigan zararlar soliq to‘lovchilar bo‘lgan huquqiy vorislar o‘rtasida taqsimlash balansi asosida o‘tkaziladigan aktivlar qiymatining qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs aktivlari qiymatidagi taqsimlash balansini tuzish sanasidan oldingi sanadagi holatiga ko‘ra solishtirma miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi va Soliq kodeksining 333-moddasida nazarda tutilgan tartibda o‘tkaziladi.

Huquqiy voris bo‘lgan soliq to‘lovchi qayta tashkil etilgan taqdirda, uning ilgari o‘z faoliyatini tugatgan soliq to‘lovchidan ko‘rgan zararları o‘tkazilmaydi.

Shu bilan birga, soliq to‘lovchi 2020-yil 1-yanvarga qadar ko‘rilgan zararlarni ushbu zarar ko‘rilgan soliq davridan keyingi ko‘pi bilan besh yil ichida kelgusiga taqsimlab o‘tkazishni amalgga oshirishga haqlidir. Taqsimlab o‘tkazilayotgan zararning har bir navbatdagi soliq davrida hisobga olinadigan jami summasi joriy soliq davrida hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

Soliq to‘lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha zararlarni o‘tkazish. Soliq kodeksi 333-moddasining qoidalari soliq to‘lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhiga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda qo‘llaniladi.

Agar soliq to‘lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhi oldingi soliq davrida (davrlarida) zarar (zararlar) ko‘rgan bo‘lsa, bunday guruhning mas’ul ishtirokchisi joriy soliq davrining konsolidatsiyalashgan soliq bazasini zararning butun summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga haqli.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatgandan keyin):

1) joriy soliq davrining soliq bazasini mazkur guruh faoliyat ko‘rsatgan davrda ko‘rilgan zararning summasiga (ushbu summaning bir qismiga) kamaytirishga haqli emas;

2) joriy soliq davrining soliq bazasini mazkur ishtirokchi tomonidan u soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo‘laman soliq davrlarining yakunlari bo‘yicha ko‘rilgan zarar summasiga (ushbu summaning bir qismiga) belgilangan tartibda va shartlarda kamaytirishga haqli. Bunda soliq to‘lovchi zararni kelgusiga o‘tkazishni amalgga oshirishga haqli bo‘lgan muddat bunday soliq to‘lovchi soliq to‘lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi bo‘lgan yillar soniga oshiriladi.

Agar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi mazkur guruhdagi o‘zining ishtirok etish davrida qo‘sib yuborish yoki qo‘sib olish shaklida qayta tashkil etilgan bo‘lsa, mazkur guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatganidan keyin) bu ishtirokchi joriy soliq davrining soliq bazasini o‘zi huquqiy vorisi bo‘lgan soliq to‘lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘laman bunday qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchilar soliq davri yakunlari bo‘yicha qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchidan olingan zararlar summasiga (shu summaning bir qismiga) kamaytirishga ham haqli.

Agar soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi mazkur guruhdagi o'zining ishtirok etish davrida yuridik shaxsn bo'lish yo'li bilan yangidan tashkil etilgan bo'lsa, mazkur guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatganidan keyin) bu ishtirokchi joriy soliq davrining soliq bazasini o'zi huquqiy vorisi bo'lgan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhni ishtirokchilari bo'lmasagan bunday qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq davri yakunlari bo'yicha qayta tashkil etilgan soliq to'lovchidan olingen zararlar summasiga (shu summaning bir qismiga) kamaytirishga ham haqli.

Operatsiyalarning ayrim turlari bo'yicha zararlarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari. Soliq kodeksining 336-moddasiga muvofiq, yuridik shaxsning mol-mulk majmui sifatidagi korxonani ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish ulushini realizatsiya qilishdan yoki uning boshqacha tarzda chiqib ketishidan ko'rilgan zarar realizatsiya qilingan (chiqib ketgan) aktivlarga aynan o'xshash aktivlarni realizatsiya qilishdan (ularning chiqib ketishidan) olingen daromadlar hisobidan kompensatsiya qilinadi.

Ishonchli boshqaruv shartnomasi bo'yicha ko'rilgan zararlar ishonchli boshqaruv muassising soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday zararlar ushbu ishonchli boshqaruvning kelgusidagi daromadlariga o'tkaziladi.

Oddiy shirkat shartnomasida (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomada) ishtirok etishdan sheriklarning (ishtirokchilarning) olgan zarari ishonchli shaxsda ushbu oddiy shirkat oladigan kelgusi daromadlarga o'tkaziladi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan ko'rilgan zararlar birgalikda aniqlanadi va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydi. Bunday zararlar shu xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan kelgusi daromadlarga o'tkaziladi.

Muomalada bo'lmasagan qimmatli qog'ozlar va muddatli bitimlarning muomalada bo'lmasagan moliyaviy vositalariga doir operatsiyalari bo'yicha zararlar alohida aniqlanadi va xuddi shunday operatsiyalardan olingen daromadlar hisobidan har bir soliq bazasi doirasida kompensatsiya qilinadi.

Soliq to'lovchi Soliq kodeksining 336-moddasida nazarda tutilgan zararlarni ular ko'rilgan soliq davridan keyingi o'n yil mobayinida kelgusiga o'tkazishni amalga oshirishga haqli. Bunda Soliq kodeksi 333-moddasining oltinchi qismida ko'rsatilgan cheklov (*soliq bazasi oldingi*


soliq davrida (davrlarida) ko'rilgan zarar summasiga faqat joriy soliq davrining yakunlari bo'yicha kamaytirilishi mumkin) bunday zararlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Foyda solig'i stavgalari

Foyda solig'ining stavgalari Soliq kodeksining 337-moddasiga muvofiq tabaqalashtirilgan holda belgilangan.

Foyda solig'i stavgasi 1998-yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2001-yilda 26 foizga tushirilgan. 2002-yilda esa 24 foiz, 2003-yilda 20 foiz, 2004-yilda 18 foiz, 2005-yilda 15 foiz, 2006-yilda 12 foiz, 2007-yilda 10 foiz, 2009-yildan boshlab esa 9 foiz qilib belgilangan. 2010–2013-yillarda mazkur miqdor saqlab qolindi. 2014-yil 1-yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavgasi 8 foiz etib belgilandi. 2015-yil 1-yanvardan boshlab mazkur stavka 7,5 foiz miqdorida tasdiqlandi. 2018-yil 1-yanvardan boshlab esa mazkur stavka 14 foiz miqdorida belgilandi. 2019 yilda esa ushbu miqdor 12 foizni tashkil etgan.

Foyda solig'ining umumbelgilangan stavgasi miqdori 2000–2019-yillar bo'yicha o'rganilganda, uning miqdori kamayish tendensiyasiga ega ekanligini kuzatish mumkin.



2.1.2-diagramma. Foyda solig'i stavgasining o'zgarish dinamikasi (foizda)⁴

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining stavgasi yillar bo'yicha kamayib borgan, jumladan 1995-yilda uning miqdori 38 foizni tashkil etgan bo'sha, 2019-yilga kelib 12 foizgacha pasaytirilgan, ya'ni 2019-yilda 1995-yilga nisbatan soliq stavgasi 26 foizli punktga kamaytirilgan.

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 1999–2018-yillardagi "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlari asosida tayyorlangan.

Foyda solig'i stavkasini yildan yilga kamaytirilganligi maumlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati, avvalambor, korxonalar investitsion faoliyatini rag'batlantirishga, ishlab chiqarishni yangi texnik va texnologik asbob-uskunalar bilan qayta jihozlashga, korxonalar moliyaviy holatini yanada barqarorlashtirishga hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Soliq kodeksining 337-moddasiga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan:

2.1.1-jadval

Foyda solig'i stavkalari⁵

N	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Banklar	20
2.	Quyidagi soliq to'lovchilar: – sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; – polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; – faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan	20
3.	O'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha Soliq kodeksi 57-moddasida nazarda tutilgan mezonzarga javob beruvchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalarini	0
4.	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	0
5.	Qo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi byudjet tashkilotlari	0
6.	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0
7.	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
8.	Tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining	7,5

⁵O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 337-moddasidan olindi.

	milliy reestriga kiritilgan soliq to‘lovchilar	
9.	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo‘lgan va umumiyligi xodimlar sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasi mehnatga haq to‘lash umumiyligi fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to‘lovchilar	0
10.	O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11.	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12.	Qolgan soliq to‘lovchilar, bundan 1 — 11- bandlarda ko‘rsatilganlar mustasno	15

2.1.1-jadvalning 2-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar faoliyatning barcha turlari bo‘yicha belgilangan soliq stavkasini qo‘llaydi.

2.1.1-jadvalning 3-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar, agar o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo‘yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo‘llashga haqlidir.

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi Soliq kodeksining 59-moddasida belgilangan mezonlarga riosa etmagan taqdirda, mazkur shartlarga riosa etmaganlik ro‘y bergen soliq davrining boshlanishidan e’tiboran 2.1.1-jadvalning 12-bandida belgilangan soliq stavkasini ilgari o‘tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo‘llaydi.

2.1.1-jadvalning 8-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar, agar ko‘rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo‘llashga haqli.

Qo‘sishmcha manbalardan daromad oluvchi byudjet tashkilotlari, basharti bo‘shatilayotgan mablag‘lardan qonun hujjalari belgilangan tartibda byudjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini

mustahkamlash, o‘z xodimlarini moddiy rag‘batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2023-yilning 1-yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo‘llaydi.

O‘zida ishlovchilarining umumiy o‘rtacha yillik sonining 3 foizidan ko‘prog‘i nogironligi bo‘lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi belgilangan normadan (3 foiz) ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

Ushbu imtiyoz yanada yaqqol tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi jadvalga e’tiborimizni qaratamiz:

2.1.2-jadval

Nogironlar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun foyda solig‘ining shartli hisob-kitobi⁶

1.	Xodimlarning umumiy soni, kishi shu jumladan nogironlar, kishi	60 15
	Xodimlarning umumiy sonida nogironlar salmog‘i, foizda	25
	Ishga joylashtirilgan nogironlarning belgilangan me’yori, foizda	3
	Belgilangan me’yordan oshish ($25\% - 3\% = 22\%$), foizda	22
2.	Hisoblab yozilgan soliq summasi, so‘mda	450 000
3.	Imtiyozni hisobga olganda soliq summasi $450000 - ((450000 \times 22) / 100)$, so‘mda	351 000

Demak, korxona imtiyozdan foydalangan holda hisobot davri uchun byudjetga 450 000 so‘m emas, balki 351 000 so‘m foyda solig‘i to‘laydi, ya’ni 99 000 so‘m korxona ixtiyorida qoladi.

2.1.1-jadvalning 6-bandida nazarda tutilgan 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to‘lovchilar tomonidan, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlar jami daromadning kamida 15 foizini tashkil etsa, qo‘llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, shu jumladan tovar vositachi (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to‘lovchilar tomonidan, Soliq kodeksining 261-moddasida nazarda tutilgan tovarlarning eksportini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud

⁶ Jadval shartli ravishda tuzildi.

bo‘lganda, qo‘llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to‘lovchilar tomonidan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar (xizmatlar) eksportga chiqarilgan kundan e’tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, qo‘llanilmaydi.

Yuqorida qayd etilgan qoidalar quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan xomashyo tovarlar eksportiga (*soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydigan eksport qilinadigan xomashyo tovarlari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5587-son Farmoni ilovasida keltirilgan*);

2) xalqaro tashishlar xizmatlariga, bundan avtotransportda tashishlar mustasno;

3) tovarlarni quvurlar orqali va gaz quvurlari orqali tashish bo‘yicha xizmatlarga.

Foydali qazilmalarni qazib olish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan ayrim soliq to‘lovchilar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to‘lash

Soliq kodeksining 338-moddasiga muvoofiq, kalender yil soliq davri, yilning choragi esa hisobot davridir.

Soliq kodeksining 339-moddasiga ko‘ra, hisobot (soliq) davrining yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davrining boshidan oshib boruvchi yakun bilan soliq bazasining soliq stavkasiga muvoofiq bo‘lgan foizlardagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq to‘lovchi Soliq kodeksining 342-moddasida belgilangan hollarda va tartibda foya solig‘ini yoki chet davlatda to‘langan daromadlardan olinadigan xuddi shunday turdagilari to‘langan soliqni hisobga o‘tkazish yo‘li bilan soliq summasini kamaytirishga haqli.

Soliq hisoboti barcha soliq to‘lovchilar tomonidan har bir hisobot va soliq davri o‘tganidan keyin soliq bo‘yicha hisobda turgan joyidagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi (*1-ilova*):

- hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;
- soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davri o‘tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Byudjet tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan soliq bo‘yicha soliq hisoboti soliq davri yakunlariga ko‘ra taqdim etiladi, bundan matlubot kooperativlari mustasno. Bunda o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha jami daromad mavjud bo‘lmagan taqdirda soliq hisobotini taqdim etish talab qilinmaydi.

Soliq kodeksining 340-moddasiga muvofiq, foyda solig‘ini to‘lash hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda besh milliard so‘mdan oshadigan soliq to‘lovchilar hisoblab chiqarilgan har oylik bo‘nak to‘lovlarini hisobot davri har bir oyining yigirma uchinchi kunidan kechiktirmay to‘laydi.

Joriy soliq davrining birinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘loving summasi o‘tgan soliq davrining oxirgi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovi summasiga teng etib qabul qilinadi.

Masalan, 2020-yil 1-chorak uchun foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar quyidagi tartibda aniqlanadi va to‘lanadi:

2019-yil 9 oylik jami daromad summasi 9 ga bo‘linib va 12 ga ko‘paytirilganda 5 mlrd. dan oshgan soliq to‘lovchilar 2020-yil 23-yanvar, 2020-yil 23-fevral va 2020-yil 23-martdan kechiktirmay to‘lanishi lozim bo‘lgan bo‘nak to‘lov summasini mos ravishda 2019-yil 10-oktyabr, 2019- yil 10-noyabr va 2019-yil 10-dekabrda hisoblangan bo‘nak to‘lovi miqdorida hisoblaydilar. Bunda jami daromad moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot satrlari yig‘indisidan aniqlanadi, ya’ni:

- mahsulot (tovar, xizmat va ishlар) realizatsiyasidan sof tushum (010-satr);
- asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (090-satr);
- moliyaviy faoliyatdan daromadlar (110-satr).

Joriy soliq davrining ikkinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘loving summasi joriy yilning birinchi hisobot davri

uchun soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'i summasining uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining uchinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi yarim yillik yakunlariga ko'ra soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi va birinchi chorak yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi o'rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining to'rtinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi to'qqiz oylik yakunlariga ko'ra soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi va yarim yillik yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi o'rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Agar hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovining summasi manfiy yoki nolga teng bo'lsa, ko'rsatilgan to'lovlardan tegishli chorakda amalga oshirilmaydi.

Soliq to'lovchilar, shu jumladan yangidan tashkil etilgan, jami daromadi joriy hisobot davri mobaynida besh milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarni bunday oshib ketish sodir bo'lgan to'liq chorak o'tganidan keyin to'laydi.

Bo'lish yoki ajratib chiqarish yo'li bilan qayta tashkil etish natijasida yangidan tashkil etilgan yuridik shaxs, jami daromadining miqdoridan qat'i nazar, har oylik bo'nak to'lovlarni, agar bo'lish yoki ajratib chiqarish yo'li bilan qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq bo'yicha har oylik bo'nak to'lovlarni bunday qayta tashkil etish amalga oshirilgan soliq davrida hisoblab chiqargan bo'lsa, ikkita kelgusi soliq davri mobaynida to'laydi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha hisobot (soliq) davri mobaynida to'langan har oylik bo'nak to'lovlari summasi hisobot (soliq) davri uchun soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliqni to'lash chog'ida hisobga olinadi.

Har oylik bo'nak to'lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jami yillik daromadning miqdoridan qat'i nazar, soliq hisobotini soliq bo'yicha faqat soliq davri yakunlari yuzasidan taqdim etuvchi soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarni to'lamaydi.

Soliq to'lovchi tugatilganda soliq tugatish yakunlanguniga qadar to'lanishi lozim.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organi har oylik bo'nak to'lovlari hisoblashni ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan bunday axborot olingan oydan e'tiboran to'xtatib turadi.

Faoliyat tiklangan va tugatish jarayoni to'xtatilgan taqdirda, har oylik bo'nak to'lovlari hisoblash ularni hisoblash to'xtatilgan oydan e'tiboran tiklanadi.

Soliq to'lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhni bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Soliq kodeksining 341-moddasiga muvofiq, soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlari summalarini, shuningdek, soliq summalarini to'lashni, shunday guruhni tuzish to'g'risidagi shartnomaga ro'yxatdan o'tkazilgan joyda, mazkur summalarни ushbu guruhning va ular alohida bo'linmalarining ishtirokchilari bo'yicha taqsimlamasdan amalga oshiradi.

Soliq to'lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhni bo'yicha soliq hisoboti soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;
- soliq davri yakunlari bo'yicha — soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining qolgan ishtirokchilari o'zi hisobda turgan joydagi soliq organiga soliq hisobotini taqdim etmaydi.

Agar soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari ushbu guruhning konsolidatsiyalashgan soliq bazasiga kiritilmaydigan daromadlarni olsa, ular o'zi hisobda turgan joydagi soliq organlariga soliqning faqat ushbu daromadlarga nisbatan hisoblab chiqarilgan qismi bo'yicha soliq hisobotini taqdim etadi.

Soliq to'lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhni bo'yicha hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq hisoboti shu guruhning mas'ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisobi ma'lumotlari hamda umuman soliq to'lovchilarining konsolidatsiyalashgan guruhni bo'yicha konsolidatsiyalashgan soliq bazasi asosida faqat konsolidatsiyalashgan

soliq bazasiga nisbatan soliqni hisoblab chiqarish qismi bo'yicha tuziladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan ushbu guruh faoliyat ko'rsata boshlagan soliq davrining birinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan soliq bo'yicha har oylik bo'nak to'lovlarining summasi shu guruh barcha ishtirokchilarining ushbu guruh tuzilishidan oldingi soliq davrining uchinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovlarini summasi sifatida aniqlanadi.

Agar soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnoma soliq organi tomonidan soliq davri boshlanganidan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari tomonidan soliq davri boshidan buyon o'tgan hisobot davrlarining yakunlari bo'yicha to'langan bo'nak (joriy) to'lovlarini soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining bo'nak joriy to'lovlarini soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining tegishli ishtirokchisi hisobiga o'tkazilishi (qaytarilishi) lozim.

Soliqni hisobga olish. Soliq kodeksining 342-moddasiga muvofiq, chet davlatning qonun hujjalariiga va (yoki) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq haqiqatda to'langan (ushlab qolangan) foyda solig'ining summasi yoki ushbu chet davlatda olingan daromadlardan olinadigan aynan o'xshash turdag'i soliq O'zbekiston Respublikasida foyda solig'ini to'lash hisobidan soliq to'lovchida Soliq kodeksida belgilangan tartibda va miqdorlarda hisobga olinishi lozim.

Foyda solig'i summasi yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlardan olinadigan aynan o'xshash turdag'i soliqni hisobga olish bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

1) O'zbekiston Respublikasida soliq solinishi lozim bo'lgan daromad bo'yicha;

2) O'zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnoma mavjud bo'lganda;

3) bunday soliq to'langanligini (ushlab qolanganligini) tasdiqlovchi hujjal mavjud bo'lganda.

Foyda solig'ining yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan (ushlab qolangan), aynan o'xshash turdag'i soliq hisobga olinadigan summasining miqdori soliq to'lovchi ko'rsatilgan daromad

olinishi lozim bo‘lgan (olingan) soliq davri uchun to‘lashi lozim bo‘lgan foyda solig‘i summasidan oshib ketishi mumkin emas.

Chet davlat vakolatli organining ma’lumotnomasi yoki soliq O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida to‘langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida foya solig‘i yoki aynan o‘xhash turdagи soliq to‘langanligini (ushlab qolninganligini) tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Agar bunday hujjatlar chet tilida tuzilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidagi tarjimasi mavjud bo‘lishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlariga to‘lanadigan dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari. Yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentiga to‘lanadigan dividendlarga Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda to‘lov

manbaida soliq solinadi va bunday daromadlarni oluvchi tomonidan soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi.

Agar dividendlar O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasi soliq rezidentiga to‘lansa, olingan dividendlarga nisbatan to‘lanadigan soliq summasi uni oluvchi tomonidan olingan dividendlar summasidan va Soliq kodeksi 337-moddasi birinchi qismining 11-bandida belgilangan soliq stavkasidan (*5 foiz*) kelib chiqib, mustaqil ravishda aniqlanadi. Bunda dividend oluvchilar hisoblab chiqarilgan soliq summasini daromad manbai joylashgan joy bo‘yicha to‘langan soliq summasiga kamaytirishga, agar O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, haqli emas.

Foiz tarzidagi daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi soliq rezidentiga to‘lanadigan foizlar ushbu daromadlarni oluvchining soliq bazasida hisobga olinadi va unga belgilangan tartibda soliq solinadi (bundan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan notijorat va byudjet tashkilotlariga to‘lanadigan foizlar mustasno).

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan notijorat va byudjet tashkilotlariga to‘lanadigan foizlarga to‘lov manbaida Soliq kodeksi 337-moddasi birinchi qismining 12-bandida belgilangan miqdordagi soliq stavkasi (*15 foiz*) bo‘yicha soliq

solinadi va bunday daromadlar oluvchilarning soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi.

Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlardan soliqni hisoblab chiqarish, ushlab qolish hamda to'lash tartibi. Dividendlar va foizlar tarzida daromadlar to'lovchi yuridik shaxslar Soliq kodeksi 343-moddasining birinchi va 344-moddasining ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda soliq agentlari deb e'tirof etiladi.

Soliq agenti O'zbekiston Respublikasi soliq rezidentlari deb e'tirof etiladigan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlarga nisbatan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida soliq summasini Soliq kodeksi 337-moddasining birinchi qismi 11-bandida (*5 foiz*) yoki 381-moddasida nazarda tutilgan soliq stavkalari (*5 foiz*) bo'yicha ko'rsatilgan daromadlarni belgilangan tartibda har bir to'lovga tatbiqan belgilaydi.

Dividendlar oluvchi soliq to'lovchining daromadlaridan ushlab qolinadigan soliq summasini aniqlashda soliq bazasi har bir oluvchiga nisbatan soliq agenti tomonidan shu oluvchiga to'g'ri keladigan soliq solinadigan dividendlar jami summasining ulushi sifatida aniqlanadi. Dividendlarning soliq solinishi lozim bo'lган bunday jami summasi yuridik shaxs tomonidan barcha oluvchilarning foydasiga taqsimlanishi lozim bo'lган, ushbu yuridik shaxs tomonidan joriy hisobot (soliq) davrida va o'tgan hisobotda (soliq davrlarida) olingan dividendlarni ularni oluvchilar foydasiga taqsimlash sanasidagi dividendlar umumiyligi summasiga kamaytirilgan dividendlarning umumiyligi summasi sifatida aniqlanadi. Bunda taqsimlanadigan dividendlarning umumiyligi summasini ushbu yuridik shaxs tomonidan olingan dividendlar summasiga kamaytirish, basharti ushbu olingan dividendlar summasi avval ushbu yuridik shaxsning dividendlar tarzida olingan daromadlariga nisbatan soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmagan bo'lsa, amalga oshiriladi.

Dividendlar va foizlardan olinadigan soliq summasi bo'yicha soliq hisoboti o'zining soliq hisobiga olingan joyidagi soliq organiga dividendlar va foizlar hisoblangan oydan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay soliq agentlari tomonidan taqdim etiladi.

Soliq summasi dividendlarni va foizlarni to'lash muddatidan kechiktirmay byudjetga to'lanadi.

Soliq agenti dividendlar va foizlarni oluvchining talabiga ko'ra, ushbu shaxsga soliq davri uchun daromad summasi va ushlab qolining

soliqning umumiy summasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi ma‘lumotnomani taqdim etishi shart.

Soliq summasi to‘lov manbaida ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti soliqning ushlab qolinmagan summasini va u bilan bog‘liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq byudjetga kiritishi shart.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentlarning daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq solinadigan daromadni aniglash.
Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentning daromadlaridan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash o‘ziga xos

xususiyatlarni hisobga olgan holda hamda belgilangan tartibda mazkur norezident tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Bajarilishi Soliq kodeksida nazarda tutilgan, faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident bo‘lgan soliq to‘lovchining majburiyatlari uning doimiy muassasasiga yuklatilishi mumkin. Bunda doimiy muassasa soliq to‘lovchining barcha huquqlariga ega bo‘ladi.

Doimiy muassasaning jami daromadini bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshirish boshlangan sanadan e’tiboran olingan daromadlarning quyidagi turlari tashkil etadi:

1) norezident tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini o‘zining doimiy muassasasi orqali amalga oshirish natijasida olingan daromadlar;

2) norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va (yoki) uni tasarruf qilishdan olgan daromadlari;

3) norezidentning daromadlari, shu jumladan uning boshqa davlatlardagi tuzilmaviy bo‘linmalarining O‘zbekiston Respublikasidagi O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan mazkur yuridik shaxsning doimiy muassasasi orqali amalga oshiriladigan faoliyatga aynan o‘xhash yoki bir xil faoliyatni amalga oshirishdan oladigan daromadlari;

4) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan doimiy muassasaga tegishli boshqa daromadlar;

5) bunday doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq O‘zbekiston

Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.

Agar norezident O'zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham o'zining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi bilan birgalikda bajariladigan bitta loyiha yoki aloqador loyihalar doirasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa, agar norezident xuddi shunday yoki aynan o'xhash sharotlardagi faoliyatda band bo'lgan yakka va alohida shaxs bo'lganida hamda o'zi doimiy muassasasi bo'lgan norezidentdan mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatganida olishi mumkin bo'lgan daromad bunday doimiy muassasaning daromadi deb hisoblanadi.

Agar norezidentning doimiy muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlarni (xizmatlarni) norezidentning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan boshqa tarkibiy bo'linmasi realizatsiya qilsa, agar u xuddi shunday yoki aynan o'xhash sharotlardagi faoliyatda band bo'lgan yakka va alohida shaxs bo'lganida hamda o'zi doimiy muassasasi bo'lgan norezidentdan mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatganida olishi mumkin bo'lgan daromad bunday doimiy muassasaning daromadi deb e'tirof etiladi.

Agar norezident O'zbekiston Respublikasida uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, doimiy muassasa shakllanishiga olib keladigan tayyorgarlik va (yoki) yordamchi turdag'i faoliyatni amalga oshirsa va bunda shunday faoliyatga nisbatan haq olish nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza ushbu doimiy muassasaning bunday faoliyat bilan bog'liq xarajatlari summasining 20 foizi miqdorida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi norezidenti doimiy muassasasining shunday norezidentning bosh ofisi yoki boshqa tuzilmaviy bo'linmaları oldidagi majburiyatları bo'yicha yuzaga keladigan kursga oid farqlar O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi daromadlari (xarajatlari) jumlasiga kiritilmaydi.

Agar norezidentning O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyati doimiy muassasa shakllanishiga olib keladigan bittadan ortiq muassasasi bo'lsa, soliq solinadigan baza va soliq summasi har bir muassasa uchun alohida hisoblanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatdan doimiy muassasa orqali soliq solinadigan daromadlar olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar, ular O'zbekiston

Respublikasida yoki uning hududidan tashqarida qilinganidan qat'i nazar, doimiy muassasaning chegirmalari jumlasiga kiritiladi, bundan Soliq kodeksiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.

Soliq hisobotini taqdim etish va soliq to'lash tartibi. Doimiy muassasalar orqali faoliyat yuritadigan norezidentlar soliq hisobotini soliq hisobiga qo'yilgan joydagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etadilar:

1) hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo'yicha — soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Doimiy muassasa orqali faoliyat yuritadigan norezidentlar soliq davrining yakunlariga ko'ra soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan muddatlarda, soliq hisobiga qo'yilgan joydagi soliq organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyati to'g'risidagi hisobotni ham (ixtiyoriy shaklda) taqdim etadi.

Doimiy muassasaning faoliyati soliq davri tugaguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq bo'yicha soliq hisoboti va O'zbekiston Respublikasidagi faoliyati to'g'risidagi hisobot faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmay taqdim etilishi kerak.

Soliqni hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Norezident O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasa orqali faoliyatini tugatganda soliq bunday faoliyat tugaguniga qadar to'lanadi.

Norezidentlarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

tomonidan hisoblab chiqariladi va ushlab qolinadi. Soliqning ushlab qolinishi soliq to'lovchining daromadlaridan bunday daromadlarning har bir to'lovi paytida amalga oshiriladi.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinigan va doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan daromadlaridan olinadigan soliq norezidentga daromad to'lovchi soliq agenti

Soliq kodeksining 351-moddasiga muvofiq, bunday daromadlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslaridan olingan dividendlar;

2) O‘zbekiston Respublikasining qarz majburiyatlari bo‘yicha foizlar, shu jumladan chiqarish va muomalada bo‘lish shartlarida foizlar ko‘rinishidagi daromadlarni olish nazarda tutilgan davlat qimmatli qog‘ozlari. Bunda O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlarga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlarga soliq solinmaydi;

3) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslaridan va yakka tartibdagи tadbirkorlaridan olingan har qanday turdagи qarz majburiyatlari (shuningdek, foydada ishtirok etish huquqini beruvchi obligatsiyalar va konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar) bo‘yicha foizlar;

4) har qanday nomoddiy aktivdan O‘zbekiston Respublikasida foydalanish yoki foydalanish huquqini berish uchun royalti;

5) quyidagilar realizatsiya qilinganda olinadigan daromadlar:

- aksiyalar (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan aksiyalar mustasno), O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi (paylar);

- O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ko‘chmasa mulk;

- mulk majmuasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxona;

- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan investitsiya pay fondlarining investitsiya paylari.

- 6) norezidentga tegishli bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi rezidenti orqali tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish doirasida topshiriq shartnomasi va boshqa aynan o‘xshash fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida sotiladigan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

- 7) O‘zbekiston Respublikasida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni sug‘urtalash, birgalikda sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari;

- 8) O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan xalqaro aloqa uchun simli o'tkazgich, radio-optik yoki boshqa elektromagnit tizimlar orqali belgilari, signallar, matnlari, tasvirlar, tovushlarni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash uchun to'lovni nazarda tutuvchi telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;
- 9) xalqaro tashish, shu jumladan yuklarni yuklash, qayta yuklash, tushirish va joylash uchun tashish shartnomasi shartlarida nazarda tutilgan to'lov bo'yicha xizmatlar;
- 10) O'zbekiston Respublikasi hududida foydalilanadigan mol-mulkni ijaraga va ikkilamchi ijaraga berish, shu jumladan lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar, daryo, havo kemalarini va (yoki) boshqa transport vositalarini, shuningdek, konteynerlarni ijaraga yoki qo'shimcha ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- 11) xalqaro tashishlarda va O'zbekiston Respublikasi ichida tushishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlari;
- 12) shartnomalar majburiyatlarini buzganlik uchun jarimalar, penyalar va boshqa to'lovlar;
- 13) beg'araz olingan mol-mulk, xizmatlar;
- 14) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentiga yoki faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident bo'lgan yuridik shaxsga qarzni talab qilish huquqidan voz kechishdan olingan daromad;
- 15) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentidan yoki O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident bo'lgan yuridik shaxsdan qarzni talab qilish huquqini olish chog'ida talab qilish huquqidan voz kechishdan olingan daromad;
- 16) serverga axborot joylashtirish va unga texnik xizmat ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida disk maydoni va (yoki) aloqa kanalini taqdim etishdan olingan daromadlar;
- 17) boshqaruvga oid, texnik yoki maslahat xususiyatiga ega xizmatlar uchun to'lov sifatida belgilangan texnik xizmatlardan olingan daromadlar;
- 18) norezident tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida xizmatlar ko'rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

Soliq kodeksi 352-moddasiga muvofiq, quyidagilar soliq agentlari deb e'tirof etiladi:

- 1) yuridik shaxslar, shu jumladan soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilari;
- 2) yakka tartibdagagi tadbirkorlar;
- 3) faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi norezidentlar;
- 4) norezident bo'lgan yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari.

Soliq kodeksi 353-moddasiga muvofiq, soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

2.1.3-jadval

Norezidentlarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadlariga soliq stavkalari⁷

N	Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Sug'urta, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari	10
3	Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlar (fraxtdan olingan daromadlar)	6
4	Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb etilgan kreditlar bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan chet el moliya institutlariga to'lanadigan daromadlar	0
5	O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek, xalqaro to'lov kartochkalari vositasida hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar	0
6	Boshqa daromadlar, bundan 1–5-bandlarda ko'rsatilgan daromadlar mustasno	20

Soliq agentlari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Soliq bazasi soliq to'lovchiga har bir daromadni to'lash chog'ida soliq agenti tomonidan alohida aniqlanadi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 353-moddasidan olindi.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingen daromadlariga solinadigan soliq summasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lган foizdagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi O'zbekiston Respublikasining norezidentiga daromadni to'lash sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada Soliq kodeksida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda hisoblab chiqariladi va to'lanadi.

Norezidentlarga to'lanadigan daromadlardan olinadigan soliq summasini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq agenti tomonidan daromadlarning barcha turlari bo'yicha amalga oshiriladi, bundan quyidagi hollar mustasno, agar:

1) soliq agenti norezident tomonidan to'lanadigan daromad norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasiga taalluqli ekanligi va soliq agentining ixtiyorida norezident soliq organida norezidentning doimiy muassasasi sifatida hisobda turganligi to'g'risida soliq organi tomonidan tasdiqlangan ma'lumotnomma borligi haqida xabardor qilingan bo'lsa;

2) norezidentga to'lanadigan daromadga nisbatan 0 foizli soliq stavkasi nazarda tutilgan bo'lsa;

3) mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimlarni bajarishda olingen daromadlar to'lanadigan bo'lsa, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida bunday daromadlarni soliq solishdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa;

4) O'zbekiston Respublikasining qo'llaniladigan xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida soliq solinmaydigan daromadlar to'lanadigan bo'lsa, basharti tegishli daromadni olish uchun haqiqiy huquqqa ega bo'lган norezident tomonidan soliq agentiga Soliq kodeksida nazarda tutilgan tasdiqnomma taqdim etilgan bo'lsa.

Soliq agentlari tomonidan soliq hisob-kitobini taqdim etish va uni to'lash tartibi. Soliq kodeksi 355-moddasiga muvofiq, norezidentlarning daromadlaridan olinadigan soliq summalarini bo'yicha soliq hisoboti soliq agenti tomonidan o'zi soliq hisobiga qo'yilgan joydagи soliq organiga daromadlar to'langan oydan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Norezidentlarning daromadlaridan hisoblab chiqarilgan va ushlab qolning soliq summasi soliq agenti tomonidan byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

1) banklar tomonidan, bundan dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlar mustasno, — daromadlarni to‘lash amalga oshirilgan oydan keyingi oyning beshinchi kunidan kechiktirmay;

2) qolganlar tomonidan, — norezidentga daromadlar to‘langan kunning keyingi kunidan kechiktirmay.

**Yakka tartibdagi
tadbirkorlarning
daromadlariga soliq
solishning o‘ziga xos
xususiyatlari**

Soliq solinadigan daromadlarni va chegiriladigan xarajatlarni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari. Soliq davrida yakka tartibdagi tadbirkorlar yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda soliq solinadigan daromadlarning va chegiriladigan xarajatlarning hisobini

yuritishi shart.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida soliq solinadigan daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishi shart.

Quyidagilar soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlaridir:

— chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning soliq solinadigan daromadlarini va tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;

— tovar cheklari kitobi.

Soliq solish obyektini va soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Soliq solish obyekti va soliq bazasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda aniqlanadi.

Jami daromad yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingen daromadlardan iborat bo‘ladi.

Jismoniy shaxs o‘zining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o‘zidan aniq kelib chiqmasa, u yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotganligini ko‘rsatishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorning jami daromadidan soliq bazasini aniqlashda, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, Soliq kodeksining 44-bobiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlardan tashqari soliq solinadigan daromadning olinishi bilan bog‘liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha amortizatsiya ujratmalari aktivdan tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan taqdirda va tadbirkorlik faoliyati bilan xarajatlarning aloqasi aniq asoslangan bo'lsa, jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Yakka tartibdagagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashga haqlidir.

Soddalashtirilgan tartibdagagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi, bundan Soliq kodeksi 359-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan yakka tartibdagagi tadbirkorlar (*daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida soliq solinadigan daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishi shart bo'lgan savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagagi tadbirkorlar*) mustasno.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlar soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun soliq hisobida turgan joydagagi soliq organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shakldagi bildirishnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

- yangidan ro'yxatdan o'tkazilganlar — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlanguniga qadar;
- foyda solig'ini to'lashga o'tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o'tganlar — bir vaqtning o'zida foyda solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani soliq hisobida turgan joydagagi soliq organiga yuborganda;
- qolganlari — joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmay.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash quyidagi muddatlarda boshlanadi:

1) yangidan ro'yxatdan o'tkazilganlar uchun — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlangan paytdan;

2) foyda solig'ini to'lashga o'tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o'tganlar uchun — yakka tartibdagagi tadbirkor foyda solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani va soliq bazasini soddalashtirilgan tartibda hisoblab chiqarish haqidagi arizani soliq organiga taqdim etgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab;

3) qolganlari uchun — joriy yilning 1 yanvaridan boshlab.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechish va soliq bazasini hisoblab chiqarishning umumiy tartibiga o‘tish kelgusi soliq davri boshlanganidan e’tiboran amalgga oshiriladi.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning umumiy tartibiga o‘tish to‘g‘risidagi bildirishnomasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda soliq davri boshlanishidan kamida bir oy oldin soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq kodeksining 361-moddasiga muvofiq, soliq solishda quyidagilar hisobga olinmaydi:

1) yakka tartibdagagi tadbirkorning unga mulk huquqi asosida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yuvchi boshqa ashyoviy huquq tufayli tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkni sotishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinishi lozim bo‘lgan daromadlari;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hamda yakka tartibdagagi tadbirkor foya solig‘ini to‘lashga o‘tguniga qadar aylanmadan soliqni to‘lash davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Soliqui hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi.
Soliq kodeksining 362-moddasiga muvofiq, hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi yakka tartibdagagi tadbirkor tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida soliq davri boshlanishidan e’tiboran oshib boruvchi yakun tarzida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagagi tadbirkor tomonidan har bir hisobot va soliq davri o‘tganidan keyin, soliq solinadigan obyektlar mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagagi tadbirkor tomonidan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

– hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot choragidan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

– soliq davri yakunlari bo'yicha — o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Soliqni to'lash to'lash hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Quyidagi ma'lumotlar asosida foyda solig'ini hisoblang (mln. so'm hisobida):

- Tovarlar (ish, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushum – 5765;
- Qo'shilgan qiymat solig'i – 688;
- Aksiz solig'i – 380;
- Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – 3195;
- Sotish xarajatlari – 55;
- Ma'muriy xarajatlar – 93;
- Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad – 25;
- Olingan dividendlar – 105;
- Valyuta kursi bo'yicha ijobiy farq – 66;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar – 22;
- Favqulodda foyda – 5;
- Chegirilmaydigan xarajatlar – 408;
- Soliq imtivozi – 125;
- Foyda solig'i stavkasi – 15 foiz.

2-masala. Quyidagi ma'lumotlar asosida foyda solig'ini hisoblang (mln. so'm hisobida):

- Tovarlar (ish, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushum – 3192 shundan, eksport faoliyatidan – 670;
- Foyda solig'i to'langunga qadar foyda – 508;
- Olingan dividendlar – 115;
- Soliq imtivozi – 92;
- Foyda solig'i stavkasi – 15 foiz.

3-masala. Ishlab chiqarish korxonasi ikkinchi yil faoliyat yuritmoqda, uning foyda solig'i to'lagungacha bo'lgan foydasi 3500 mln. so'm bo'lgan.

Hisobot davri uchun qo'shimcha ravishda quyidagi ma'lumotlar mavjud:

– Xayriya jamg'armasiga homiylik yordami ko'rsatilgan – 180 mln. so'm;

– Nuroniyalar oromgohiga yordam mablag'i o'tkazib berilgan – 249 mln. so'm.

Hisobot davri uchun korxonaning to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i summasini aniqlang.

4-masala. Qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lovchisi hisoblangan ishlab chiqarish korxonasi bo'yicha 2019-yil hisobot davri uchun quyidagi ko'rsatkich berilgan:

- ichki bozorda mahsulotni sotishdan tushgan tushum – 12800 mln. so'm;

- chet el valyutasiga sotilgan mahsulot 140 ming AQSh dollari miqdorida (yuk ortilgan vaqtda 1 AQSh dollari – 9200 so'm);

- omborxonalarni ijaraga berishdan olingan daromad – 2700 mln. so'm;

- uskunalarni o'z vaqtida olib kelib o'rnatilmagani uchun mol yetkazib beruvchi korxonadan tushgan jarima va shartnomada ko'rsatilgan qo'shimcha to'lov – 998 mln. so'm;

- olingan dividendlar (dividenddan undirilgan soliq haqidagi ma'lumotnoma mavjud) – 339 mln. so'm;

- "RAYXON" firmasi beg'araz yordam sifatida kadrlar bo'limiga kompyuter dasturini o'rnatib berdi;

- 2017-yilda qonunchilikka asosan hisobdan chiqarilgan 310 mln. so'mlik sotilgan mahsulotning puli kelib tushgan;

- sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi – 11375 mln. so'm;

- belgilangan me'yorlarga 2 oshiriluvchi koeffitsiyentni qo'llagan holda ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan asosiy vositalar amortizatsiyasi - 210 mln.so'm.

O'tgan davr uchun quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan:

- o'z mahsulotlarini reklama qilish xarajatlari – 125 mln.so'm;

- ma'muriy boshqaruv xodimlarining (MBH) ish haqi xarajatlari – 4495 mln. so'm;

- ma'muriy boshqaruv xodimlarining xizmat safari xarajatlari, me'yordagisi – 392 mln. so'm, me'yordan yuqori – 85 mln. so'm;

- xizmat avtomobilini saqlash uchun xarajatlar – 145 mln. so'm;

- uyali (mobil) aloqa xarajatlari – 120 mln. so'm;

- ishlab chiqarishga daxldor bo‘lmanan asosiy vositalar amortizatsiyasi – 895 mln. so‘m;
- hisobot davrida olingan schyot-fakturalar bo‘yicha to‘langan QQS – 925 mln. so‘m.

Hisobot davri uchun quyidagilarni aniqlang:

1. Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan foyda solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini;
2. Korxonaning hisobot davri uchun sof foydasi (zarari) summasini.
3. Korxonaning moliyaviy natijalari bo‘yicha hisobotini tuzing.
4. Hisobot davri uchun foyda solig‘ining shaklini to‘ldiring.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Foyda solig‘i O‘zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Foyda solig‘ining to‘lovchilarini kimlar?
3. Rezident va norezidentlar kim va ular qanday tartibda soliqqa tortiladi?
4. Soliq obyekti va soliq solinadigan baza qanday tartibda aniqlanadi?
5. Korxonaning moliyaviy faoliyati natijalari qanday aniqlanadi?
6. Foyda solig‘i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqlashtirilgan?
7. Foyda solig‘ining hisob-kitobi qanday muddatdan kechiktirilmasdan taqdim etiladi?
8. Foyda solig‘i qanday muddatdan kechiktirmasdan byudjetga to‘lanadi?

2.2. Aylanmadan olinadigan soliq

**Aylanmadan olinadigan
soliqning iqtisodiy
mohiyati va soliq
to‘lovchilari**

o‘tish jarayonida kichik biznes mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga

va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bozorlarni mahsulotlar bilan to‘ldirish, turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi “Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risida”gi 159-sodn qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya’ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o‘tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat’iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o‘rnatalishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtirdi hamda ular bir nechta soliq turi o‘rniga faqatgina bitta yagona soliq bo‘yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada korxona hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarini jadal rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi “Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3620-sodn farmoniga muvofiq 2005-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston soliq tizimi amaliyotida kichik biznes subyektlarining ba’zi toifalari uchun yagona soliq to‘lovi joriy qilindi.

U bixillashtirilgan bo‘lib, quyidagi majburiy to‘lovlarni to‘lash o‘rniga joriy qilindi:

- yagona soliq;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratma;
- Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratma;
- Maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy ajratmalar.

2020-yil 1-yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi bilan yagona soliq to‘lovi o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq joriy etildi. Aylanmadan olinadigan soliq iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bevosita soliq bo‘lib, amaldagi Soliq kodeksining 461-470 moddalariga muvofiq undiriladi.

Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2) aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3) yuridik shaxslar — qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda ellik gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekin maydoni mavjud bo‘lsa;

4) benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga — oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha;

7) bo‘sish turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shaxslarga, ularidan samarasiz foydalanimayotganligi bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta’mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga.

Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston

Respublikasi yuridik shaxslari qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniغا aylanmadan olinadigan soliq to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Ushbu soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lган yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshganda, agar Soliq kodeksining 462-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tadi.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lган yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniغا qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnomaga yuboradi.

Bildirishnomaga yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda (*tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay*) taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to'laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida tanlangan soliq solish tartibini ko‘rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashni Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun va bir vaqtning o‘zida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy ravishda o‘tgan soliq to‘lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo‘yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so‘mdan oshmagan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga kamida o‘n ikki oydan keyin qayta o‘tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro‘y bergen oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalender yil tugaguniga qadar, 365 ga bo‘lingan va ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalender yil tugaguniga qadar bo‘lgan kunlar soniga ko‘paytirilganda bir milliard so‘mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro‘yxatdan o‘tilgan yildan keyingi yildan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo‘yicha

umumiylar aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo'yicha xulosa kiritilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to'g'risida xulosa berishga vakolati bo'lgan vakolatlari organning xulosasi chiqarilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta'mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Soliqni to'lash soliq to'lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

- Soliq kodeksi bilan uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;
- agar Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hisobvaraq-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

Soliq solish obyekti va soliq bazasi

Soliq kodeksining 463-moddasiga muvofiq jami daromad soliq solish obyektiidir, bundan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog'ida inobatga olinmaydigan daromadlar (Soliq kodeksi 304-moddasi "Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar") mustasno.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z

kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchal qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

– mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

– vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

– tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun — agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

– notijorat tashkilotlarining Soliq kodeksi 318-moddasida ko'rsatilmagan daromadlari.

Soliq solish obyekti bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirliganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu

emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to'lash hisobidan yoki dividend to'lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishslash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

4) ko'p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo'lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha daromadlar Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobjiy va salbiy farqlar o'rtaqidagi saldo soliq solish obyekti deb e'tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobjiy farq summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to'lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoxud qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tguniga qadar olingen daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

Soliq kodeksining 464-moddasiga ko'ra, jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo'lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko'p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo'lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo'shimcha

buholashda olingen, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingen daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular shakllangan davrdagi qonun hujjalariiga muvofiq soliqlar bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazilganligi inobatga olingen holda soliq solinadi;

6) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingen daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingen daromadlar umumiylar daromadning 15 foizidan ko'prog'ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza yuqorida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovleri summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun — turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlarning soliq bazasi bo'lib, uning tadbirkorlik faoliyati doirasida olingen jami daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs o'z tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda o'zining yakka tartibdagagi tadbirkor sifatida faoliyat ko'rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o'zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko'rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingen daromadlari hisobga olinmaydi.

Daromadlarga tuzatish kiritish. Hisobot soliq davrida soliq bazasini ko'paytirish yoki kamaytirish daromadlarga tuzatish kiritish deb e'tirof etiladi.

Daromadlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o'zgarganda;

3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovlardan foydalanganda;

4) ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Daromadlarga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish yuqorida ko'rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovari (xizmatlarni) sotuvchi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritishni Soliq kodeksining 257-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Daromadlarga yuqorida ko'rsatilgan hollarda tuzatish kiritish mazkur hollar yuz bergen soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish soliq to'lovchi umumbelgilangan soliq solish tartibidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tgan hollarda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritiladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llash hollari mustasno.

Soliq stavkalari

Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari
Soliq kodeksining 467-moddasida keltirilgan bo'lib, u quyidagicha tabaqa-lashtirilgan holda belgilangan:

2.2.1-jadval

Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari⁸

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilar, bundan 2 — 14-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	4
2.	Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3.	Lombardlar	25
4.	Konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy	5

⁸ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 467-moddasidan olindi.

	tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar											
5.	Brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek, vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar, shu jumladan telekommunikatsiya operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar	25										
6.	Sug'urta agentlari, shuningdek, sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va tovar-xomashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	13										
7.	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	8										
8.	<p>Umumi ovqatlanish korxonalari joylashgan joyiga qarab:</p> <table> <tr> <td>aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda</td> <td>8</td> </tr> <tr> <td>boshqa aholi punktlarida</td> <td>6</td> </tr> <tr> <td>borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda</td> <td>4</td> </tr> <tr> <td>shundan</td> <td></td> </tr> <tr> <td>umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumi ovqatlanish korxonalari</td> <td>Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75 foizi</td> </tr> </table>	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8	boshqa aholi punktlarida	6	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	4	shundan		umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumi ovqatlanish korxonalari	Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75 foizi	
aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8											
boshqa aholi punktlarida	6											
borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	4											
shundan												
umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumi ovqatlanish korxonalari	Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75 foizi											
9.	Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar											
9.1.	<p>joylashgan joyiga qarab:</p> <table> <tr> <td>aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda</td> <td>4</td> </tr> <tr> <td>boshqa aholi punktlarida</td> <td>2</td> </tr> <tr> <td>borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda</td> <td>1</td> </tr> </table>	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4	boshqa aholi punktlarida	2	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1					
aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4											
boshqa aholi punktlarida	2											
borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1											
9.2.	joylashgan joyidan qat'i nazar:											

	alkogolli mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gazni realizatsiya qilishdan tovar aylanmasi bo‘yicha	4
10.	Ulgurji, shuningdek, ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalarini (11-bandda ko‘rsatilganlardan tashqari)	4
11.	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1
12.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	tovar aylanmasining 4 foizi yoki yalpi daromadning 25%i
13.	Elektron tijorat subyektlarining Milliy reestriga kiritilgan soliq to‘lovchilar	2
14.	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, “Nuroniy” jamg‘armasi va “O‘zbekiston Chernobilchilar” assotsiatsiyasi bo‘lgan va umumiy sonida nogironlar, urush va 1941–1945-yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo‘limgan va nogironlar, urush va 1941–1945-yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining 50 foizidan kam bo‘limgan soliq to‘lovchilar	0

Soliq kodeksining 468-moddasiga ko‘ra, turli soliq solish obyektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan soliq to‘lovchilar bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq to‘lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha soliqni to‘lashi shart.

Ushbu qoidalar chakana savdo sohasidagi mustaqil yuridik shaxs bo‘limgan turli aholi punktlarida joylashgan bir qancha savdo

nuqtalariga ega soliq to‘lovchilarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq kodeksida ko‘rsatilgan quyidagi daromadlarga soliq to‘lovchining hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha umumiy jami daromadlaridagi ulushi ustunlik qiladigan faoliyat turi uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha soliq solinadi:

- REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;
- qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha olingan daromad;
- asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad;
- tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);
- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad, bundan ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar mustasno;
- talab qilish huquqidan o‘zgan foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;
- ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromad;
- qarzdor tomonidan e’tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek, zararlarning (ziyonning) o‘rnini qoplash summalar;
- kursdagi ijobiy farq;
- shakllantirilish xarajatlari Soliq kodeksining 44 va 45-boblarida belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zaxiralar summalar;
- aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o‘z ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;
- korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

- nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;
- foizlar tarzidagi daromadlar.

**Soliqni hisoblab
chiqarish, soliq
hisobotlarini taqdim
etish va soliqni to'lash
tartibi**

Soliq kodeksining 469-moddasiga muvofiq, kalendar yil soliq davri, yil choragi hisobot davridir.

Soliq kodeksining 470-moddasiga muvofiq, hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq to'lovchi

tomonidan mustaqil aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi (*2-ilova*):

- hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay;
- soliq davri yakunlari bo'yicha — soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay;

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliqni to'lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay, ya'ni:

- hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay;
- soliq davri yakunlari bo'yicha — soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi bo'lgan ishlab chiqarish korxonasi joriy yilda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan:

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum – 65000 ming so'm;
- davlat qimmatli qog'ozlарidan olingan daromad – 350 ming so'm;

- valuta hisobvaraqlari bo‘yicha, shuningdek, chet el valutasidagi operatsiyalar bo‘yicha kursdagi ijobjiy farq – 52 ming so‘m;
- valuta hisobvaraqlari bo‘yicha, shuningdek, chet el valutasidagi operatsiyalar bo‘yicha kursdagi salbiy farq – 45 ming so‘m;
- sud qarori bilan korxonaga undirib berilgan jarima summasi – 250 ming so‘m;
- da‘vo muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning hisobdan chiqarilgan summasi – 550 ming so‘m;
- tekinga olingan mol-mulk qiymati – 280 ming so‘m.

Hisobot davri uchun aylanmadan olinadigan soliq summasini aniqlang.

2-masala. Aylanmadan olinadigan soliq va qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan ishlab chiqarish korxonasi bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar berilgan:

- tovar (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum (QQS bilan) – 650000 ming so‘m;
- asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum – 66000 ming so‘m (asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati 100000 ming so‘m, hisoblangan amortizatsiya summasi – 50000 ming so‘m);
- mol yetkazib beruvchilar tomonidan xo‘jalik shartnomasiga muvofiq to‘lab berilgan jarima summalar – 250 ming so‘m;
- binoni ijara berishdan olingan daromadlar – 25000 ming so‘m.

Hisobot davri uchun byudjetga hisoblangan va to‘lanadigan aylanmadan olinadigan soliq hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini aniqlang.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun maxsus soliq rejimlarini soliq amaliyotida tatbiq etishning zarurligi nimada?
2. Soliq amaliyotida soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qachon va qaysi me’yoriy hujjat asosida ilk bor joriy qilingan?
3. Aylanmadan olinadigan soliq qachon joriy etildi?
4. Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilari kimlar?

5. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti nima?
7. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq bazasi nima va u qanday tartibda aniqlanadi?
8. Aylanmadan olinadigan soliqning stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
9. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq hisobotini taqdim etish muddatini aytинг.
10. Aylanmadan olinadigan soliq byudjetga qaysi muddatdan kechiktirmasdan to'lanadi?

2.3. Ijtimoiy soliq

Ijtimoiy soliqning iqtisodiy mohiyati va soliq to'lovchilari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2004-yilgi davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 567-son qaroriga muvofiq 2004-yil 1-yanvardan boshlab mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urtaga (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi) majburiy badallar to'lash o'rniga mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar mehnatiga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov joriy qilindi. Yagona ijtimoiy to'lov davlat soliq va yig'imlariga tenglashtirildi.

2020-yil 1-yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi bilan yagona ijtimoiy to'lov o'rniga ijtimoiy soliq joriy etildi. Ijtimoiy soliq iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bevosita soliq bo'lib, amaldagi Soliq kodeksining 402–409-moddalariga muvofiq undiriladi.

Soliq kodeksining 402-moddasiga muvofiq, ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan

yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari.

Ijtimoiy soliqni solish obyekti hamda soliq bazasi

Soliq kodeksining 403-moddasiga binoan, ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish obyektidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

- ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararning o'rmini qoplash tarzidagi, Soliq kodeksi 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari, ya'ni:

- jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararning o'mi uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjalarda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,76 baravaridan kam bo'limgan miqdorda qoplanadi);

- maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlар uchun oyiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi miqdoridagi to'lovlar;

- jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlар tariqasida har oyda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi miqdoridagi to'lovlar;

- xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

- paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariiga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun

mehnat haqi to‘lashga doir xarajatlar.

Soliq kodeksining 404-moddasiga muvofiq, ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi Soliq kodeksining 371-moddasi (*Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar*)ga muvofiq to‘lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O‘zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to‘lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta‘minlash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnomalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxsga to‘lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari bo‘yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik

Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi

xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O‘zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta‘minlash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnoma bo‘yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo‘limgan summada belgilanadi.

Soliq kodeksining 406-moddasiga binoan, ijtimoiy soliq uchun kalendar yil soliq davri va yil oyi hisobot davri hisoblanadi. Ijtimoiy soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Ijtimoiy soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo‘yicha, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan

shaxslar bo'yicha soliqni to'lash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq kodeksining 405-moddasiga muvofiq, ijtimoiy soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

2.3.1-jadval

Ijtimoiy soliq stavkalari⁹

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Soliq to'lovchilar, bundan 2 — 4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Byudjet tashkilotlari	25
3.	"SOS — O'zbekiston Bolalar mahallalari" uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4555-son Qaroriga muvofiq, 2020-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy soliq summasi belgilangan tartibga muvofiq davlat maqsadli jamg'armalari bilan O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o'rtaida quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- | | |
|--|---------|
| 1. Byudjet tashkilotlari bo'yicha: | - 100% |
| - byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga | - 99,2% |
| - Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga | - 0,4% |

⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 405-moddasidan olindi.

- O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga	- 0,4%
2. Boshqa to'lovchilar bo'yicha:	- 100%
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga	- 98,4%
- Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga	- 0,8%
- O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga	- 0,8%

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagi soliq organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi (*3-ilova*).

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo'yicha soliqning hisoboti hisobot yildan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to'lash har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Toshkent shahrida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona ishchilariga hisoblangan ish haqi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1. Direktor – 5 250 000 so'm (1 oyga);
2. Hisobchi – 4 600 000 so'm (1 oyga);
3. Sotuvchi – 3 500 000 so'm (1 oyga).

Savdo korxonasining 2020-yil yanvar oyi uchun ijtimoiy soliq summasini aniqlang?

2-masala. Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonada 6 kishi ishlaydi. 2020-yilning yanvar oyi uchun ularga jami 12 500 000 so'm ish haqi hisoblangan.

Savdo korxonasingning 2020-yil yanvar oyi uchun ijtimoiy soliq summasini aniqlang?

3-masala. Toshkent shahrida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona ishchilariga hisoblangan ish haqi bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar berilgan:

1. Direktor – 5 650 000 so‘m (1 oyga);
2. Hisobchi – 4 400 000 so‘m (1 oyga);
3. Sotuvchilar – 3 000 000 so‘m (1 oyga).

2020-yil yanvar oyi uchun savdo korxonasingning o‘tkazib berishi lozim bo‘lgan ijtimoiy soliq summasini aniqlang?

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Ijtimoiy soliqni to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?
2. Ijtimoiy soliqning obyekti nima?
3. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish uchun baza qanday tartibda aniqlanadi?
4. Ijtimoiy soliqning stavkalari miqdorlarini ayting.
5. Ijtimoiy soliq qanday tartibda hisoblab chiqariladi?
6. Ijtimoiy soliq qanday to‘lov larga nisbatan hisoblanmaydi?
7. Ijtimoiy soliq qanday muddatlarda to‘lanadi?
8. Ijtimoiy soliq summasi qanday tartibda taqsimlanadi?

III BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN BILVOSITA SOLIQLAR

3.1. Qo'shilgan qiymat solig'i

**Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha.
Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi**

Hozirgi vaqtida O'zbekiston va xalqaro soliq amaliyatida bilvosita soliqlarning asosiy turlaridan biri – qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya

jarayonida undiriladigan ko'p qirrali bilvosita soliqdir. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xomashyo sotib oladi va ulardan mahsulot ishlab chiqaradi, ishlar bajaradi yoki xizmatlar ko'rsatadi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xomashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtaсидаги farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyatida joriy etishni 1919-yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyatga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz molivachisi Morris Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorenning taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i 1968-yidan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlарining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977-yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovar aylanmasi, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovar aylanmasi ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko'pchilik hollarda, qo'shilgan qiymat solig'ini "Yevropacha" soliq, deb ham atashadi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo'lgan Fransiyada joriy etildi; ikkinchidan, 1977-yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bir vaqtning o'zida Yevropaning bir necha davlatlarida joriy etildi; uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.


Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rinni egallaydi. Yevropa mamlakatlarda egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarda jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhibiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zar o'ryug'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovar aylanmasining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini

umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg‘unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekiston soliq tizimida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992-yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliq o‘rniga aksiz solig‘i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig‘i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbayi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-son qaroriga ko‘ra 2019-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 35.1 foizni, egri soliqlardagi ulushi esa 76.5 foizni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini byudjet daromadlarining asosiy manbayi ekanligini bildiradi (3.1.1-diagramma).



3.1.1-diagramma. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i dinamikasi¹⁰

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003–2018-yillardagi “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida tayyorlangan.

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublikamiz byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'inining salmog'i 2004–2012-yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, jumladan, 2004-yilda jami daromadlarga nisbatan 23.1 foizni, 2006-yilda 25.2 foizni, 2008-yilda 28.1 foizni, 2010-yilda 30.4 foizni, 2012-yil 33.0 foizni tashkil etgan. Biroq mazkur salmoq 2019-yil byudjet ko'rsatkichlarida 35.1 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2012-yilga nisbatan 2.1 foizli punktga ko'pdir. Bu holatni byudjet daromadlarida mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarini salmog'ini ortganligi bilan izohlash mumkin.

Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti, soliq solish bazasi va soliq stavkalari Qo'shilgan qiymat solig'inining to'lovchilari bo'lib, amaldağı Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

- 1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- 2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagи tadbirkorlar;
- 3) O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa;
- 4) faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;
- 5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha — oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;
- 6) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyatlari Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq agentlari tomonidan bajariladi.

Quyidagilar soliq to'lovchilar deb hisoblanmaydi, bundan yuqorida keltirilgan 6-bandda nazarda tutilgan hollar mustasno:

1) davlat hokimiyati va boshqaruv organlari – o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;

2) aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchi shaxslar.

Soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish hisobida turadi.

Amaldagi Soliq kodeksining 238-moddasiga ko'ra, quyidagilar soliq solish obyektidir:

1) realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lган tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma;

2) O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagи tadbirkor tomonidan o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lмаган shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o'tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisasi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o'zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno).

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi. Soliq kodeksining

239-moddasiga muvofiq, tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo'lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo'yicha o'tkazish;

2) tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno;

3) mol-mulkni moliyaviy ijara (lizingga) berish;

4) tovarni bo'lib-bo'lib to'lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko'rsatish;

2) bepul xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to'lovchining bepul foydalanishi uchun berish, bundan shunday xizmatlarni ko'rsatish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno.

Tovarlarni bepul berish yoki bepul xizmatlar ko'rsatish quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi deb e'tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo'lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi asoslantirilgan bo'lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Bundan tashqari quyidagilar ham tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) ishtirokchilari o'rtaida shunday shartnoma doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoxud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish

ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarini qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

v) yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga.

4) xarajatlari Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq (bundan 20-banda nazarda tutilgan xarajatlar mustasno) foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o‘z kuchi bilan xizmatlar ko‘rsatish;

5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

6) soliq to‘lovchi tomonidan o‘ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo‘yicha soliq summasi to‘liq yoki qisman hisobga o‘tkazilgan bo‘lsa, boshqaruv organi a’zolariga, xodimlarga, ularning oila a’zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko‘rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishslashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishslash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to‘lamasdan joylashtirilgan tovarni yo‘qotish, boshqa holatlarda soliqni to‘lash zarur bo‘lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo‘lgan, ko‘p marta muomalada bo‘ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini beruvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma deb e’tirof etiladi.

Tovarlarni realizatsiya qilish joyi. Soliq kodeksining 240-moddasiga binoan, quyidagi shartlardan hech bo‘limganda bittasi bajarilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi:

1) tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo‘lsa;

2) tovar jo‘natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa.

Xizmatlarni realizatsiya qilish joyi. Soliq kodeksining 241-moddasiga muvofiq, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, basharti bunday xizmatlarning xaridori O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshirsa yoki tursa, O‘zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi.

Agar xizmatlarning xaridori O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxsni (uning filiallarini yoki vakolatxonalarini) yoki jismoniy shaxsni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish asosida haqiqatda hozir bo‘lsa, mazkur hudud xaridorning faoliyatni amalga oshirish joyi deb e’tirof etiladi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan taqdirda, xaridorning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo‘lishi yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan joy yoki uni boshqarish joyi, uning doimiy muassasasi joylashgan yer (agar xizmatlar ushbu doimiy muassasa orqali olingan bo‘lsa), jismoniy shaxsning yashash joyi asosida belgilanadi.

Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari. Amaldagi Soliq kodeksining 247-moddasiga ko‘ra, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan o‘zi ishlab chiqqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan Soliq kodeksi va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog‘ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to‘lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to‘lov, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bilan haq to‘lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog‘ida soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) Soliq kodeksida belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma

amalga oshirilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi shartnomada tovarlarga (xizmatlarga) chet el valyutasida belgilangan summaga teng bo‘lgan summadagi milliy valyutada haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa hamda bunda realizatsiya qilingan tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘langan sana ularni realizatsiya qilish bo‘yicha Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan aylanma amalga oshirilgan sanaga to‘g‘ri kelmasa, mazkur sanalarda chet el valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

Soliq bazasini aniqlash tartibi. Soliq kodeksining 248-moddasiga ko‘ra, soliq bazasi aksiz solig‘ini (aksiz to‘lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo‘llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi.

Xaridorlarga realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani amalga oshirish sanasida chegirmalar (boshqa tijorat bonuslari) bergen soliq to‘lovchi soliq bazasini bunday chegirmalar (tijorat bonuslari) chegirib tashlangan holdagi narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

- 1) tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayrboshlab realizatsiya qilishda;
- 2) tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko‘rsatishda);
- 3) yuridik shaxsning mol-mulkidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.

Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo‘lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to‘lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor

narxlariga muvofiqligini va soliq to‘lashdan bo‘yin tovashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo‘li bilan nizolashishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan (import qilingan) tovarlarni realizatsiya qilish chog‘ida soliq bazasi ushbu tovarlarni olib kirish (import qilish) chog‘ida byudjetga haqiqatda to‘langan soliq hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ularni qayta ishslashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha esa ularni qayta ishslashga doir xizmatlarning qiymati asosida, Soliq kodeksiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig‘i hisobga olingan holda aniqlanadi.

Obyektlarni qurishda, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek, uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagи boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalender oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlар hajmining soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanadi. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materialarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, soliq bazasi bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymatidan kelib chiqqan va buyurtmachi materiallarining qiymatini soliq bazasiga kiritmagan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga mehnat haqi hisobiga yoki dividendlar to‘lovlari hisobiga tovarlar berilganda (xizmatlar ko‘rsatilganda) soliq bazasi tovarlarning (xizmatlarning) qiymatidan kelib chiqqan va soliqni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Erkin bojxona hududining bojxona rejimiga soliq to‘lamasdan joylashtirilgan tovar yo‘qotilganda soliq bazasi tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati, tovarlar O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘i va bojxona bojini qo‘sghan holda aniqlanadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) olishga bo‘lgan huquqni beruvchi vaucherni realizatsiya qilish chog‘ida vaucherning soliq hisobga olingan holdagi qiymati soliq bazasi bo‘ladi.

Olib sotish uchun jismoni shaxslardan olingan avtomobillar va uyjoy ko‘chmas mulk obyektlari realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va sotib olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilgan taqdirda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) soliq bazasi barcha davriy ijava (lizing) to‘lovlari summasi (shu jumladan, qaytarib sotib olish summasi, agar shartnomada shunday summa nazarda tutilgan bo‘lsa) sifatida, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz hisobidagi daromadi chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra komitentga (ishonch bildiruvchiga) tegishli bo‘lgan tovarlar realizatsiya qilingan taqdirda, vositachilik (topshiriq) shartnomasining shartlariga muvofiq bo‘lgan shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo‘yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga xizmatlar ko‘rsatganda soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi:

1) vositachining (ishonchli vakilning) soliq bazasi – uning soliqni o‘z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida;

2) komitentning (ishonch bildiruvchining) soliq bazasi – komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan tovarlarning qiymati, shuningdek, soliqni kiritmagan holda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo‘yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga ko‘rsatgan xizmatlarning qiymati miqdorida.

Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizatsiya qilinganda, soliq bazasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda, uni realizatsiya qilishning soliqni o‘z ichiga oladigan narxi miqdorida, ushbu korxona mol-mulkining har bir soliq obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Yo‘lovchilarni, bagajni, yuklarni yoki pochtani temir yo‘l, avtomobil, havo yoki daryo transportida tashishlar amalga oshirilganda

soliq bazasi soliqni qo'shmagan holdagi tashish qiymati sifatida aniqlanadi.

Imtiyozli tariflar bo'yicha yo'l hujjatlari realizatsiya qilinganda soliq bazasi ushbu imtiyozli tariflardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Muddatli bitimlar bo'yicha tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganda soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bevosa shartnomada ko'rsatilgan, lekin realizatsiya qilingan sanadagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymatdan past bo'limgan qiymati sifatida aniqlanadi.

Muddatli bitim deganda shartnomada belgilangan muddat tugagach bevosa ushbu shartnomada ko'rsatilgan narx bo'yicha tovarlar yetkazib berilishini (xizmatlar ko'rsatilishini) taqozo etadigan bitim tushuniladi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi quyidagilarni qo'shgan holda hisoblab chiqarilgan ushbu tovarlarning qiymati sifatida aniqlanadi:

1) tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatini;

2) tovarlar O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i va bojxona bojini.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishslash mahsulotlari ushbu hududga olib kirilayotganda soliq bazasi bunday qayta ishslashning qiymati sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan bir nomdag'i, turdag'i va markadagi tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bir turkumi tarkibida bir vaqtning o'zida ham aksiz to'lanadigan, ham aksiz to'lanmaydigan tovarlar mayjud bo'lsa, soliq bazasi mazkur tovarlarning har bir guruhiga nisbatan alohida aniqlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar turkumi tarkibida bojxona hududidan tashqarida

qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishslash mahsulotlari mavjud bo'lsa, soliq bazasi xuddi shunday tartibda aniqlanadi.

Soliq bazasiga tuzatish kiritish. Soliq to'lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda;
- 3) bitim shartlari o'zgarganda, shu jumladan jo'natilgan tovarlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning narxi va (yoki) soni (hajmi) o'zgarganda;
- 4) tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi tomonidan chegirmalar berilganda. Bunday tuzatish kiritish, agar siyovlar berish shartlari shartnomada yoki soliq to'lovchining narx (tarif) siyosatida nazarda tutilgan bo'lsa, ilgari amalga oshirilgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo'yicha soliq bazasini kamaytiradi. Bunday shartlar tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko'rsatish) shartnomasining muayyan shartlarini xaridor tomonidan bajarishni, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) muayyan hajmini olishni va muddatidan oldin haq to'lashni nazarda tutishi mumkin.

Soliq bazasiga uni kamaytirish yoki ko'paytirish tarafga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992-yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999-yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'inинг 3 xil stavkasi (2 foiz, 15 foiz va nollik) amalda qo'llanildi. Faqat uchta band, ya'ni eksport, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga beriladigan mineral o'g'it va yoqilg'i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar "0" stavkasi bo'yicha soliqqa tortildi. 15 foizli qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi esa un, non, go'sht,

sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug'doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

2000–2019-yillarda (1-oktyabrga qadar) respublikamizda 20 foizli va nol darajali stavkalar qo'llanilib kelindi. 2019-yil 1-oktyabrdan boshlab esa 15 foizli, nol darajali hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ining farqlangan stavkalari (farqlangan stavkalar 2020-yil 1-yanvardan bekor bo'lgan) joriy etildi.

Umuman olganda nollik stavka deganda korxona ishlab chiqarayotgan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i nollik stavkada tortiladi, soliq summasi "nol"ga teng bo'ladi.

Quyidagilarga nollik darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:

1. O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

Ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armanistonda Tojikistonda, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqqa tortilmaydi, Nollik stavka ham qo'llanilmaydi. Qozog'istonda esa MDHdan tashqariga eksport nollik stavkada soliqqa tortiladi.

Eksport qilingan tovarlarni qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortish masalasida O'zbekiston bilan boshqa davlatlar o'rtasida davlatlararo bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan bo'lib, ammo ratifikatsiya qilinmagan (tasdiqlanmagan) holatlarda imtiyozni qo'llashning iloji bo'lmaydi, ya'ni imtiyoz qo'llash uchun qonuniy asos bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtida Qirg'iziston, Ozarbayjon, Moldova, Rossiya, Qozog'iston bilan ham bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan. Shartnomada kelishilgan daylatlar bojxona hududlarida tovarlar (ish va xizmatlar) eksport qilinganda "0" stavkadagi qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash ko'zda tutilgan;

2. Ilgari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga

joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash natijasida olingan (hosil bo‘lgan) tovarlar (qayta ishlash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3. O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g‘amlab qo‘yilgan narsalar. Ushbu me’yorni qo‘llash maqsadida havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i va yonilg‘i-moylash materiallari g‘amlab qo‘yilgan narsalar deb e’tirof etiladi;

4. Chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog‘ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;

5. Xalqaro tashishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar.

6. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi to‘langan soliqni qoplash (qaytarish) yo‘li bilan nol darajali stavkasi bo‘yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

- chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalar diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;

- Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lsa.

Agar tegishli chet davlatning qonun hujjalarda O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu vakolatxonalarning diplomatik hamda ma’muriy-texnik xodimlariga (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolariga) nisbatan xuddi shunday tartib belgilangan bo‘lsa yoxud bunday norma O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, nol darajali stavkani qo‘llash Soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek, idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo'linmalari tomonidan olishga;

8. Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo'yicha vakolatli organga realizatsiya qilinadigan bunday metallarga.

2006-yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar va yonilg'i-moylash materiallariga nollik stavka bekor qilindi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli nollik stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan, balki byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan nollik stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lмаган taqdirda, unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy qoldiqni paydo bo'lishi muammosi asosan mahsulotini eksport qiluvchi yirik korxonalarda kuzatiladi. Bu korxonalar toifasiga Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati, Qabul Tekstaylz – O'zbek qo'shma korxonalarini kiritish mumkin (mazkur korxonalarda eksport jami sotilgan tovarlarning 90 foizini tashkil qiladi). Bu muammo nollik stavkada soliqqa tortish natijasida ortilgan mahsulotga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasligini va olingan materiallarga qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinishi oqibatida yuzaga keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining vatani hisoblangan Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha to'rtta stavka amal qiladi, ya'ni standart stavka, qisqartirilgan stavka, oraliq stavka va oshirilgan stavka.

Standart soliq stavkasi 19,6 foiz qilib belgilangan. Bu stavka o'zgacha stavkalar qo'llanilishi ko'zda tutilgan operatsiyalardan tashqari barcha operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Pasaytirilgan stavka (2,2; 5,5 foiz) oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchiligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun, kitoblar va dori-darmonlar uchun amal qiladi. Shunday pasaytirilgan stavka ayrim xizmat turlariga: turizm va mehmonxona xizmatlari, yuk va yo'lovchi tashish, tomosha tadbirlari, korxonalarining xodimlariga beriladigan ovqatlarga tegishlidir. Oraliq stavka gaz, elektr, issiq suv, ko'mir, neft mahsulotlari, spirt, kofe kabi tovarlarni soliqqa tortish uchun qo'llaniladi. Oshirilgan stavka (22 foiz) ayrim mahsulot turlariga, jumladan, avtomobillar, kino-foto tovarlar, tamaki mahsulotlari, parfyumeriya, qimmatbaho mo'ynalarga nisbatan qo'llaniladi.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'ining uchta stavkasi amal qiladi: 8; 17,5 va nollik. Soliqning nollik stavkasi tovarlarning 17 ta guruhiga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta'minoti va kanalizatsiya, ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan kitoblar va qo'llanmalar, yoqilg'i va isitish, transport vositalari, xalqaro xizmatlar, kiyim-kechak va poyabzal, xayr-ehsonlarga nisbatan qo'llaniladi. 8 foizli stavka ta'minotning kommunal turlari borasidagi xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. 17,5 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlar)ning barcha boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi.

Ispaniya Qirolligi mamlakatida qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 16 foizni tashkil etadi. Pasaytirilgan stavkalar, ya'ni nollik stavka – eksport bilan bog'liq tovar va xizmatlar uchun; 4 foizli stavka – birinchi zarur tovarlar uchun (non, g'alla, sut, tuxum, mevalar, sabzavotlar, kitoblar, gazetalar, dori-darmonlar, munitsipial uylar, nogironlar uchun mashinalar va h.k.); 7 foizli stavka – oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy qurilishi, transport, turizm uchun, 28 foizli stavka esa zeb-ziynat buyumlari va avtomobillar bo'yicha belgilangan.

Rossiya Federatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'inинг 20; 10 va nollik stavkalari qo'llaniladi. Nollik stavka tovarlar (ish va xizmatlarning) ayrim turlariga, 10 foizli stavka oziq-ovqat va bolalar tovarlariga, 20 foizli stavka esa tovarlar (ish va xizmatlar)ning boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi¹¹.

Soliq imtiyozlari

Qo'shilgan qiymat solig'idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular Soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan. Bular:

- 1) Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma (243-modda);
- 2) Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar (244-modda);
- 3) Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari (245-modda);
- 4) Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (246-modda).

Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma. Quyidagilarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

- 1) maktabgacha ta'lif muassasalarida (tashkilotlarida) bolalarga qarash bo'yicha xizmatlarni;
- 2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlarni;
- 3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o'tkazishga doir xizmatlarni;
- 4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilish, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni;

¹¹ Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2003. 158-bet

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilar umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining kamida

50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni;

7) pochta markalarini (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalarni, konvertlarni;

8) pensiyalar va nafaqalar to‘lashga doir xizmatlarni;

9) byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini. Mazkur soliq solishdan ozod etish tegishli moliya organining byudjetdan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi;

10) o‘qitish (ta’lim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o‘tkazishni tashkil etish xizmatlarini, xususan:

boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus, texnik va kasb-hunar, oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasidagi ta’lim xizmatlarini;

ta’lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘srimcha ta’lim berish bo‘yicha xizmatlarni;

maktabgacha ta’lim va tarbiya dasturlari doirasida ta’lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo‘yicha xizmatlarni, to‘garaklarda, seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda voyaga yetmagan bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni;

11) tibbiyot muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarni (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Tibbiy xizmatlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

tibbiy yordamga va sanitariya xizmati ko‘rsatishga doir xizmatlar;

tashxis qo‘yish, profilaktika va davolash bo‘yicha xizmatlar; stomatologik xizmatlar, shu jumladan tishlarni protezlash bo‘yicha xizmatlar;

12) veterinariya xizmatlarini. Veterinariya xizmatlari jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

veterinariyaga oid xizmatlar ko‘rsatish, hayvonlarga tashxis qo‘yish va ularni davolash bo‘yicha xizmatlar;

hayvonlar va inson uchun umumiylar bo‘lgan kasalliklardan aholini himoya qilish;

O‘zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya va veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta’minlash;

13) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarni;

14) sanatoriylar, sog‘lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlarini. Ushbu me’yorni qo‘llash maqsadida:

a) sanatoriylar, sog‘lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko‘rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatilishidan qat‘i nazar, yo‘llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo‘yicha o‘quv guruahlari hamda jamoalarida sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishga oid xizmatlar, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarni, sport-tomosha tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar, shuningdek, mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish uchun sport inshootlarini ijara berish kiradi;

15) yo‘lovchilarni yagona tariflar bo‘yicha tashish xizmatlarini ko‘rsatish:

a) umumiy foydalanishdagi yo‘lovchi tashish shahar transportida va yo‘lovchi tashish avtomobil transportida (bundan taksi, shu jumladan yo‘nalishli taksi mustasno);

b) shahar atrofidagi yo‘nalishda temir yo‘l transportida;

16) uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo‘jaliklari, yer resurslari va davlat kadastr, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta’mirlash boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi;

17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o‘lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalilanadigan tangalardan, shuningdek, qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlarini;

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday xizmatlar ko‘rsatish shart ekanligi qonun hujjatlarida belgilangan bo‘lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to‘lovlar undiriladi;

21) byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

22) byudjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo‘lsa;

24) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash bo‘linmalari xizmatlarini;

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirdari tizimining texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

26) metsenatlik ko‘magi tarzida beriladigan (ko‘rsatiladigan) tovarlarni (xizmatlarni);

27) hayotni sug‘urta qilish xizmatlarini va boshqa sug‘urta xizmatlarini.

Yuqorida keltirilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma soliq to‘lovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim bo‘lsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq solinadigan aylanmalarни va soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarни amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar aylanmalarning alohida hisobini yuritishi shart.

Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar. Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:

1) bank operatsiyalari, xususan:

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini omonatlarga jalb etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablag‘larini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari bo‘yicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish, shuningdek, bank kartalariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq operatsiyalar;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirig‘iga ko‘ra ularning bank hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalarini maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalari va hokazo) orqali ko‘rsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari ko‘rsatish);

bank kafolatlarini bajarish (bank kafolatini berish va bekor qilish, bunday kafolat shartlarini tasdiqlash va o‘zgartirish, bank kafolati bo‘yicha to‘lov, bunday kafolatga doir hujjatlarni rasmiylashtirish va tekshirish);

majburiyatlarning pul shaklida bajarilishini nazarda tutuvchi uchinchini shaxslar uchun kafillik berish;

akkreditivlarni ochish va ularga xizmat ko‘rsatish;

to‘lov tizimlari, dasturlaridan va uskunalardan foydalangan holda hisob-kitoblarni (to‘lovlarni) amalga oshirish;

2) hisob-kitoblar ishtirokchilarini o‘rtasida axborot va texnologik hamkorlikni, shu jumladan hisob-kitoblar ishtirokchilariga bank kartalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo‘yicha axborotni to‘plash, unga ishlov berish va uni taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar;

3) yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini, kooperativlarning pay fondlaridagi va investitsiya pay jamg‘armalaridagi paylarni, qimmatli qog‘ozlarni hamda hosila moliyaviy vositalarni realizatsiya qilish, bundan soliq solinishi lozim bo‘lgan hosila moliyaviy vositalarning asos aktivini realizatsiya qilish mustasno. Hosila moliyaviy vositanini realizatsiya qilish deganda uning asos aktivini realizatsiya qilish, shuningdek, kontrakt bo‘yicha mukofotlar summalarini, variatsiyaga oid marja summalarini to‘lash, hosila moliyaviy vositalar shartlariga muvofiq asos aktiv to‘lovi bo‘lmagan hosila moliyaviy vosita taraflarining boshqa davriy yoki bir martalik to‘lovlari tushuniladi;

4) realizatsiya qilinishi yuqoridagi 3-bandga binoan soliq solishdan ozod etiladigan hosila moliyaviy vositalar asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha huquqlardan (talablardan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish);

5) forseyting va faktoring operatsiyalari;

6) zayomlarni pul shaklida berishga doir shartnomalardan va (yoki) kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzasidan kreditorning huquqlaridan (talablaridan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish, olish) bo'yicha, shuningdek, boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi asosida dastlabki shartnomada yuzasidan qarz oluvchining har bir yangi kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishga doir operatsiyalar;

7) kreditlarni, zayomlarni pul shaklida va qimmatli qog'ozlar bilan berish, shu jumladan ular bo'yicha foizlar bilan birga berish, shuningdek, REPO operatsiyalari, shu jumladan REPO operatsiyalari bo'yicha qimmatli qog'ozlar berilganligi uchun to'lanishi lozim bo'lgan pul summalar;

8) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishga doir xizmatlarning ushbu xizmatlar bo'yicha foizli daromadlar olishga taalluqli qismi bo'yicha;

9) qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda ularning reestrini yuritish, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo'yicha xizmatlar bundan mustasno;

10) tranzaksiyalarni bir vaqtning o'zida to'lov ishtirokchilari o'rtaida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog'liq to'lov tizimlarining moliya xizmatlari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va qimmatli qog'ozlarga taalluqli qism bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha vakolatli

organ bilan kelishilgan holda, ushbu qoidalarni qo'llash tartibi yuzasidan tushuntirishlar, shu jumladan ayrim aylanmalarni batapsil aniqlashtirish bo'yicha tushuntirishlar berishga haqli.

Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari. Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantemalar;

sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyler, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

qonun hujjaligiga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan mablag'lar;

qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalar;

- bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta to'lovi (sug'urta tovon);

preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda ushbu qoidalarning qo‘llanilish tartibi yuzasidan, ayrim aylanmalarini batafsillashtirgan xolda, tushuntirishlar berishga haqli.

Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish. Quyidagilarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq solishdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlat, hukumat, xalqaro tashkilotlar yo‘nalishlari bo‘yicha xayıriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko‘rsatish uchun olib kiriladigan tovarlar;

4) chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zлari bilan birga yashayotgan oila a’zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar;

5) qonun hujjatlariga muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros obyektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg‘aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi;

6) o‘xhashi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo‘yicha davlat kutubxonalarini va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek, xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to‘lov vositalari bo‘lgan banknotlar (bundan kollektiviyat uchun mo‘ljallanganlari mustasno), shuningdek, qimmatli qog‘ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzları va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzları hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar qarzga doir bitimda bu tovarlar olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi nazarda tutilgan bo‘lsa;

10) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek, dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan xomashyo. Mazkur norma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartiblarining o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq qonunchiligiga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblanishi soliq to‘lovchilarning olib borayotgan xo‘jalik operatsiyalariga bog‘liq ravishda soliqqa tortiladigan bazani aniqlashning

o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Tovarlar sotilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisoblanishi. Respublikamizda qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgandan buyon soliqni hisoblashning ikki turdag'i usuli amal qilgan, ya’ni ishlab chiqarilgan tovarlarni jo‘natish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha hisobga olish usuli yoki hisobvaraqt-faktura usuli hamda ulgurji va chakana savdo, vositachilik xizmati ko‘rsatish sohalarida

hisobdan chiqarish usuli qo‘llanilgan. Bunda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan baza narxlar farqi sifatida, ustama va mukofot haqi summasi sifatida aniqlanib shu summadan soliq hisoblangan.

1992-yildan 1994-yilga qadar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanar edi. 1994-yildan ular byudjetga qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i o‘rniga yalpi daromad solig‘i hamda mol-mulk solig‘ini to‘laydigan bo‘lishdi. Keyingi davrlarda soliq hisoblashning “yalpi foyda” (chegejirish) usuli asta-sekin “hisobga olish-hisobvaraq” usuliga aylanib bordi. Soliq kodeksi kuchga kirgandan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning “yalpi foyda” (chegejirish) usuli faqat vositachilik va “O‘zdonmahsulot” DAK tizimi tarkibiga kiradigan, birlamchi ishlovdan keyingi don, qo‘shimcha mahsulot va chiqindilarni sanoatdan donni qayta ishlashga sotishni amalga oshiradigan korxonalar uchun qo‘llaniladi. Boshqa holatlarda “hisobga olish hisob-faktura” usuli qo‘llaniladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblashning “hisobga olish hisob-faktura” usulining mohiyati shundaki, korxona byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq miqdoridan shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xomashyo, materiallar uchun to‘langan soliq miqdorini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Chegejirishga hisobot davrida hisob-faktura bilan qabul qilingan xomashyo, materiallar, shu jumladan import qilingan tovarlarga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qabul qilinadi.

Quyidagi shartlarni bajargan holda hisobga olish amalga oshiriladi:

- birinchidan, bu hisobot davrida tovar va xizmatlar haqiqatda sotib olingan bo‘lishi kerak;
- ikkinchidan, ular bo‘yicha tovar yetkazuvchidan hisob-faktura to‘dirilgan bo‘lishi;
- uchinchidan, ular soliqqa tortiladigan faoliyatda ishlatilgan bo‘lishi kerak.

Vositachilik xizmatlari ko‘rsatilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisoblanishi. Vositachilik xizmatlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda “yalpi foyda” (chegirish) usuli qo‘llaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, soliq baho farqi, ustama va mukofotlar sifatida olingan daromaddan hisoblanadi. Byudjetga soliq to‘lashda hisoblangan soliq summasi ushbu daromadni olishga sarflanadigan xizmatlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga kamaytiriladi.

Demak, qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini vositachilik korxonalari mukofotlar summasidan hisoblaydilar.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olish. Umum davlat soliqlarini to‘lovchi korxonalarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning amaldagi mexanizmi soliqni ishlab chiqarish jarayonida paydo bo‘lgan yangidan yaratilgan qiymatdan to‘lanishini ko‘zda tutadi. Qo‘shilgan qiymat ikki marotaba soliqqa tortilmaydi.

1998-yil 1-yanvardan Soliq kodeksining joriy etilishi bilan birga hisobvaraqt-fakturalar kiritilgan bo‘lib, u kirimdagи soliq summasini hisobga olish uchun asosiy hujjat hisoblanadi. Ammo, amaliyotda bu tartib o‘zining vazifasini to‘laqonli bajara olmadi, chunki bu davrda byudjetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi – yetkazib beriladigan mahsulotga hisoblangan soliq summasi bilan bevosita ishlab chiqarishga sarflangan material resurslarga hisoblangan soliq summasi o‘rtasidagi farqi sifatida aniqlanar edi. Bu tartibdagi hisoblash mexanizmi 1999-yilga qadar amaliyotda qo‘llanilib kelindi va uning ayrim kamchiliklari mavjud edi. Jumladan:

- ishlab chiqarishga sarflangan paytda xomashyo va materiallarga hisoblangan soliq summasini byudjet bilan hisob-kitobda chegirilishi – korxonalarning oborot mablag‘larini cheklanishiga olib keldi;
- qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobvaraqt faktura asosida hisoblanish mexanizmi ishlamadi, chunki amalda hisobvaraqt fakturada ko‘rsatilgan soliq summasi byudjetga hisobga olib borishda asos bo‘lmadi;
- bunday hisoblash tartibi xalqaro soliq amaliyotidagi qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tamoyillariga zid kelardi.

Ushbu holatlar tahlil qilinib 1999-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmi o'zgartirildi va xalqaro amaliyotga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tamoyillariga moslashtirildi. Quyida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning taqqoslama usuli keltirilgan (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning 1999-yildan joriy etilgan usulining taqqoslama tahlili (raqamlar shartli)

№	Ko'rsatkichlar	1999-yilga qadar		1999-yildan keyin	
		oborot	qo'shil gan qiymat solig'i	oborot	qo'shil gan qiymat solig'i
1.	Hisobot davrida sotib olingan xom- ashyo, materiallar	100	20	100	20
2.	Ishlab chiqarishga ishlatilgan xom- ashyo, materiallar	50	10	50	10
3.	Tovarlar (ish va xizmatlar)ni sotish oboroti, ya'ni soliqqa tortiladigan oborot	200	40	200	40
4.	Byudjetga hisoblangan soliq summasi	X	30 (40- 10)	X	20 (40- 20)

Bu tartibdagagi hisoblash mexanizmi korxonalarining oborot mablag'larini chetlanishini keskin kamaytiradi.

1999-yildan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning yangi tartibini joriy etishi uni hisoblashning soddalashtirilgan mexanizmini qo'llanilishiga olib keldi.

Ya’ni hisobvaraq faktura usulining ishlab ketishini ta‘minladi va bunda material resurslarining ishlab chiqarishga sarflanishidan qat’i nazar hisobot davrida sotib olingan material resurslarga to‘langan soliq summasi hisobvaraq faktura asosida byudjet bilan hisob-kitobga olib boriladigan bo‘ldi.

**Soliqni hisoblab chiqarish,
to‘lash va soliq hisobotini
taqdim etish tartibi**

Soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo‘lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko‘paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o‘zgartirishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko‘ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiyligi summasi soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar soliq bazasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo‘yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo‘yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiyligi summasi bunday soliq bazalarining har biri bo‘yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo‘shish orqali hisoblab chiqariladi.

Soliq kodeksining 266-moddasiga muvofiq, byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlashda, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasini hisobga olish orqali hisoblab chiqarilgan soliqning umumiyligi summasini kamaytirishga, quyidagi shartlarni bir vaqtida bajargan taqdirda, haqli bo‘ladi:

- 1) soliq to‘lovchining tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmat ko‘rsatish) bilan bog‘liq faoliyatini amalga oshirish chog‘ida tovarlardan (xizmatlardan), foydalanilganda

realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasiga soliq solinishi, shu jumladan nol stavka bo'yicha soliq solinishi lozim bo'lganda;

2) olingan tovarlarga (xizmatlarga) soliq to'lovchi tomonidan hisobvaraq-faktura yoki yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan soliq summasi alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat olinganda hamda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilganda;

3) tovarlar olib kirilgan (import qilingan) taqdirda soliq byudjetga to'langanda;

4) nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirma mavjud bo'lsa.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizatsiya qilish aylanmasi maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) soliq tovarlar eksportidan soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi.

Soliq to'lovchi tomonidan asosiy vositalar (shu jumladan o'rnatiladigan asbob-uskunalar), nomoddiy aktivlar va ko'chmas mulk obyektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar sotib olinganda, shuningdek, kelgusida o'z asosiy vositalari sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan aktivlarni yaratish uchun tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda sotuvchi tomonidan soliq to'lovchiga taqdim etilgan soliq summasini hisobga olish to'liq hajmda amalga oshiriladi. Soliq to'lovchi O'zbekiston Respublikasi hududiga bunday tovarlarni olib kirish chog'ida ushbu soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasini hisobga olish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan taqdirda, oluvchi mol-mulkni ustav fondiga (ustav kapitaliga) berish chog'ida ishtirokchi tomonidan to'langan soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va ko'chmas mol-mulk obyektlari,

shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha ishtirokchi ularni berish chog'ida to'lagan soliq berilgan aktivlarni oluvchi soliq to'lovchida hisobga olinadi.

Soliq kodeksining 267-moddasiga ko'ra, tovarlarni (xizmatlarni) olish (olib kirish) chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi quyidagi hollarda hisobga olinmaydi:

1) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari soliq solishdan ozod etilgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun mo'ljallangan asosiy vositalar, ko'chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar sotib olinganda (olib kirilganda);

2) tovarlar (xizmatlar) soliq solishdan ozod etilgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun mo'ljallangan asosiy vositalarni, ko'chmas mulk obyektlarini qurish, modernizatsiyalash, rekonstruktsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va ta'mirlash uchun sotib olinganda;

3) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun sotib olinganda;

4) tovarlar (xizmatlar) soliq to'lovchi bo'lmasan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagи tadbirkorlar tomonidan sotib olinganda;

5) vakillik xarajatlari;

6) tovarlar (xizmatlar) bepul olinganda, bundan oluvchi ular bo'yicha soliq to'lagan hollar mustasno;

7) soliq to'lovchining shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishga mo'ljallangan, foya solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlar chegirib tashlanmaydigan tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda.

Soliq to'lovchi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish chog'ida to'lagan soliq summalarini quyidagi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish yoki olib kirish chog'ida ham, agar bu tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish amalga oshirilayotgan faoliyat turiga bog'liq bo'lmasa, hisobga olinmaydi:

1) yengil avtomobilarni, motosikllarni, vertolyotlarni, motorli qayiqlarni, samolyotlarni, shuningdek, motorli vositalarning boshqa turlarini va ular uchun yoqilg'ini;

2) alkogol va tamaki mahsulotlarini.

Soliq kodeksining 272-moddasiga muvofiq, byudjetga to'lanishi

lozim bo‘lgan soliq summasi har bir soliq davri yakunlari bo‘yicha, Soliq kodeksining 265-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan hamda hisobga olinishi va tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan summalar hisobga olingen holda hisoblab chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog‘idagi soliq summasi bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjaligiga muvofiq byudjetga to‘lanadi.

Agar hisoblab chiqarilgan, byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi salbiy bo‘lsa, soliq to‘lovchi mazkur summaning o‘rnini Soliq kodeksida belgilangan tartibda qoplash huquqiga ega bo‘ladi.

Soliq kodeksining 273-moddasiga binoan, soliq to‘lovchilar, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq hisobotini o‘zлari soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga o‘tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirilmagan muddatda taqdim etishlari shart (*4-ilova*).

Soliq kodeksining 272-moddasiga muvofiq, hisoblab chiqarilgan soliqni to‘lash agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq hisobida turilgan joy bo‘yicha har bir soliq davrining yakunlariga ko‘ra, soliq hisoboti taqdim etishlari muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog‘ida soliq bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjaligida belgilangan tartibda va muddatlarda byudjetga to‘lanadi.

Soliq agentlari soliqni o‘zi soliq hisobida turgan joy bo‘yicha to‘laydi. Soliq to‘lovchilar bo‘lmagan soliq agentlari o‘zi soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga tegishli soliq hisobotini Soliq kodeksining 255- va 256-moddalariga muvofiq to‘lash amalga oshirilgan o‘tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

Soliq hisobotiga soliq to‘lovchining xaridlar reestrida va sotuvtolar reestrida ko‘rsatilgan ma’lumotlar kiritiladi.

Soliq agentlari, shuningdek, vositachilik (topshiriq) va transport ekspeditsiyasi shartnomalari asosida boshqa shaxsning manfaatlarni ko‘zlab tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar olingen va taqdim etilgan hisobvaraqt-fakturalar daftarlardagi ma’lumotlarni ham

belgilangan shakl bo'yicha taqdim etishi shart. Agar bunday shaxslar soliq to'lovchilar bo'limasa, ular soliq hisobotiga faqat soliq agenti sifatida operatsiyalarni yoki vositachilik (topshiriq) shartnomasi asosida komitentning (ishonch bildiruvchining), transport ekspeditsiyasi shartnomasi asosida yukni oluvchining (yukni jo'natuvchining) manfaatlарини ko'zlab vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida olingen hamda taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish daftarlarida aks ettiriladigan ma'lumotlarni kiritadi.

Xaridlar va sotuqlar reestrlarini, shuningdek, kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish daftarlarini yuritish shakkllari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Soliqning o'rnini qoplash. Soliq kodeksining 274-moddasiga muvofiq, o'rni qoplanishi lozim bo'lgan soliq summasi, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobidan hisobga olinadi.

Soliq to'lovchi o'rni qoplanishi lozim bo'lgan soliq summasini soliq organlariga soliq summasini qaytarish to'g'risida berilgan arizaga asosan qaytarish huquqiga ega.

Agar kameral soliq tekshirushi natijalariga ko'ra soliq organi qaytarish uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasining o'rnini to'liq yoki qisman qoplash to'g'risida qaror qabul qilsa, mazkur soliq summasi soliq to'lovchiga soliq summasini qaytarish to'g'risida ariza berilgan sanadan e'tiboran oltmis kundan kechiktirmay qaytariladi.

Soliqning jami summasi o'rnini tezlashtirilgan tarzda qoplash tartibi bu haqda soliqni qaytarish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan taqdirda, quyidagi toifadagi soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llaniladi:

1) O'zbekiston Respublikasining yirik soliq to'lovchilar toifasiga belgilangan tartibda kiritilgan yuridik shaxslariga;

2) soliqni qoplashga doir ariza bilan birga amaldagi bank kafolatini taqdim etgan yoki soliq organlari bilan garov shartnomasini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan soliq to'lovchilarga;

3) eksport va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslarga — agar ilgari bu shaxslarga soliq summasi

qoplangan va bunda qonunbuzarliklar aniqlanmagan bo'lsa, nol darajali soliq stavkasi qo'llanilishi natijasida hosil bo'lgan soliqning oshib ketgan summalarini qismida;

4) chet el diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalariga;

5) mahsulot taqsimotiga oid bitim ishtirokchilariga, agar bunday bitimda nol darajali stavka qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa;

6) soliq monitoringi ishtirokchilariga.

Soliqning o'rnini tezlashtirilgan tartibda qoplashda soliq to'lovchi tomonidan qaytarish uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasining o'rni unga yetti kun ichida to'liq hajmda qoplanadi. Bunda o'rni qoplanishi uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasi asoslantirilganligining kameral soliq tekshiruvi umumiy tartibda amalga oshiriladi. Agar kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra arizada ko'rsatilgan soliq summasi yoki uning bir qismi asossiz bo'lib chiqsa, soliq to'lovchi soliqning o'rni o'ziga asossiz ravishda qoplangan summasini qoplash sanasidan to uni byudjetga to'lash sanasigacha penya hisoblangan holda byudjetga to'lashi shart.

Soliq summalarining o'rmini qoplash tartibi va shartlari, kameral soliq tekshiruvini o'tkazish, shuningdek, chet davlat fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida olingan tovarlarni olib chiqishda ularga soliq summasini qaytarish (TAX FREE) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar qiymati – 6500 mln. so'm;
- hisobot davrida yuklab jo'natilgan tovarlar qiymati – 13200 mln. so'm.

Hisobot davri uchun davlat byudjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini aniqlang?

2-masala. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan qayta ishslash korxonasi hisobot davrida quyidagi ko‘rsatkichlarga ega:

- mahsulotni sotishdan tushgan tushum – 14000 ming so‘m, shu jumladan, qaytarib berilishi lozim bo‘lgan taraning qiymati – 2500 ming so‘m;

• beg‘araz yordam sifatida tannarxida 1200 ming so‘mlik mahsulot berilgan;

- olingan jarimalar summasi – 250 ming so‘m;

- olingan bank foizlari – 100 ming so‘m;

• korxonaning nomoddiy aktivlari sotilgan – 3000 ming so‘m (boshlanguch narxi – 5000 ming so‘m, hisoblangan amortizatsiya summasi – 3200 ming so‘m);

• nolikvid xomashyo zaxiralarini sotishdan tushgan tushum – 870 ming so‘m, ularning tannarxi – 750 ming so‘m;

Olingan hisobvaraq-faktura bo‘yicha to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi:

- xomashyo uchun – 3200 ming so‘m;

- ishlab chiqarish inshootlarining ijarasida – 1500 ming so‘m;

- ko‘rsatilgan uyali aloqa xizmatida – 700 ming so‘m.

Hisobot davri uchun davlat byudjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini aniqlang?

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Qo‘shilgan qiymat qanday tarkib topadi?
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor qaysi davlatda joriy etilgan?
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qanday shaxslar to‘laydi?
5. Qo‘shilgan qiymat solig‘i obyekti nima?
6. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
7. Qo‘shilgan qiymat solig‘i solish bazasi qanday aniqlanadi?

8. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
9. Nollik stavka qaysi tovarlarga nisbatan qo'llaniladi?
10. Qanday tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi?
11. Nollik stavka bilan imtiyoz o'rtasida qanday farq mavjud?
12. Hisobvaraqt-faktura qanday to'ldiriladi va unda qo'shilgan qiymat solig'i qaysi bandda ko'rsatiladi?
13. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisob-kitobni taqdim etish tartibi qanday?
14. Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda qo'shilgan qiymat solig'ini solish tartibi qanday?

3.2. Aksiz solig'i


Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet da- romadlarida tutgan o'rni

O'zbekistonda aksiz solig'i 1992-yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvga solinadigan soliq o'rniqa joriy qilingan.

Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egrisi soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi.

Ma'lumki, aksiz solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi, jumladan, davlat byudjetining soliqli daromadlari tarkibida uning salmog'i 2004-yilda 28.7 foizni, 2008-yilda 16.5 foizni, 2012-yilda 15.1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yil ko'rsatkichlarida esa 13.4 foizni tashkil etmoqda (3.2.1-diagramma).



3.2.1-diagramma. Aksiz solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi¹²

Aksiz solig'ini davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayish tendensiyaga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabrdagi 390-son "Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarini o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "O'zDEUAvto" YoAJi (hozirgi "Jeneral Motors O'zbekiston" YoAJi) ishlab chiqarayotgan avtomobilari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aksiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste'mol tovarlarining assortimentini ko'paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarining o'z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo'ldi. Bundan tashqari respublikamizda ishlab chiqarilayotgan ayrim tovarlarning (guruch, mebel, atir sovun va boshqa tovarlar) aksiz osti tovarlari ro'yxatidan chiqarib tashlandi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtida aksiz solig'ining ulushi davlat byudjeti daromadlari tarkibida kam salmoqni egallamoqda.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003–2018-yillardagi "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlari asosida tayyorlangan.

Aksiz solig‘i to‘liq respublika byudjetiga kelib tushadi va soliq yuki iste’molchilar zimmasida bo‘ladi.

Aksiz solig‘i to‘lovchilar. Soliq obyekti va bazasi

Soliq kodeksining 283-moddasiga muvofiq, aksiz solig‘ini to‘lovchilar deb quyidagi shaxslar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni (aksiz to‘lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

2) tabiy gazni iste’molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

3) benzin, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek, gazni avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu me’yorni qo‘llash maqsadida yakuniy iste’molchilar deganda o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoni shaxslar tushuniladi;

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo‘lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

5) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur shaxslar soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar ham soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi:

1) telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to‘lanadigan xizmatlarni) ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

Soliqqa tortish maqsadida quyidagilar yuridik shaxslardir:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq

tashkil etilgan yuridik shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);

2) chet davlatlarning qonun hujjaligiga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar);

3) xalqaro tashkilotlar¹³.

Soliq kodeksining 284-moddasiga ko‘ra, aksiz solig‘i solinadigan obyektlar quyidagilardan iborat:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish;

tovarga bo‘lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta‘minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobidan berish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomasi) bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

a) ishtirokchiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqqangan aksiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxsni tugatishda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishslash

¹³ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. <https://lex.uz>, 2020. 32-modda

uchun topshirish, shuningdek, qaytarish sharti bilan berilgan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan, shuningdek, aksiz to‘lanadigan shunday xomashyo va materiallarning mahsuli bo‘lgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to‘lanadigan tovarlardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

8) aksiz to‘lanadigan xizmatlar ko‘rsatish;

9) O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning buzilishi, yo‘qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug‘urta orqali to‘langan yoki uning o‘rnini qoplangan taqdirda, aksiz solig‘i sug‘urta orqali to‘lash (o‘rnini qoplash) ulushida to‘lanadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish, bundan aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta’minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami

maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;

agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzları va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzları hisobidan olib kirish;

5) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

Soliq kodeksining 285-moddasiga muvofiq, soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan soliq stavkalari mutlaq (qat'iy) summada belgilangan bo'lsa, soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bo'lib realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati hisoblanadi.

Jismoni shaxslar mehnatiga haq to'lash, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga bepul yoki boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi soliq stavkalari mutlaq (qat'iy) summada belgilangan bo'lsa, aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqib, soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo'lsa, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati asosida aniqlanadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir

ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi, agar Soliq kodeksining 285-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to‘lanadigan tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish chog‘ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg‘isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq to‘lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda;

3) bitim shartlari o‘zgarganda, shu jumladan jo‘natilgan tovarlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning narxi va (yoki) soni (hajmi) o‘zgarganda;

4) tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi tomonidan chegirmalar berilganda. Mazkur tuzatish kiritish, agar siyovlar berish shartlari shartnoma shartlarida yoki soliq to‘lovchining narx (tarif) siyosatida nazarda tutilgan bo‘lsa, ilgari amalga oshirilgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo‘yicha soliq bazasini kamaytiradi. Bunday shartlar tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko‘rsatish) shartnomasining muayyan shartlarini xaridor tomonidan bajarishni, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) muayyan hajmini olishni va muddatidan oldin haq to‘lashni nazarda tutishi mumkin.

Soliq bazasiga uni kamaytirish yoki ko‘paytirish tarafga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1) eksport qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarni yetkazib berishga doir kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi);

2) tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo‘yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o‘tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo‘natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo‘yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar;

4) chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma.

Tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar eksport rejimiga chiqarilgan kundan e’tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, tovarlarni eksportga realizatsiya qilish soliq solishning obyekti deb e’tirof etiladi.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo‘yicha realizatsiya qilingan taqdirda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan soliq to‘lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik

shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko‘chirma nusxasi) qo‘sishimcha ravishda taqdim etiladi.

Aksiz solig‘i stavkalari, xorijiy davlatlar tajribasi

Soliq kodeksining 289-moddasiga muvofiq, aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) ro‘yxati va ularga doir soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan tasdiqlanadi. Masalan, 2020-yil uchun aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) ro‘yxati va ularga doir soliq stavkalari 2019-yil 9-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

Soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o‘lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat’iy belgilangan), shuningdek, advalor va qat’iy belgilangan soliq stavkalarini o‘z ichiga olgan aralash stavkada belgilanadi.

Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

2020-yilda aksizosti tovarlarga belgilangan soliq stavkalari quyidagilardan iborat:

3.2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan (xizmat ko‘rsatiladigan), aksiz solig‘i solinadigan tovarlarga (xizmatlarga) aksiz solig‘i stavkalari¹⁴

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkasi		
		2020-yil 1-yanvardan	2020-yil 1-apreldan	2020-yil 1-oktyabrdan
1.	Oziq-ovqat xomashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va	10 800 so‘m	11 700 so‘m	12 500 so‘m

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-son Qonuniga 8-ILOVA

	efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi (1 dal uchun)			
2.	Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun):			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo‘shilмаган holda)	7 700 so‘m	8 300 so‘m	
	boshqa vinolar	14 500 so‘m	15 700 so‘m	16 800 so‘m
3.	Konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)	102 000 so‘m	109 100 so‘m	116 400 so‘m
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko‘p bo‘lgan konyakka	168 100 so‘m	179 700 so‘m	192 300 so‘m
4.	Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)	98 000 so‘m	107 800 so‘m	116 400 so‘m
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko‘p bo‘lgan aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga	162 700 so‘m	179 000 so‘m	192 300 so‘m
5.	Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)	10 600 so‘m	11 700 so‘m	
6.	Filtrli, filtrsiz sigaretalař, papiroslar	141 500 so‘m/1000 dona + 9,0 foiz*	152 800 so‘m/1000 dona + 9,0 foiz*	163 500 so‘m/1000 dona + 9,0 foiz*
7.	Zargarlik buyumlari		25%	
8.	Mobil aloqa xizmatlari		20%	
9.	Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari		11%	

10.	Neft mahsulotlari:		
	Ai-80 benzini	200 000 so‘m/ tonna	
	Ai-91, Ai-92, Ai-93, Ai-95 benzini	250 000 so‘m/ tonna	
	dizel yoqilg‘isi	200 000 so‘m/ tonna	
	EKO dizel yoqilg‘isi	180 000 so‘m/ tonna	
	aviakerosin	180 000 so‘m/ tonna	
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	250 000 so‘m/ tonna	
11.	Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport	20%	
12.	Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz (“Hududgazta’minot” AJ orqali aholiga sotiladigan hajmlar bundan mustasno), shu jumladan, eksport	30%	
13.	Polietilen granulalar	30%	
14.	Yakuniy iste’molchiga sotiluvchi:**		
	benzin	1 litr uchun 285 so‘m/ 1 tonna uchun 378 480 so‘m	1 litr uchun 350 so‘m/ 1 tonna uchun 465 530 so‘m
	dizel yoqilg‘isi	1 litr uchun 285 so‘m/ 1 tonna uchun 346 275 so‘m	1 litr uchun 350 so‘m/ 1 tonna uchun 425 918 so‘m
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun	1 litr uchun 350 so‘m/ 1

		285 so‘m/ 1 tonna uchun 540 645 so‘m	tonna uchun 664 993 so‘m
	siqilgan gaz	1 kub.metr uchun 435 so‘m	1 kub.metr uchun 500 so‘m

Izohlar:

* Aksiz solig‘ining qat’iy belgilangan stavkasi natura ifodasidagi aksiz to‘lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo‘llaniladi, aksiz solig‘ining advalor stavkasi ishlab chiqaruvchining aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan qo‘llaniladi.

** Benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gazni avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali sotishda aksiz solig‘i 1 litrdan kelib chiqib, boshqa hollarda esa 1 tonnadan kelib chiqib hisoblab chiqariladi.

Ayrim rivojlangan davlatlarda, masalan, Fransiyada aksizlar tovarlarning natural birligiga nisbatan qat’iy stavkalarda belgilab qo‘yilgan¹⁵.

AQShda aksiz soliqlari Federal ahamiyatga ega bo‘lgan soliq hisoblanadi. Lekin ularning davlat byudjeti daromadlarining hajmidagi salmog‘i nisbatan kichik. Aksiz solig‘i tamaki va alkogolli mahsulotlarga, transport xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Aksiz solig‘ining stavkasi 10 foizni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada aksiz soliqlari egri soliqlarning tarkibida salmog‘iga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘idan keyingi o‘rinni egallaydi. Aksiz solig‘i yoqilg‘i, alkogol va tamaki mahsulotlariga, transport vositalari va xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Uning stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha oraliqda tebranadi.

¹⁵ T.Malikov. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. 15-bet

Germaniyada aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarning asosiy qismi Federal byudjetga o‘tkaziladi, faqat pivoga nisbatan joriy qilingan aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar federal byudjetga kelib tushmaydi. Aksiz solig‘ining stavkalari tovarlarga nisbatan foizlarda va qat’iy summada belgilangan. Masalan, sug‘urta bitimlari bo‘yicha aksiz solig‘ining stavkasi sug‘urta polisi summasining 12 foiz miqdorida belgilangan. Shampan vinosiga nisbatan belgilangan soliq stavkasi 0,75 litr uchun 2 yevroni tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasida 2001-yilning 1-yanvaridan boshlab, Soliq kodeksining 2-qismini kuchga kiritilishi munosabati bilan aksizlarni qo‘llash doirasi sezilarli darajada kengaytirildi, ya’ni an’anaviy aksiz solig‘i to‘lovchilar qatoriga ulgurji savdo tashkilotlari ham kiritildi.

Rossiya Federatsiyasida aksiz solig‘ining davlat byudjeti daromadlarining manbayi sifatidagi roli juda muhim bo‘lib, u aksiz soliqlari bo‘yicha tushum summalarini Federal byudjet daromadlari tarkibidagi salmog‘ini yuqori ekanligida namoyon bo‘ladi. Masalan, 2000–2004-yillarda aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarning Rossiya Federal byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 15.0 foizdan 3.6 foiz atrofida tebrangan¹⁶.

Aksiz solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi

Amaldagi Soliq kodeksining 290-moddasiga ko‘ra, soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va soliqning belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Import qilingan, aksiz to‘lanadigan, o‘ziga nisbatan aralash — advalor va qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan tovarlar bo‘yicha soliq bazasi va advalor stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda soliq summasi qat’iy belgilangan stavka qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilgan summadan kam bo‘lishi mumkin emas.

Aksiz solig‘ining soliq davri bo‘lib, bir oy hisoblanadi.

Soliq kodeksining 292-moddasiga muvofiq, soliq hisoboti, agar 292-moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bo‘yicha hisobda turilgan joydagи soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchи kunidan kechiktirmay taqdim etiladi (*S-ilova*).

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilingan taqdirda, soliq hisoboti

¹⁶ Налоги и налогообложение. Учебник. /Под ред. Романовского М.В., Врублевской О.В. –СПб.: «ПИТЕР», 2006. С.214

avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchini kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq kodeksining 293-moddasiga ko‘ra, soliqni to‘lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay, ya’ni har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchini kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha soliqni to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aksiz markalar bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan olib kiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq aksiz markalar olinguniga qadar to‘lanadi.

Dam olish (ishlanmaydigan) yoki bayram kuniga to‘g‘ri keladigan aksiz solig‘ini to‘lash muddatlari, tegishincha, hisob-kitobni taqdim etish muddatlari ham dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi.

Ortiqcha kiritilgan aksiz solig‘i summalar bo‘lg‘usi to‘lovlar hisobiga kiritiladi yoki uning yozma arizasi olingan kundan boshlab Davlat soliq xizmati organi tomonidan 15 kun ichida to‘lovchiga qaytariladi (agar byudjetga boshqa soliq turlari bo‘yicha qarz mavjud bo‘lmasa).

Aksiz markalar

Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o‘rnatish, shuningdek, aksiz solig‘i to‘liq undirilishi, ko‘rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdaggi “O‘zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi 285-son qaroriga muvofiq 1996-yil 1-oktyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivotan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi aksiz markalar bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmsandan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish taqiqlandi.

Aksiz tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar respublika byudjetiga nominal qiymati bo‘yicha buyurtma berilayotgan aksiz

markalari miqdorining butun summasini to‘lagach, davlat soliq inspeksiyalariga turlari bo‘yicha aksiz markalarining zarur miqdorini xarid qilishga buyurtmanoma topshiradilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari soliq inspeksiyalarining aksiz markalariga doir kelib tushgan buyurtmanomalarini hudud bo‘yicha umumlashtiradilar va qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat soliq qo‘mitasiga taqdim etadilar, bunda ishlab chiqaruvchi korxonalar ular buyurtigan miqdorda aksiz markalarining nominal qiymatini to‘plashganini tasdiqlaydilar. Kelayotgan yilga buyurtmanoma umuman yil bo‘yicha, choraklarga taqsimlagan holda beriladi.

Aksiz markalarini bosish uchun buyurtmanomani “Davlat belgisi” Davlat ishlab-chiqarish birlashmasi (DICHB)ga joylashtirishni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi amalga oshiradi.

Importchilar, shu jumladan aksiz tovarlarini O‘zbekiston Respublikasiga olib keladigan jismoniy shaxslar buyurtmanomani Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy organlariga topshiradilar. Bu organlar taqdim etilgan buyurtmanomalar asosida, yuqorida keltirilgan tartibga o‘xshab, aksiz tovarlari uchun aksiz markalariga yig‘ma buyurtmanoma tuzadilar va belgilangan tartibda Davlat bojxona qo‘mitasiga taqdim etadilar.

Davlat soliq inspeksiyalari va Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy organlari aksiz markalarini sotishni belgilangan shaklga binoan ana shu markalarni xarid qilishga doir buyurtmanoma – hisob-kitobga muvofiq “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankining mintaqaviy bo‘linmalari orqali amalga oshiradilar.

“Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankining mintaqaviy bo‘linmalari aksiz markalarini:

- alkogolli ichimliklarning mahalliy ishlab chiqaruvchilariga – aksiz markalarining nominal qiymatining 50 foizi to‘langanidan keyin;
- tamaki mahsulotlarining mahalliy ishlab chiqaruvchilariga – aksiz markalarining nominal qiymati to‘liq to‘langanidan keyin;

– tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar importchilariga – nominal qiymati bo‘yicha aksiz markalari to‘liq to‘langanidan va aksiz solig‘i to‘liq hajmda to‘laganidan keyin beradilar.

Ishlab chiqaruvchilar va importchilar nominal qiymati bo‘yicha xarid qiladigan aksiz markalari uchun pul mablag‘lari respublika byudjetiga kiritiladi va aksiz solig‘ini to‘lash chog‘ida aksiz markalarining qiymati hisobiga olinmaydi.

Aksiz markalarining nominal qiymatini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “Davlat belgisi” DICChB hisob-kitoblari bo‘yicha tasdiqlaydi.

“Davlat belgisi” DICChBning aksiz markalarini ishlab chiqarishga doir xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublika byudjeti mablag‘lari hisobiga ularning nominal qiymati doirasida qoplaydi.

Quyidagi aksiz tovarlarni markalash majburiy emas:

- Respublikadan tashqariga eksport qilinadigan;
- respublika hududiga bojsiz savdo do‘konlari uchun olib kelinadigan;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ruxsati bo‘lganda ko‘rgazmalar o‘tkazish uchun olib kelinadigan;
- O‘zbekiston Respublikasi hududiga xalqaro tranzit bo‘yicha olib kelinadigan va olib chiqish uchun mo‘ljallangan;
- jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga O‘zbekiston Respublikasining qonunida belgilangan aksizsiz olib kirish me’yorlari doirasida keltirilayotgan.

Respublika hududida ishlab chiqariladigan va import qilinadigan pivo O‘zbekiston Respublikasining aksiz markalari bilan tamg‘alanmaydi.

Respublikaga ko‘rgazmalar o‘tkazish uchun olib kelingan aksiz tovarlari, ular ko‘rgazmalar yakunlanganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi hududida sotilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi aksiz markalari bilan majburiy tarzda markalanishi kerak va ular bo‘yicha umumiy belgilangan tartibda aksiz solig‘i to‘lanadi.

Aksiz markalari ishlab chiqariladigan va import qilinadigan aksiz tovarlarining turlariga bog‘liq ravishda harfiy va raqamli belgilar bilan markalanadi hamda quyidagi turlarga bo‘linadi:

- IM – mahsulot O‘zbekiston Republikasi hududiga import bo‘yicha olib kelingan;
- O‘Z – mahsulot O‘zbekiston Republikasi hududida ishlab chiqarilgan;
- 98 – dastlabki ikki belgi – aksiz markasi bosib chiqarilgan yil;
- 01 yoki 001 – keyingi ikki yoki uchta belgi – ishlab chiqaruvchi korxonalarga (importchilarga) tegishlicha tamaki mahsuloti yoki alkogolli ichimlik bo‘yicha beriladigan kod raqamlari;
- 4 raqam belgisi aksiz markalarida tamaki mahsulotini bildiradi;
- 5 raqam belgisi aksiz markalarida alkogolli mahsulotni bildiradi;
- 98 bilan tugaydigan oxirgi raqamlar O‘zbekiston Respublikasi hududiga aksiz tovarlari mayda turkumlar bilan olib kelinganligini anglatadi;
- 99 bilan tugaydigan oxirgi raqamlar musodara qilingan aksiz tovarlarini anglatadi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Quyidagi ma’lumotlarga asosan aksiz solig‘ini hisoblang (mln. so‘m):

1. Korxonaning bir birlik mahsulot bahosi – 2200;
2. Mahsulot uchun belgilangan aksiz solig‘i stavkasi – 25 foiz.

2-masala. Quyidagi ma’lumotlarga asosan aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblang (mln. so‘m):

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar qiymati – 3800;
2. Korxonaning mahsulot bahosi (egri soliqlarsiz) – 7000;
3. Mahsulot uchun belgilangan aksiz solig‘i stavkasi – 11 foiz.

3-masala. Korxona aksiz tovari bo‘lgan konyak ichimligini ishlab chiqarmoqda. 1 butilka (0.5 litr) konyakning egri soliqlarsiz narxi – 42000 so‘mni tashkil etadi. Konyakning quvvati – 42 foiz.

Konyak ichimligining egri soliqlarni o‘z ichiga olgan narxi va byudjetga to‘lanadigan aksiz solig‘ini aniqlang.

4-masala. QQS to‘lovchisi bo‘lgan korxona qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan aksiz tovarini ishlab chiqarmoqda. Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materialarning qiymati 16500 ming so‘mni tashkil etadi. Mazkur tovarni tayyorlash bo‘yicha xizmatlar qiymati egri soliqlarsiz 6500 ming so‘m. Ishlab chiqarilayotgan tovarning aksiz solig‘i stavkasi 25 foizni tashkil etadi.

Korxonaning byudjetga to‘laydigan QQS va aksiz solig‘i summalarini aniqlang.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. O‘zbekistonda aksiz solig‘i qachon joriy etilgan?
2. Aksiz solig‘i to‘lovchilari qanday guruhlanadi?
3. Aksiz tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig‘i obyekti nimalardan iborat?
5. Aksiz solig‘ini solish bazasi qanday aniqlanadi?
6. Aksiz solig‘i qanday hollarda solinmaydi?
7. Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz tovarlari ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?
8. Aksiz solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?
9. Aksiz solig‘ining hisob-kitobini taqdim etish va soliqni to‘lash muddatlari qanday?
10. Aksiz markalari qachon va nima maqsadda joriy etilgan?
11. Qanday holatda aksizga tortiladigan tovarlar markalanmaydi?
12. Aksiz markalarini xarid qilishga doir buyurtmanoma qaysi bank orqali amalga oshiriladi?
13. O‘zbekistonda ko‘rsatilayotgan qanday xizmatlar aksiz solig‘iga tortiladi?

IV. MOL-MULK SOLIG'I VA RESURS TO'LOVLARI

4.1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig'inining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati

mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonuniga asosan 1992-yildan boshlab joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to'lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.


Hozirgi vaqtida ushbu soliqning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar summasi to'liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad birinchidan, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki korxonalarning ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to‘lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalaridan qutilishiga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig‘i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtida ushbu soliqdan tushumlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining soliqli daromadlarida 2 foiz atrofida tebranmoqda (4.1.1- diagramma).



4.1.1-diagramma. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i dinamikasi¹⁷

Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra davlat byudjetining jami soliqli daromadlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning ulushi 2019-yilda 2004-yilga nisbatan 1,2 foizli punktga kamayganligini ko‘rish mumkin. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003–2018-yillardagi “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida tayyorlangan.

soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i o‘rganilayotgan davrlarda nobarqaror bo‘lgan. Eng yuqori ko‘rsatkich 2006-yilda 3.3 foiz miqdorida qayd etilgan. Eng past ko‘rsatkich esa 2019-yilda 1.8 foiz miqdorida bo‘lgan.

Mol-mulk solig‘i to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasini aniqlash tartibi

Amaldagi Soliq kodeksining 410-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq

to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solish obyekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar.

Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlashning imkonи bo‘lmasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi va (yoki) undan foydalanuvchi shaxs soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko‘chmas mulkni moliyaviy ijara (lizing) olgan bo‘lsa, u ham soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Soliq kodeksining 411-moddasiga ko‘ra, ko‘chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgach.

Quyidagi ko'chmas mulk obyektlari soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan obyektlar;

2) turar joy-kommunal xo'jaligining va belgilangan maqsadi bo'yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviylar ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari. Turar joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviylar ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari obyektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya tozalash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish obyektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), kanalizatsiya (tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar va issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek, turar joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga texnik jihatdan xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash uchun mo'ljallangan binolar kiradi;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;

4) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

5) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar;

6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar jumlasiga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki yong'in xavfsizligi organizining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

7) yer uchastkalari.

Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq, quyidagilar soliq bazasidir:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar hamda temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar bo‘yicha — o‘rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko‘chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Bunda to‘liq amortizatsiya qilingan bino bo‘yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymati soliq bazasidir;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar bo‘yicha — tugallanmagan qurilishning o‘rtacha yillik qiymati;

3) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko‘rsatilgan turar joy ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha — mazkur obyektlarning o‘rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo‘yicha).

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko‘chmas mulk obyektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o‘rtacha yillik qiyamatidir.

Soliq kodeksining 413-moddasiga muvofiq, soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘sishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\begin{array}{rcl} \text{O‘rtacha} & 31 & + & 28 (29) & + \dots + & 30 & + & 31 \\ \text{yillik} & = \text{yanvar} & + & \text{fevral} & + \dots + & \text{noyabr} & + & \text{dekabr} \\ (\text{qoldiq}) & \hline & & & & & & \end{array}$$

12

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha soliq bazasi mazkur obyektlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliqni to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritishning imkonini bo‘lmasa, soliq bazasi soliq to‘lanishi nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumming jami sof tushum hajmidagi ulushiga qarab aniqlanadi.

Mol-mulk solig‘i stavkalari, soliqdan imtiyozlar Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkalari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida belgilanadi. 2020-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilangan (4.1.1-jadval):

4.1.1-jadval

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkalari¹⁸

T/r	To‘lovchilar	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Yuridik shaxslar	2

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan ta’sir choralar qo‘llanilishi mumkin hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha taqdim etilgan soliq imtiyozlari ularga tatbiq etilmaydi.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 415-moddasidan olindi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,2 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

Soliq kodeksining 414-moddasiga muvofiq, soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) madaniyat va san'at, ta'lif, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot obyektlarining;

2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek, ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning.

Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MWh va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga.

Soliq hisob-kitobini taqdim etish va hisoblangan soliq summasini byudjetga to'lash muddatlari

bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq kodeksining 416-moddasiga muvofiq, kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar soliqni belgilangan tartibda aniqlangan soliq

Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan esa soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevraliga qadar bo'lgan muddatda taqdim etiladi (*6-ilova*).

Agar ko'chmas mulk, temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlardan tashqari, soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, soliq hisoboti ko'chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar (bundan O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatları soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Belgilangan tartibda hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlarni quyidagicha to'lanadi:

- aylanmadan soliq to'lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining to'rtadan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay;

- aylanmadan soliq to'lovchilar hisoblanmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgargan

taqdirda soliq to‘lovchi soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma‘lumotnomha taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo‘nak to‘lovlariga soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi, bo‘nak to‘lovlari hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o‘tkaziladi.

Soliq davrida soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari summasi soliq hisobotida ko‘rsatilgan byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasisiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo‘nak to‘lovlarini soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan soliq har yili bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to‘lanadi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Korxona mol-mulkining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati 8500 mln. so‘mni tashkil etadi, bundan tashqari korxonada quyidagilar ham mavjud:

- normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari qiymati – 2000 mln. so‘m;
- konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati – 2035 mln. so‘m.

Korxonaning mahsulotlarni sotishdan tushgan umumiyligi tushumi 25300 mln. so‘mni, shundan 5400 mln. so‘mi eksport faoliyatidan tashkil etadi.

Korxonaning soliq davri uchun mol-mulk solig‘ini hisoblang?

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nimadan iborat?

2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?

3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilari kimlar?

4. Soliqqa tortishning alohida tartibi o‘rnatilgan korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat bilan shug‘ullanganlarida mol-mulk solig‘ini to‘lashadimi?

5. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?

6. Korxona mol-mulkining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymati) qanday tartibda aniqlanadi?

7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkasi qanday miqdorda belgilangan?

8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan qanday yuridik shaxslar imtiyozga ega?

9. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qaysi muddatda taqdim etiladi?

10. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qanday muddatlarda to‘lanadi?

11. Me’yoriy muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari uchun mol-mulk solig‘ini to‘lash tartibi qanday belgilangan?

4.2. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i

Yer solig‘ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati


hamda yer uchun haq yillik yer solig‘i sifatida undiriladigan bo‘ldi.

1990-yilda O‘zbekistonda “Yer to‘g‘-risida”gi qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko‘ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo‘lishi belgilandi

1991-yilda “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”, 1993-yilda “Yer solig‘i to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinib, unda yer solig‘ini undirishda soliqqa tortish obyekti; subyektlari, soliq bo‘yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi ko‘rsatib berildi. 1997-yilda Soliq kodeksining qabul qilinishi hamda 1998-yildan uning kuchga kiritilishi bilan yer solig‘ining to‘laqonli huquqiy asoslari yaratildi.

Yer solig‘i O‘zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbayi hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i davlat byudjetining soliqli daromadlarida yuqori ulushga ega bo‘lmay hozirgi vaqtida ushbu soliqdan tushumlar davlat byudjetining 1.3-1.6 foizini tashkil etmoqda (4.2.1- diagramma).



4.2.1-diagramma. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i dinamikasi¹⁹

4.2.1-diagramma ma’lumotlariga ko‘ra davlat byudjeti daromadlarida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining salmog‘i 2019-yilda

2004-yilga nisbatan 1.0 foizli punktga kamayganligini kuzatish mumkin.

Yer solig‘i boshqa soliq turlaridan farqli o‘laroq, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra u renta to‘lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar molivaviy faoliyatining natijalari bilan bog‘liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad – yerdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlichcha bo‘lgan yerkarda xo‘jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta’minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003–2018-yillardagi “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasida jami yer fonda 2004-yilda 44410,3 ming gektarni tashkil etib, shundan 57,8 foizi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ixtiyoridagi yer maydonlariga to‘g‘ri kelgan. 2005-yilda esa 57,9 foizi, 2006-yilda 58,2 foizini tashkil qilgan

Yer fonda hajmida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer maydonlarining o‘sishi fermer xo‘jaliklari sonining yildan-yilga ko‘payib borayotganligi va o‘rmon xo‘jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarining bir qismining ular tasarrufiga o‘tkazilishi hamda zaxira yerlarning o‘zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Yer solig‘ini to‘lovchilar

Ma‘lumki, yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to‘lovlar yer solig‘i yoki yer uchun ijara to‘lovi tarzda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara to‘lovi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida foydalaniadigan yer uchastkalari uchun yer solig‘i to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara haqi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Amaldagi soliq kodeksining 425-moddasiga muvofiq, mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston

Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs bирgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Yer solig‘i obyekti, baza si va soliq stavkalari Soliq kodeksining 426-moddasiga ko‘ra, mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq solish obyektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiyligi foydalanishdagi yerkari (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, shaxobcha yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo‘yi yerkari va boshqa shu kabi umumiyligi foydalanishdagi yerkari);

3) umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo‘llari egallagan yerkari;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerkari (daraxtzorlar, istirohat bog‘lari, sayilgohlar, xiyobonlar, dam olish uylari, bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek, ariq tarmoqlari egallagan yerkari);

5) davlat qo‘riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarning (bundan ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo‘riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlарining, milliy bog‘larning yerkari;

6) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog‘lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek, chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko‘p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralar.

Bu yerda shuni alohida ta’kidlash zarurki, agar yuqorida keltirib o‘tilgan yer uchastkalari xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq solish obyekti hisoblanadi.

Soliq kodeksining 427-moddasiga muvofiq, quyidagilar soliq bazasidir:

– qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha — soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;

— qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha — soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati, meva-sabzavotchilik qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa — yer uchastkasining umumiy maydoni.

Yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmaganda, soliq bazasi soliqni to‘lash nazarda utilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yer solig‘i stavkalari jahon amaliyotida qabul qilinganidek, yer qiymatidan kelib chiqib belgilanadi. Yer solig‘i stavkalari turli mamlakatlarda turlichcha belgilanadi, lekin o‘rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 hektar sug‘oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o‘rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi.

Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik

tarkibi, sho‘rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o‘tkaza olishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo‘yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo‘linadi, ya’ni 1 klass yerlar nol balldan 10 ballgacha, 2 klass yerlar 11 balldan 20 ballgacha, 3 klass yerlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Bunda yerning ball boniteti qancha yuqori bo‘lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan tasdiqlanadi va soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi hamda ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

2020-yil uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining stavkalari 2019-yil 9-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son qonuni bilan tasdiqlangan. Mazkur qonunning 9-ilovasiga muvofiq soliq stavkalari quyidagicha guruhlangan:

- shaharlar va posyolkalarda yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i stavkalari;
- qishloq joylarida joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari;
- qishloq joylarida joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun aholidan undiriladigan yer solig‘i stavkalari;
- meva-sabzavotchilik mahsulotlari (sabzavotlar, poliz ekinlari, mevalar, tokzorlar) bilan band qilingan yerlar uchun meva-sabzavotchilik qishloq xo‘jaligi korxonalaridan undiriladigan yer solig‘i stavkalari.

Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha soliq stavkalari 1 hektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq stavkalari qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda, meva-sabzavotchilik qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa — 1 hektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,1 koeffitsient qo'llaniladi:

- yagona ishtirokchilari nogironlarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etadigan hamda nogironlarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar egallagan yerlar;
- elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;
- umum davlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalari va radiofiksatsiyalar, yerosti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilari, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;
- umumi foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'l stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek, belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyyaga qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;
- samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;
- O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar — qurilishning normativ muddati davrida;
- konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar — ularning konservatsiyasi davrida.

Ushbu me'yor yuridik shaxslarga belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkalariga tatbiq etiladi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarchining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo'lgan bonitet balidan kelib chiqqan holda to'lanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o'tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati bo'yicha, agroteknik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalarini bo'yicha to'lanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek, qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralar qo'llanilishi mumkin hamda Soliq kodeksida belgilangan soliq imtiyozlari ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga ushbu qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektlarning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalaniolganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.

Shaharlar va posyolkalarda hamda qishloq joylarida joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalariga yer uchastkasining joylashgan joyidan kelib chiqib koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

- Toshkent shahridan 20 km radius masofada — 1,30;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlaridan 15 km radius masofada — 1,20;
- tumanlar markazidan 10 km radius masofada — 1,15;
- boshqa shaharlardan 5 km radius masofada — 1,10.

Yer uchastkalarigacha bo'lgan masofa shahar va tuman markazlarining ma'muriy chegarasidan boshlab avtomobil yo'llari bo'ylab aniqlanadi. Yer uchastkasi ikki shaharga yaqin joylashgan hollarda, shaharning yuqoriroq funksional maqsadiga mos keluvchi koeffitsiyent qabul qilinadi.

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar

Soliq kodeksining 428-moddasiga muvofiq, qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MВт va ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga yer solig'idan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

- madaniyat, ta'lif, sog'liqni - saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish obyektlari egallagan yerlar;
- sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;
- shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

- aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari (magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xhash inshootlar egallagan yerlar);
- magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xhash inshootlar egallagan yerlar;
- ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmonbog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidagi o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;
- tomchilatib sug'orish qo'llaniladigan yerlar — tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan oyning boshidan e'tiboran besh yil muddatga;
- qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtдан e'tiboran besh yil mobaynida;
- melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mayjud sug'oriladigan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

– yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat’i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o‘tqazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi, bahorda o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi;

– ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik bo‘lgan yerlar va o‘rmon fondining yerkari. Ilmiy tajribalar, eksperimental ishlari, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

Yuqorida keltirilgan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq kodeksining 430-moddasiga muvofiq, kalender yil soliq davri hisoblanadi.

Soliq kodeksining 431-moddasiga ko‘ra, soliq har bir soliq davrining 1 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi (*7-ilova*):

– qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha — joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar;

– qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha — joriy soliq davrining 1 mayiga qadar.

Soliq to‘lovchilar soliqni Soliq kodeksining 427-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o‘zgarish bo‘lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining umumiyl maydonida va tarkibida o‘zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlari bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Quyida keltirilgan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar mazkur obyektlarning joylashgan yeri bo‘yicha soliq organlariga soliq solish obyekti hisoblanmaydigan, yuridik shaxsda mavjud bo‘lgan yer uchastkalari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomani taqdim etadi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiyl foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, shaxobcha yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi umumiyl foydalanishdagi yerlar);

3) umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo‘llari egallagan yerlar;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog‘lari, sayilgohlar, xiyobonlar, dam olish uylari, bolalar sog‘lomlashtirish oromgoohlari, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek, ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

5) davlat qo‘riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarning (bundan ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo‘riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog‘larning yerlari;

6) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog‘lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek, chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko‘p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralar.

Soliq kodeksining 432-moddasiga muvofiq, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

– aylanmadan soliq to‘lovchilar uchun – yillik soliq summasining to‘rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

– aylanmadan soliq to‘lovchi bo‘lmagan soliq to‘lovchilar uchun – yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to‘lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to‘lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 sentyabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Toshkent shahrining 2 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 5.5 ga ni tashkil etadi.

Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.

2-masala. Toshkent shahrining 3 zonasida joylashgan korxonaga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 3.75 ga, haqiqiy foydalananishdagi yer maydoni esa 4.5 ga ekanligi aniqlandi.

Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Yer solig'ini yuridik shaxslardan undirishning sababi nimada?
2. Yer solig'ining huquqiy asoslari O'zbekistonda qachon shakllangan?
3. O'zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?
4. Qanday yuridik shaxslar yer solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanadi?
5. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibidagi yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanadimi?
6. Qanday hollarda notijorat tashkilotlar yer solig'i to'lovchilar hisoblanadi?
7. Yer solig'ini undirish obyekti nima?
8. Yer solig'i stavkalari qanday mezonlar asosida b'elgilanadi?
9. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
10. Qanday yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi?
11. Yuridik shaxslar yer solig'ining hisob-kitobini qanday muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadi?
12. Yuridik shaxslar yer solig'i summasini byudjetga qanday muddatlardan kechiktirmay to'laydilar?


4.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning joriy etilishi

hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida suv qadrlı hisoblanadi. Chunki respublikamizda qishloq xo'jaligida foydalananligiga yerlar asosan sug'oriladigan yerlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

1992-yildan 1998-yilga qadar suv resurslaridan foydalanyotgan yuridik shaxslar "suv uchun to'lov" to'lashar edi. Iste'molchilarining suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 1998-yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umum davlat soliqlari tarkibiga kiritildi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ahamiyati xilma-xildir. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i 2004–2008-yillarda 0,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda 0,3 foiz bo'lgan. 2019-yilgi davlat byudjeti parametrlari bo'yicha ushbu soliq davlat byudjeti daromadlarining 0,3 foizini, mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarida esa 1,6 foizni tashkil etmoqda (4.3.1-diagramma).



4.3.1-diagramma. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi²⁰

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003–2018-yillardagi "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlari asosida tayyorlangan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tushumlar (bundan, elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno) 2019-yil

9-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son Qonuniga asosan mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida to'liq miqdorda tumanlar va shaharlar byudjetlari daromadlariga o'tkazilmoqda.

Soliq to'lovchilar tarkibi

Soliq kodeksining 441-moddasiga muvofiq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste'mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalarini orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;
- suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagи tadbirkorlar;
- dehqon xo'jaliklari.

O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarini ushbu manba bo'yicha ta'minlab beradigan asosiy soliq to'lovchilar bo'lib, Shirin GRES, Taxiyatosh GRES, Toshkent GRES va boshqa shu kabi GRESlar hisoblanishadi.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlari uchun foydalananadigan suv uchun soliqni to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyekti, bazzasi va soliq stavkalari

Soliq kodeksining 442-moddasiga muvofiq, yerusti va yerosti manbalaridan olib foydalilaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalilaniladigan suv resurslari;

2) sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yerosti mineral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yerosti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdag'i bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qayta quyiladigan yerosti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

6) issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

7) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.

Soliq kodeksining 443-moddasiga ko'ra, foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasidir.

Soliq bazasini aniqlash tartibi. Suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblar ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashildaraxtzorlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yerusti va yerosti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'ida suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik

shaxslar vodoprovod tarmog‘iga suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushbu ma’lumotlarni soliq to‘lovchilar e’tiboriga yetkazishi lozim.

Issiq suv hamda bug‘ hosil qilinishi bo‘yicha soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o‘zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijaraga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to‘lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko‘rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiriladi.

Yuridik shaxslarning hududida ta’mirlash-qurilish ishlarni va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to‘lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to‘lamaydi. Ta’mirlash-qurilish ishlarni va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxslar soliq to‘laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to‘laydi.

Yuridik shaxslar qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarga taalluqli qism bo‘yicha soliq bazasini soliq davrida bir gektar sug‘oriladigan yerkarni sug‘orish uchun sarflanadigan suvning butun xo‘jalik bo‘yicha o‘rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Dehqon xo‘jaliklari uchun soliq bazasi soliq organlari tomonidan soliq davrida bir gektar sug‘oriladigan yerkarni sug‘orish uchun sarflanadigan suvning butun xo‘jalik bo‘yicha o‘rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo‘yicha soliq to‘lash sof tushumning umumiyligi hajmida nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘sha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalananilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalananiladigan suv hajmi deganda iste’mol idishidagi tayyor mahsulotga to‘g‘ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq, belgilangan limitlar doirasida yerusti va yerosti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq miqdorda belgilanadi. Soliq stavkalarining miqdori O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

2020-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari 2019-yil 9-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonuni bilan belgilangan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi jadval ma’lumotlarida keltirilgan (4.3.1-jadval).

4.3.1-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari²¹

T/r	To‘lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so‘mda)	
		Yerusti suv resurslari manbalari	Yerosti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2–6-bandlarda nazarda)	140	170

²¹ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-son Qonuniga 11-ILOVA

	tutilganlar bundan mustasno), dehqon xo‘jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar		
2.	Sanoat korxonalari (3–6-bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno)	410	490
3.	Avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar	1 380	1 730
4.	Elektr stansiyalari	35	60
5.	Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	70	90
6.	Pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar:		
	pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlar va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo‘yicha	21 900	21 900
	boshqa maqsadlarda	410	490

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo‘yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yerusti manbalaridan olingan suvdan

foydalaniqanda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

**Soliqni hisoblab
chiqarish va soliq
hisobotini taqdim etish
tartibi**

Soliq kodeksining 446-moddasiga ko'ra suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq davri kalendar yil hisoblanadi.

Soliq kodeksining 447-moddasiga imuvofiq, soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi (*8-ilova*):

- O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari mustasno — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15-dekabrigacha;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 20-yanvarigacha.

Soliq organlari soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini dehqon xo'jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiradi.

Soliq kodeksining 448-moddasiga binoan, soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'laydi, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, dehqon xo'jaliklari mustasno.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 20-yanvarigacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatlar soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Belgilangan tartibda hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar:

— soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) — har oyning 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

— soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'limgan yuridik shaxslar, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to'rtdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davri davomida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgarganda, soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnomasi taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lov larga soliqning o'zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlар summаси soliq hisobotida ko'rsatilgan byudjetga to'lanishi lozim bo'lган soliq summасiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirdа, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summасidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Sanoat korxonasi hisobot davrida jami 55000 kub metr suv resurslaridan foydalangan bo'lib, shundan 38 foizi yerusti manbalaridan, qolgan qismi esa yerusti manbalaridan olingan.

Korxona to'lashi lozim bo'lган suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summасini hisoblang.

2-masala. Elektrostansiya hisobot davrida 38500 kub metr yerusti suv resurslaridan, 44800 kub metr yerusti suv resurslaridan foydalangan.

Korxona to'lashi lozim bo'lган suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summасini hisoblang.

3-masala. Kommunal xo'jaligi hisobot davrida 170 000 metr kub hajmida aholi punktlari suv bilan ta'minlangan. Shuningdek, o'z iste'moli uchun 27000 metr kub yerusti suv resurslaridan foydalangan.

Korxona to'lashi lozim bo'lган suv resusrlaridan foydalanganlik uchun soliq summасini hisoblang.

4-masala. Sanoat korxonasi Toshkent shahar M.Ulug'bek tumani DSIda ro'yxatga olingan. Korxona hisobot davrida Toshkent viloyati Qibray tumani hududidagi suv resurslaridan (yerusti manbalaridan) 28000 metr kub, o'zi joylashgan tumandagi yerusti suv manbalaridan 12500 metr kub foydalangan.

Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lган suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summасini aniqlang.

Korxona soliq hisob-kitobini qaysi tuman DSIga taqdim etadi va soliqni to‘laydi?

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishda ko‘zda tutilgan maqsad nima?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilari kimlar?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni davlat byudjetiga ta‘minlab beradigan asosiy soliq to‘lovchilarni bilasizmi?
4. Soliqqa tortish obyekti qanday tartibda aniqlanadi?
5. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilangan?
6. Qanday suv resurslari soliq solish obyekti bo‘lmaydi?
7. Yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalilaniganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarни qanday muddatda to‘laydilar?
8. Suv resurslaridan foydalilaniganlik uchun soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?
9. Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan baza o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnomasi taqdim etishga haqlimi?
10. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklariga qaysi davlat organi tomonidan topshiriladi?
11. Suv resurslaridan foydalilaniganlik uchun soliqni to‘lash qanday muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi?
12. Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlar summasi hisob-kitobga ko‘ra byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi qanday huquqqa ega?

4.4. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq

Yer qa’ridan foydalangan-ganda soliqqa tortish za-rurligi

bilan bog‘liq turli xil to‘lovlardir.

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalinishni ta‘minlashga qaratilgan muhim vosita – bu davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalinish

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, rentals, roylati va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'imasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtida yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.²²

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi.

Rentals tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi.

Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, roylati – bu mineral xomashyoni qazib olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.²³

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga

²² O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi qonuni, 20-modda.

²³ O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi qonuni, 20-modda.

yuqori rentabellikka erishadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yerosti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o‘tdi. O‘zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to‘plangan.

O‘zbekistonda 100 ga yaqin mineral xomashyoni o‘zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xom-ashyo salohiyoti 3,3 trillion AQSh dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSh dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.

Respublikamiz qonunchiligiga ko‘ra mavjud yerosti boyliklari umum davlat mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi “Yerosti boyliklari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq 1995-yildan boshlab yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yerosti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to‘lay boshladilar.


Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umum davlat mulki hisoblangan yerosti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a‘zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2002-yil 13-dekabrda “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi bo‘lib, yerosti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Soliq kodeksining 23-moddasiga muvofiq yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta’minalash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq 2004-yilda davlat byudjeti daromadlarining 1,7 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2006-yilga kelib 11,5 foizni, 2008-yilda 10,5 foizni, 2010-yilda esa 9,6 foiz bo‘lgan. 2019-

yilgi davlat byudjeti parametrlari bo'yicha ushbu soliq davlat byudjeti daromadlarining 12.6 foizini, mol-mulk solig'i va resurs to'lovlaridagi salmog'i esa 76.6 foizni tashkil etmoqda (4.4.1-diagramma).



*4.4.1-diagramma. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi (foizda)*²⁴

Ushbu ko'rsatkichlar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlari tarkibida ahamiyatlari ekanligidan darak beradi.

Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yerosti boyliklarining 53 turiga nisbatan belgilangan bo'lsada, byudjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdag'i yerosti boyliklariga mutloq ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tushumlari tarkibida oltin 43.1 foizni, tozalangan mis 38.3 foizni, neft 4.4 foizni, tabiiy gaz va gaz kondencati 10.4 foizni, kumush esa 1.7 foizni tashkil etmoqda.

Agarda hududlar bo'yicha tahlil qilinganda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq jami tushumining 38.4 foizi Toshkent viloyatiga, 46.3 foizi Navoiy viloyatiga, 13.2 foizi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelgani holda qolgan 2.1 foizi respublikamizning boshqa hududlari zimmalariga to'g'ri keladi.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 2003–2018-yillardagi "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlari asosida tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa’ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa’ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to‘lovlarni to‘laydilar:

- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Soliq kodeksining 449-moddasiga muvofiq, yer qa’ridan foydali qazilmalarni qazib oluvchi, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa’ridan foydalanuvchilar yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirishni, foydali qazilmalarni qazib olishni, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa’ridan foydalanuvchilar deb e’tirof etiladi.

Soliqqa tortish maqsadida yerosti boyliklari deganda yer qobig‘ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo‘lgan makon, foydali qazilmalar deganda esa – iqtisodiy va sog‘lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalarga qaraladi.

Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xomashyo bo‘lgan rudalarni bir korxona qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalarga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxona soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Masalan, Olmaliq mis qazib olish korxonasi tarkibida mis bo‘lgan, qazib olingan rudani boyitish fabrikasiga beradi, fabrika boyitilgan rudani Olmaliq tog‘-kon metalluriya kombinatining mis eritish zavodiga topshiradi. Kombinat tayyor mahsulot – tozalangan mis chiqaradi, soliq stavkasi ham uning uchun belgilangan. Mazkur holatda rudani qazib oluvchi korxona emas, balki tozalangan misni olganlik uchun kombinat soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Respublikamizda ushbu soliqning asosiy qismini davlat byudjetiga ta'minlab beruvchi eng yirik soliq to'lovchilar bo'lib, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Navoiy kon metallurgiya kombinati, Farg'on'a va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari, Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlaydigan zavodlari, Navoiy oltinni qayta ishlaydigan korxona shuningdek, Angren ko'mir qazib oluvchi korxona va boshqa shu kabi yerosti boyliklarini qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar hisoblanadi.

Ruda qayta ishlash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo'natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxona soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Soliq kodeksining 450-moddasiga ko'ra, foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi foydali qazilmalarning haqiqiy yo'qotishlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmaning zaxirasi qaysi foydali qazilmaning miqdoriga kamaytiriladigan bo'lsa, o'sha foydali qazilmaning hisoblangan miqdori va foydali qazilmani qazib olishning (ajratib olishning) to'liq texnologik sikli yakunlangach aniqlangan, haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma miqdori o'rtaсидagi farq foydali qazilmaning haqiqiy yo'qotishlaridir.

Soliq solish obyekti foydali qazilmaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish obyektiidir:

- qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar (shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan);
- foydali qazilmalardan, mineral xomashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;
- sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;
- uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi qazib olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar;
- ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo‘lmaydi:

– qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydar kiritiladigan tabiiy gaz hajmi;

– soliq to‘lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda o‘zining xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro‘yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda daryo o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalar, bundan qayta ishlangan va realizatsiya qilingan foydali qazilmalar hajmi mustasno.

Soliq kodeksining 451-moddasiga muvofiq, soliq bazasi yer qa’ridan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga, shu jumladan asosiy foydali qazilmani qazib olishda birga chiqadigan foydali komponentlarga nisbatan aniqlanadi.

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining hisobot davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati sifatida aniqlanadi.

Hisobot davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo‘yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini chegirgan holda) ularning naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo‘lish orqali alohida aniqlanadi.

Hisobot davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o‘rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilma umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxonasi 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi. Bunda, soliq to‘lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan

o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingan foydali qazilmaning bir qismi realizatsiya qilinib, qolgan qismidan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalilanilgan hollarda, foydali qazilma bo'yicha soliq bazasi realizatsiya qilingan ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish narxidan kelib chiqib aniqlanadi.

Foydali qazilmadan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalilanilgan hollarda bunday foydali qazilmalar uchun soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmani ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi.

Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda qazib olinadigan xomashyo turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqa lashtirilgan stavkalari belgilangan. Foydali qazilmalarni qazib olishning tabiiy noqulay sharoitda ishlaydigan konlar davlat tomonidan qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalarni joriy etish orqali bunday korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtida jami 55 turdag'i foydali qazilmalarga nisbatan tabaqa lashtirilgan tarzda soliq stavkalari o'rnatilgan.

Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) 0 foizli stavka bo'yicha soliq solish foydali qazilmalarning normativ yo'qotishlariga taalluqli qismi bo'yicha amalga oshiriladi. Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) konlarda foydali qazilmalarni qazib olishning qabul qilingan sxemasi va texnologiyalari bilan texnologik bog'liq holdagi, vakolatli organ tomonidan qonun hujatlarda belgilangan

tartibda tasdiqlanadigan normalar doirasidagi yo‘qotishlar normativ yo‘qotishlardir.

2020-yil 1-yanvardan boshlab yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi jadval ma’lumotlarida keltirilgan (4.4.1-jadval).

4.4.1-jadval

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari²⁵

Soliq solinadigan obyektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
1. Asosiy va birga qo‘shilib chiqadigan foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo‘yicha	9
Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
Gaz kondensati	20
Neft	20
Tosh ko‘mir	4
Qo‘ng‘ir ko‘mir	4
Yonuvchi slantslar	4
Rangli, nodir va radioaktiv metallar:	
Tozalangan mis	10
Molibdenli sanoat mahsuloti	10
Reniy	10
Konsentratlangan qo‘rg‘oshin	8
Metall rux	10
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10
Selen	10
Tellur	10
Indiy	10
Vismut	10

²⁵ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 452-moddasidan olindi.

Asl metallar:	
Oltin	10
Kumush	10
Palladiy	10
Platina	10
Osmiy	10
Nodir tosh xomashyosi:	
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24
Feruza, listvenit, rodonit, zmeevik, marmar yo‘l-yo‘l aqiq, kaxolong, yashma, xaltsedon, aqiq, gematit	24
Qora metallar:	
Temir	5
Titan-magnetitli rudalar	4
Marganets rudalari	4
Kon-kimyo xomashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlataladigan)	3,5, biroq 10000 so‘m/kub.m dan kam bo‘limgan
Kaliy tuzi	3,5
Sulfat tuzi	3,5
Fosforitlar (donasimon)	5
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Ohaktoshlar (soda uchun va Biox texnologiyasi bo‘yicha sanoat chiqindilarini tozalash)	3,5
Mineral (loysimon, temirokisli, karbonatli) pigmentlar	5,5
Yod	4,8
Qishloq xo‘jaligi ruda xomashyosi (glaukonit, bentonitli gil, urug‘simon va tabiiy foydalilaniladigan hamda jelvakli fosforitlar)	3,5
Kon-ruda xomashyosi:	
Ervuchan shpat	21,2
Tabiiy grafit	8

Birlamchi kaolin (konsentrat), realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	7,9
Ikkilamchi kaolin, realizatsiya qilingan hajmiga doir	7,9
Dala shpati xomashyosi (pegmatit, dala shpati, felzit, leykokratli granit, kvarts-dala shpati xomashyosi)	6,5
Kvarts qumlari (shisha)	3
Qumtosh (shisha)	5
Bentonitli loy (burg'ulangan eritmalar)	4,8
Talk va talk toshi	4
Talkli magnezit	4
Vollastonit	4
Asbest	4
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4
Barit konsentrati	4
O'tga chidamli, qiyin eruvchan gillar	4
Ohaktoshlar, dolomitlar (shisha, metallurgiya uchun, o'tga chidamli), flyus ohaktosh	5, biroq 11500 so'm/kub.m dan kam bo'Imagan
Kvarts va kvartsit (shisha, texnik kremniy, silikomargants, dinalar ishlab chiqarish uchun)	6,5
Qoliplash xom ashyosi (qumlar, loylar)	4
Vermikulit	4
Mineral paxta uchun xomashyo (dolomit, tog' jinslari)	5
Hayvonlar va qushlarni oziqlantirish uchun ohaktosh qobig'i	5
Serpentinit (o'tga chidamli xomashyo)	5
Qurilish materiallari:	
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xomashyosi (mergeli, loylar, slantslar, lyossimon jinslar, qumoqsimon, loysimon chig'anoqlar, kaolin, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, bazaltlar, diabazlar, andezibazaltlar, gliejlar, temir tarkibli	10

qo'shimchalar, magnetit — gemititli jinslar, kvarts qumi va h.k.)	
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	45000 so'm/tonna*
Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar (ohaktosh, ohaktosh-chig'anliq, raverkinsimon ohaktoshlar, mramor, granit, granodiorit, granosienit, nefelinli sienit, gabbro, granosienitporfir, kvarts porfirdagi ignimbritlar, liparito-datsitlar, vulqon tufi, vulqon jinslari, qumtosh)	5, biroq 20000 so'm/kub.mdan kam bo'limgan
Marmar ushog'i	5, biroq 17000 so'm/kub.mdan kam bo'limgan
Keramzit xomashyosi (bentonit va loy jinslari)	5
G'isht-cherepitsa xomashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, lyosslar, zichlovchi sifatida qumlar va boshqalar)	5, biroq 7000 so'm/kub.mdan kam bo'limgan
Gips toshi, gips va angidrid, ganch	5, biroq 9500 so'm/kub.m dan kam bo'limgan
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5, biroq 7000 so'm/kub.m dan kam bo'limgan
Sohilni himoya qilish ishlari uchun xomashyo (ohaktoshlar, porfiritlar, granitlar)	5, biroq 10000 so'm/kub.mdan kam bo'limgan
Qurilish qumlari	5, biroq 8500 so'm/kub.m dan kam bo'limgan
Tosh-shag'al aralashmasi	5, biroq 7500 so'm/kub.mdan kam bo'limgan
Qumtoshlar	5
Ohaktosh-chig'anoq	5, biroq

	12500so‘m/kub.m dan kam bo‘lmaqan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5, biroq 10000so‘m/kub.m dan kam bo‘lmaqan
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfiritlar va slanets jinslari)	5, biroq 10000so‘m/kub.m dan kam bo‘lmaqan
Farfor xomashyosi (farfor toshi, loyli oq quyuqlashuvchi slanets)	5
To‘g‘on qurish uchun xomashyo (tosh- shag‘al materiallari, lyosimon jinslar, qum, bentonitli loy, ohaktoshlar)	5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun stavkaning 30 foizi

Izoh:

* *Sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek, sement xomashyosi – ohaktoshni realizatsiya qiladigan yer qa‘ridan foydalanuvchilar belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq to‘laydi. Sement ishlab chiqarish uchun ko‘mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.*

Asl, rangli, noyob va radioaktiv metallarni qazib olishni amalgamoshiruvchi alohida soliq to‘lovchilar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

**Soliqni hisoblab
chiqarish,
hisobotlarini taqdim
etish va soliqni to‘lash
tartibi**

Soliq kodeksining 453-moddasiga muvofigi, kalender yil soliq davridir. Hisobot davri yuridik shaxslar uchun – bir oy hisoblanadi.

Soliq kodeksining 453-moddasiga ko‘ra, soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda soliq hisoblab chiqariladi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo'yicha soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo'limgan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turgan joydag'i, noruda foydali qazilmalar bo'yicha esa — qazib olish amalga oshirilgan joydag'i soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan — ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda (*9-ilova*).

Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yuridik shaxslar tomonidan — har oyda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Soliqni buxgalteriyada hisobga olish tartibi Yuridik shaxslarning yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarining buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar (turlari) bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi buxgalteriyada quyidagicha aks ettiriladi:

- davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'ining debeti;
- byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Byudjetga o'tkazilgan soliq summalarini quyidagicha aks ettiriladi:

- byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining debeti;
- pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summalarini to'langan holda, boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz bo'limgan taqdirda, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida

Bonuslar qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovidir. Foydali qazilmalarni qidirish, razvedka qilish va qazib olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziya olgan yer qa'ridan foydalanuvchilar imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusini to'laydi.

Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va razvedka qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovidir.

Imzoli bonusning eng kam miqdori foydali qazilmaning turiga qarab quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

4.4.2-jadval

Imzoli bonus stavkalari²⁶

T/r	Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi	Bonusning eng kam stavkasi (bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan karrali miqdorlarda)
1.	Uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	5 000
2.	Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi	1 000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	500
4.	Rudali foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi (bundan oltin, qimmatbaho, noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi mustasno)	250
5.	Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	50

²⁶ O'zbekiston Respublikasining "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni, 2002-yil 13-dekabr, 444-II-son

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay soliqni hisobga olish joyidagi soliq organlariga to'lanadi.

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarda qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'ida foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir.

Tijoratbop topilma bonusi, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olishda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi tijoratbop topilma bonusini hisoblab chiqarish obyektidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati tijoratbop topilma bonusini hisoblab chiqarish bazasidir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati quyidagicha hisoblab chiqiladi:

- Tovar bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestriga kiritilgan yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun — foydali qazilmaning mazkur turi uchun tasdiqlangan deklaratsiya qilingan narxi bo'yicha;

- boshqa yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xalqaro birjada belgilangan birja narxi bo'yicha, jahon bozorida narx mavjud bo'Imagan taqdirda esa foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati — belgilangan tartibda kelishilgan tegishli konni sanoat yo'sinida o'zlashtirish bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslarda nazarda tutilgan kavlab olishning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, uni 20 foiz oshirgan holda.

Tijoratbop topilma bonusi stavkasi²⁷

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	0,1

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymatini aniqlash va tijoratbop topilma bonusini to‘lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tijoratbop topilma bonusining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organlariga foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beradigan litsenziya olingan kundan e’tiboran yigirma besh kundan kechiktirmay yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan taqdim etiladi (*9-ilova*).

Tijoratbop topilma bonusini to‘lash foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beradigan litsenziya olingan kundan e’tiboran to‘qson kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Agar tijoratbop topilma bonusining summasi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning yillik summasidan oshsa, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tijoratbop topilma bonusini uch yilgacha muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonи beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziya berilgan yer qa’ridan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi axborotni taqdim etib boradi.

Imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi summasi O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga o‘tkaziladi.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Yerosti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2002-yil 13-dekabr, 444-II-son

Mavzuga doir masalalar

1-masala. Neft qazib oluvchi korxona hisobot davrida 1600 tonna neft qazib olgan. Korxona qayta ishlash uchun 10600 ming so‘mga (QQS va aksiz solig‘isiz) realizatsiya qilgan.

Korxonaning hisobot davrida to‘lashi lozim bo‘lgan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang?

2-masala. Ko‘mir qazib oluvchi korxona hisobot davrida 1900 tonna ko‘mir qazib olgan va uning 45 foizini 84000 ming so‘mga realizatsiya qilgan.

Korxonaning to‘lashi lozim bo‘lgan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang?

3-masala. Korxona hisobot davrida 2500 tonna temir rudasini qazib olib, uning bir qismini 13000 ming so‘mga QQS bilan realizatsiya qilgan.

Korxonaning to‘lashi lozim bo‘lgan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang?

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Yer qa’ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?
2. Bonuslar nima?
3. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yerosti qazilma boyliklari hissasiga to‘g‘ri keladi?
4. Respublikamizda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchi bo‘lgan qanday yirik korxonalarini bilasiz?
5. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining asosiy qismi respublikamizning qaysi hududlari hissasiga to‘g‘ri keladi?
6. Yer qa’ridan foydalanganda soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
7. Qaysi mezonlar asosida soliq stavkalari tabaqalashtiriladi?

8. Hozirgi vaqtida yerosti qazilma boyliklarning nechta turiga nisbatan soliq stavkalari belgilangan?
9. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilganmi?
10. Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalilanigan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyekti bo'ladimi?
11. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?
12. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash qanday muddatlarda amalga oshiriladi?

V BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YIG‘IMLAR

5.1. Avtotransport yig‘imlari

Avtotransport yig‘imlari-ning turlari, to‘lovchilar, soliq solish obyekti va bazasi

Avtotransport yig‘imlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im.

Amaldagi Soliq kodeksining 456-moddasiga muvofiq, avtotransport vositalarini sotib oluvchi va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘imni to‘lovchilardir.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘imni to‘lovchilardir.

Avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan yangi avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun yig‘imni soliq to‘lovchilari deb e‘tirof etiladi.

Soliq kodeksining 457-moddasiga muvofiq, yig‘imlarga soliq solish obyekti quyidagilardir:

- avtotransport vositalarini olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tish.

Yig‘imlar undiriladigan baza sifatida quyidagilar belgilangan:

- sotib olingan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

– O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Yig‘imlar stavkasi, imtiyozlar va yig‘imlarni to‘lash tartibi

Avtotransport yig‘imlari stavkasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-sonli qonunining 15-ilovasiga asosan 2020-yil

uchun quyidagi miqdorida belgilangan.

5.1.1-jadval

Ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda avtotransport vositalarining egalari tomonidan to‘lanadigan avtotransport vositalarini sotib olganlik va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirganlik uchun yig‘imlar hamda xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranziti uchun yig‘imlar stavkalari²⁸

N	Yig‘imlar va ajratmalar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va u orqali tranzit qilishdan yig‘imlar	AQSh dollarida
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun (2-5-bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va tranziti uchun yig‘imlar	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan ortiq	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositaslari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va tranziti uchun yig‘imlar	300

²⁸ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-sonli Qonunidan olindi.

4	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va tranziti uchun yig'imlar	300			
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va tranziti uchun yig'imlar				
	quyidagi og'irlikdagi yuklarni ko'taradigan yuk avtotransport vositalari:				
	10 tonnagacha	50			
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100			
	20 tonnadan ortiq	150			
II	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tkazishda avtotransport vositalarining egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lana digan avtotransport vositalarini sotib olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im				
1	Yangi (foydalanishda bo'lмаган) avtotransport vositalari bo'yicha	xarid qilish narxidan 3% foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan %da			
2	Foydalilanigan avtotransport vositalari bo'yicha:	<table border="1"> <tr> <td>3 yilda yilga cha</td> <td>3 7 yilga cha</td> <td>7 yil dan ortiq</td> </tr> </table>	3 yilda yilga cha	3 7 yilga cha	7 yil dan ortiq
3 yilda yilga cha	3 7 yilga cha	7 yil dan ortiq			
	Yengil avtomobillar	11 9 6			
	Motosikllar (shu jumladan, mopedlar) va yordamchi dvigatel o'rnatilgan velosipedlar, kajavali yoki kajavasiz	10 7 5			
	Boshqa motorli transport vositalari	16 13 9			

Izohlar:

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xorijiy davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi

uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir qatorda qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-yanvardagi 11-son qarori bilan belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o'tishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston yuk avtotransport vositalaridan qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 28-sentyabrdagi 447-son qaroriga muvofiq 175 AQSh dollari miqdorida yig'im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koefitsiyenti qo'llaniladi.

4. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

- ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

- yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;

- faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari – yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (yengil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

- yuridik shaxslar - qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

- homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek, byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

- yuridik shaxslar – avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;

– qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

– avtotransport vositalarini yuqoridagi 3-4-bandlarda ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

– avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

– avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

– avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

– avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan avtotransport vositalari sotib olinganda, yig'im qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

Mayzuga oid masalalar

1-masala. 2020-yilning mart oyida yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan 8 turdag'i avtotransport vositalarini olib kirdi.

Yuridik shaxs tomonidan xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganligi uchun yig‘im miqdorini aniqlang?

2-masala. Qirg‘iziston Respublikasining 15 dona yuk avtotransport vositalari 2020-yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab tranzit holatda o‘tdi.

Ushbu transport vositalaridan yig‘im miqdorini hisoblang?

3-masala. Yuridik shaxs 4 yil mobaynida foydalanilgan 3 dona avtotransport vositalarini sotib oldi. Sotib olingan avtotransport vositalarining jami ot kuchi 250 ga teng.

Sotib olingan avtotransport vositalaridan yig‘im miqdorini hisoblang?

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Avtotransport yig‘imlari qachon va nima maqsadda joriy etilgan?
2. Avtotransport yig‘imlarining to‘lovchilari kimlar?
3. Avtotransport yig‘imlari yuridik shaxslarning qaysi daromadlaridan olinadi?
4. Xorijiy davlatlarning avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganda undiriladigan to‘lov qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Avtotransport yig‘imlarining stavkalari qanday tartibda va qaysi mezonlarga asosan belgilanadi?
6. Avtotransport yig‘imlari uchun soliq solish obyekti nima?
7. Avtotransport yig‘imlarini to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini nazorat qilish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
8. Avtotransport yig‘imlarini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
9. Avtotransport vositalarini olish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘imni to‘lashdan kimlar ozod qilinadi?
10. Avtotransport yig‘imlari qanday muddatlarda to‘lanadi?

5.2. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im

Yig'im to'lovchilar, obyekti va stavkalari

Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im to'lovchilardir.

Tovarlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxati tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im obyektidir.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im qonun hujjatlarida belgilangan miqdor doirasida hisoblab chiqariladi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'imning aniq stavkasi qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori stavkalardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

5.2.1-jadval

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im miqdorlari²⁹

Yig'implarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so'mda)			
	Tosh kent sh.	Nukus sh., shaharlar viloyat markazlari	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im:				
alkogolli mahsulotlar, shu jumladan, umumiyligi ovqatlanish korxonalarini tomonidan alkogolli mahsulotlarni sotish	1 200 000	1 000 000	800 000	600 000

Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish, shu jumladan, umumiyligi ovqatlanish korxonalarini tomonidan alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im yagona hisobvaraqqva kelib

²⁹ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O'RQ-589-sonli qonunidan olindi.

tushib, kelgusida mablag‘lar byudjet bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi o‘rtasida taqsimlanadi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im yagona hisobvara qqa kelib tushib, kelgusida mablag‘lar byudjet bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi o‘rtasida taqsimlanadi.

Yig‘imni hisoblab chi-qarish va to‘lash tar-tibi

to‘lanadi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im bo‘yicha hisob-kitob faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yil davomida tegishli ruxsat guvohnomasini (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarorini) olgan soliq to‘lovchilar tomonidan – ruxsat guvohnomasi (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarori) berilgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmasdan;
- faoliyat yuritayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan – har yili hisobot yilining 15-yanvarigacha taqdim etiladi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Yig‘imlar deganda nimani tushunasiz?
2. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im Soliq kodeksining qaysi moddalariga asosan undiriladi?
3. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imni to‘lovchilari kimlar?
4. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imning obyekti nima?
5. Ayrim tovar turlarining ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?

6. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im qancha miqdorda undiriladi?

7. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'imning aniq stavkasi kim qanday organlar tomonidan belgilanadi?

8. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'imning aniq stavkasi qonun hujjalarda belgilangan eng yuqori stavkalardan ortiq bo'lishi mumkinmi?

9. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi qancha muddatga beriladi?

10. Yig'imni o'z vaqtida to'lanishi ustidan javobgarlik kimlarning zimmasiga yuklangan?

VI BOB. SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

6.1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish tartibi

**To'g'ridan-to'g'ri
xususiy chet el
investitsiyalari
ishtirokidagi yuridik
shaxslarga soliq solish**

ayrim soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari deganda chet davlatning fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'limgan shaxslar, shuningdek, chet elliq nodavlat yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining kafolatini taqdim etmasdan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalarini jaib etgan yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlardan foydalanishga haqli.

**Soliq to'lovchilarga
imtiyozlarning
qo'llanilish tartibi**

Soliq kodeksi 471-moddasida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha imtiyozlar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilanadigan ortiqcha ishchi kuchlari mayjud bo‘lgan mintaqalar va qishloq aholi punktlarida joylashtirilganda;
- chet ellik investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda;
- yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) chet ellik ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foiz, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida 15 foiz bo‘lganda;
- chet el investitsiyalari erkin ayriboshlanadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;
- soliq kodeksining 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari berilganligi natijasida ularning qo‘llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida 50 foizi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida reinvestitsiyaga yo‘naltirilganda.

Soliq kodeksining 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini olgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat o‘tganidan keyin bir yil o‘tmasidan oldin faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o‘z mamlakatiga o‘tkazish va kapitalini xorijga olib chiqib ketish faqat berilgan soliq imtiyozlari summalarining o‘rnini byudjetga qoplanganidan keyin amalga oshiriladi.

Agarda nazarda tutilgan shartlarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, soliq kodeksining 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini olgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmasidan davr uchun soliqlar soliq kodeksining VIII bo‘limida nazarda tutilgan penyalar qo‘llanilgan holda, umumbelgilangan tartibda to‘lanadi. –

Imtiyozlarning qo‘llanilish mezonlariga mos keladigan yuridik shaxs imtiyozlarni qo‘llash boshlangan sana haqida soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda bildirishi shart.

Soliq davri mobaynida nazarda tutilgan imtiyozlarga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan taqdirda, soliq to‘lovchi ro‘yxatdan o‘tkazish joyidagi davlat

soliq xizmati organini soliq to‘lovchining imtiyozlarga bo‘lgan huquqi yo‘qotilgan sana to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalarini jalg etgan holda tashkil etilgan yuridik shaxslarga ta‘rif bering?
2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari deganda qanday investitsiyalar tushuniladi?
3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalarini jalg etgan yuridik shaxslarga qanday soliq imtiyozlari berilgan?
4. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaga qanday hollarda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar qo‘llaniladi?
5. Yuridik shaxs imtiyozlarni qo‘llash boshlangan sana haqida kimni, qanday tartibda ogohlantiradi?

6.2. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish shartlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari beriladi.

Mazkur ko‘rsatilgan soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o‘rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha imtiyozlardan soliq kodeksiga muvofiq foydalaniladi. Soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining

guvohnomasi olingan kundan e'tiboran hisoblab chiqariladi.

Maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik subyekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e'tiboran foydalanishga haqli emas.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli. Bunda, agar investitsiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran qo'llaniladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga qaysi mezonlar asosida soliq imtiyozlari beriladi?
2. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kimning qarori bilan soliq imtiyozlari taqdim etiladi?
3. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilarini soliq kodeksiga muvofiq qanday imtiyozlardan foydalanadilar?
4. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq imtiyozlarining amal qilish muddati qachondan boshlanadi?
5. Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqlimi?

6.3. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solish tartibi

Umumiy qoidalar

Mahsulot taqsimotiga oid bitim shartnomaga bo‘lib, bu shartnomaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko‘rsatilgan yer qa’ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutlaq huquqlar beradi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimda quyidagilar nazarda tutiladi:

- hisob yuritish va hisobot berish tartibi;
- soliq solish va boshqa to‘lovlarini to‘lash shartlari;
- chet ellik investorning ulushini olib chiqish tartibi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Chet ellik investor, bundan mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno, mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida soliq kodeksining

17-moddasida nazarda tutilgan soliqlarni to‘laydi.

Mazkur nazarda tutilgan soliqlar, agar mahsulot taqsimotiga oid bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

- 1) foyda solig‘i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromad bo‘yicha va faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha olingan daromad bo‘yicha alohida-alohida to‘lanadi. Bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo‘lgan, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymati mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromadlar bo‘yicha foyda solig‘i solish obyektiidir;

2) mineral xomashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kavlab olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo'lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajaruvchi operator soliq majburiyatlarini bajaruvchi bo'ladi. Bunda litsenziya olgan investor bir oylik muddatda soliq organini mazkur birlashmadan soliq majburiyatini bajaruvchi bo'lib ish yuritadigan ishtirokchi to'g'risida xabardor etishi shart.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Mahsulot taqsimotiga oid bitim chet ellik investorga qanday huquqlarni beradi?
2. Mahsulot taqsimotiga oid bitimda nimalar nazarda tutiladi?
3. Chet ellik investor mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida qanday soliqlarni to'laydi?
4. Chet ellik investorga soliq solish qanday xususiyatlarni inobatga olingan holda amalga oshiriladi?
5. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo'lsa, soliq majburiyatlarini kimga yuklatiladi?

6.4. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Advokatlarga soliq solish

Advokatlar hay'ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari faoliyatning notijorat tashkilotlar sifatida advokatlar tomonidan huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq qismi bo'yicha soliqlar va yig'imlar to'lashdan ozod qilinadi, bundan quyidagilar mustasno:

- bojxona to‘lovlari;
- ijtimoiy soliq;
- avtotransport yig‘imi;
- to‘lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar.

Advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda (yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘limgan) soliqlar va yig‘imlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda to‘lanadi.

Advokatlar daromadlariga soliq solish

Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun olinadigan gonorarlar summalariga nazarda tutilgan xususiyatlар hisobga olingan holda, soliq kodeksining XIII bo‘limida belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

Advokatning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solish obyektiidir.

Advokatning daromadi advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun olingan summa bilan advokatlar hay’atlarini, advokatlik firmalarini va advokatlik byuolarini saqlab turish uchun o’tkaziladigan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi advokatning daromadidan uning daromadida hisobga olinadigan ijtimoiy to‘lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Notijorat tashkilotlar - sifatida advokatlar tomonidan huquqiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq qismi qanday tartibda soliqqa tortiladi?
2. Advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari qanday soliqlar va yig‘imlarni to‘laydilar?
3. Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun olinadigan gonorarlarga qanday soliq solinadi?
4. Advokatning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solish obyekti qanday aniqlanadi?

6.5. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solish

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, Soliq kodeksida belgilangan tartibda solqlarni to‘lovchilar hisoblanadi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar mehnatga haq to‘lash tarzida olinadigan daromadlar bo‘yicha belgilangan stavkalar bo‘yicha ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘laydi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius zimmasiga xodimlarning mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini va ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lash majburiyati yuklatiladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar notarial xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning foydasiga soliq solish

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar foyda solig‘ini ushbu Kodeksda belgilangan stavka bo‘yicha to‘laydi. Bunda foyda solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va to‘lash

yiliga bir marta, hisobot davridan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Foya solig‘ini hisoblab chiqarishda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi soliq kodeksining 43-bobida nazarda tutilgan daromadlarning barcha turlari notariuslarning daromadlari deb e’tirof etiladi.

Notarial faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar chegiriladigan xarajatlar jumlasiga kiritiladi. Bunda chegirilmaydigan xarajatlar soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq aniqlanadi.

Foya solig‘i to‘langanidan keyin xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariusning tasarrufida qolgan foya soliq solish maqsadida dividendlarga tenglashtiriladi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarni soliqqa tortish tartibi qanday amalga oshiriladi?
2. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning mehnatga haq to‘lash tarzida olinadigan daromadlaridan qanday tartibda soliq undiriladi?
3. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchisi hisoblanadimi?
4. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar foyda solig‘ini qanday tartibda va qachon to‘laydilar?

6.6. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini soliqqa tortish tartibi

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

yuridik shaxslar e’tirof etiladi:

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari deb bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan

- qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi va uni birlamchi qayta ishlovchi, basharti bunday yuridik shaxsning jami daromadida o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotini, shu jumladan uni o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlashdan olingan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadining ulushi soliq davridagi jami daromadning kamida 80 foizini tashkil etsa;

- yer uchastkalariga ega bo‘lgan, bu yer uchastkalari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lsa.

Soliq undirish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jumlasiga biologik resurslardan (hayvonlar va o‘simliklardan) olingan quyidagi mahsulotlar kiradi:

- 1) qishloq va o‘rmon xo‘jaligi o‘simlikshunosligi mahsulotlari;
- 2) chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik mahsulotlari;
- 3) ipakchilik mahsulotlari;
- 4) baliqchilik mahsulotlari va suvda yetishtiriladigan ekinlar.

Sanoatda qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsuloti soliq undirish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsuloti deb e'tirof etilmaydi.

**Qishloq xo'jaligi tovar
ishlab chiqaruvchilarini
soliqqa tortish jarayoni**

2020 yil 1-yanvardan yagona yer solig'i bekor qilindi, shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari umumbelgilangan soliqlar va aylanmadan soliq to'lashga o'tkazildi (agar yillik aylanmasi 1 mld. so'mdan kam bo'lsa).

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari umumbelgilangan soliqlar yoki aylanmadan soliq to'lashdan qat'iy nazar:

Yer solig'i qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ qiymatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Soliq stavkasi 0,95 foiz.

Soliq solinmaydigan yerlar:

- yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanimayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga;
- qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtidan e'tiboran besh yil mobaynida;
- melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;
- yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanimishidan qat'i nazar, uch yil muddatga.

Mol-mulk solig'i (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lган mol-mulkiga soliq solinmaydi).

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rangan yerlarni yuvish uchun foydalanimish, suvdan foydalinish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rлarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslariga soliq solinmaydi).

Umumbelgilangan soliqlardan quyidagilarni to'laydi:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- foya solig'i (Soliq kodeksining 57-moddasida nazarda tutilgan

talablarga javob beradigan qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilari va baliq xo‘jaligi korxonalari uchun ular tomonidan o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari realizatsiyasidan olgan foydasi bo‘yicha belgilangan 0 foizli stavka bo‘yicha).

Aylanmadan olinadigan soliq (agar yillik aylanmasi 1 mlrd so‘mdan kam bo‘lsa). Soliq stavkasi 4 foiz. Aylanmadan olinadigan soliq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari maydoni 50 hektar va undan ko‘p bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga tatbiq qilinmaydi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari deb kimlar e’tirof etiladi?
2. 2020 yil 1-yanvardan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini soliqqa tortishda qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?
3. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yer solig‘i qanday tartibda hisoblanadi ?
4. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yer solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar taqdim etilgan?
5. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun aylanmadan olinadigan soliq qanday tartibda qo‘llaniladi?

VII BOB. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKASTIYA TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

7.1. Davlat soliq xizmati organlari tizimida foydalanan layotgan yuridik shaxslarga oid dasturiy mahsullar

Yuridik shaxslarga oid amaliyotda qo'llanilayotgan dasturiy mahsullar va interaktiv xizmatlarni joriy qilinishi hamda ahamiyati


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 4 avgustdagи «Soliq to'lovchilarga axborot xizmati ko'rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini yanada takomillashtirish» to'g'risidagi 157-sonli qarori qabul

qilingan bo'lib, ushbu qaror Davlat soliq xizmati organlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda soliq to'lovchilarga axborot xizmatlar ko'rsatishni yanada takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy hisobotlar va hisob-kitoblar taqdim etishda elektron hujjat aylanishini joriy etish maqsadida qabul qilingan. Ushbu qaror bilan 2006-2010 yillarda soliq to'lovchilarga axborot xizmati ko'rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini takomillashtirish dasturi tasdiqlangan. Dasturning 4.1-bandida Modem aloqasi apparatlari bilan ta'minlangan, axborot saqlash qurilmalarining ishonchligi, sig'imi bo'yicha ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan serverlar bilan qo'shimcha ravishda jihozlash (serverlar va modemlar sotib olish, shuningdek, Davlat soliq qo'mitasining markaziy apparati binosida klaster tizimini yaratish) belgilangan.

Bugungi kunda soliqlar va soliq tizimiga oid yaratilgan interaktiv xizmatlarning 12 tasi elektron shakldagi ma'lumotlarni to'liq ayirboshlashni amalga oshirsa, 13 tasi ikki tomonlama axborot ayirboshlashni, 8 tasi esa bir tomonlama o'zaro hamkorlik shaklida taqdim etiladi. Xususan 2013-yilda "Yakka tartibdagi tadbirkorlardan

hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash”, “Soliq qarzi mavjud emasligi to‘g‘risida elektron ariza orqali ma‘lumotnomalar berish” va “O‘z biznesingni yarat” kabi interaktiv xizmatlar joriy etildi. Bu xizmatlardan aholi va tadbirkorlar bugungi kunda keng foydalanayotgani kuzatilmoqda.

2013-yil yakuniga ko‘ra soliq to‘lovchilarining 91 foizi soliq hisobotlarini elektron ko‘rinishda taqdim etgan, joriy yilning birinchi choragi yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 97 foizga yetdi. 2015-yil 1-yanvardan boshlab xo‘jalik yurituvchi subyektlari 100 foiz miqdorida soliq hisobotlarini elektron ko‘rinishda taqdim etishi yo‘lga qo‘yildi. Qo‘mita tomonidan ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar natijasida qog‘oz, transport va pochta xarajatlari kamayishi hisobiga soliq to‘lovchilarining 2010-yilda 50 million so‘m mablag‘lari tejaldi 2011-yil davomida bu ko‘rsatkich, 84 million so‘mga ko‘paydi, 2012-yilga kelib esa soliq to‘lovchilarining 250 million so‘m mablag‘lari tejilib 2013-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 275 million so‘mni tashkil etdi 2014-yil boshidan buyon esa 120 million so‘m mablag‘i tejaldi hamda Soliq to‘lovchilarining o‘z ixtiyorlarida qoldi bu esa soliq to‘lovchilarining rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etadi.




7.1.1-rasm. Tejalgan mablag'lar mln. so‘mda³⁰

³⁰ www.soliq.uz sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Ushbu rasm orqali ko‘rinib turibdiki, Davlat soliq qo‘mitasining www.soliq.uz rasmiy sayti orqali soliq to‘lovchilarining interaktiv xizmatlaridan foydalanishi natijasida ularning mablag‘larini tejalishini yillar kesimida ko‘rishimiz mumkin soliq to‘lovchilarining tejalgan mablag‘lari ularning ixtiyorida qoldirilib o‘zlarining rivojlanishiga sarflanadi bu esa mamlakatimizni rivojlanishida bir turtki bo‘ladi, chunki olib qaraydigan bo‘lsak interaktiv xizmatlar joriy etilmasdan avval soliq to‘lovchilarining chiqimlarini ko‘pligi yo‘l uzoqligi transport muammosi vaqtlearning yo‘qotilishi ish unumdorligini kamaytirib yuborardi endi esa hozirgi vaqtida Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar naijasida ish unumdorligi va transportga ehtiyoj kamayganini mablag‘larning tejalganini hamda inson aralashuvi omilini kamayganligida ijobiy rol o‘ynaydi, hamda soliq inspektorining ham ortiqcha vaqtini olmaydi soliq inspektori o‘zining ortib qolgan vaqtida o‘zining boshqa ishlarini amalga oshirishi mumkin.

Shu jumladan, o‘tgan yilda 248,7 tonna, joriy yil boshidan beri 104,7 tonna qog‘oz iqtisod qilindi.



7.1.2-rasm. Iqtisod qilingan qog‘ozlar³¹

³¹ www.soliq.uz sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Ushbu rasm orqali ko‘rinib turibdiki soliq to‘lovchilarning “elektron soliq hisobotlarini” yuborishlari natijasida 2013-yil va 2014-yilning hozirgi davriga qadar 353,4 tonna qog‘oz iqtisod qilindi, korxona va tashkilotlarning qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojlari kamaymoqda.

Darhaqiqat, interaktiv xizmatlar tufayli tadbirkorlik subyektlari faoliyatining erkinligi to‘la ta’milanayapti. Chunki bugungi tadbirkor internet orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish rejjadvalini kuzatib borib, korxonasida qachon va kim tomonidan tekshirish o‘tkazilishini aniq biladi. Tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida soliq va moliyaviy hisobotlarni elektron ko‘rinishda taqdim etish xizmati yo‘lga qo‘ylgan. Buning uchun qo‘mita saytida me’yoriy hujjatlar va “Elektron hisobot” yo‘riqnomasi, “Elektron raqamli imzoga ega bo‘lish” tartibi joylashtirilgan. Hisobotlarning elektron aloqa tarmoqlari orqali topshirilishida axborot xavfsizligini ta’minalash uchun elektron raqamli imzoning mavjudligi talab etiladi. Chunki elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjat imzolangan rasmiy hujjat maqomiga tenglashtirilgan. 2012-yil 1-avgustdan boshlab elektron raqamli imzo kalitini ro‘yxatga olish va elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini berish bo‘yicha xizmatlar haqi miqdori eng kam ish haqining 20 foizidan 10 foiziga pasaytirilgani tadbirkorlar uchun yaratilgan yana bir qulaylik bo‘ldi.

Davlat soliq qo‘mitasi ning ma’lumotlar yagona axborot bazasi

2011-yil boshidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi investitsiya dasturi

to‘g‘risida”gi PQ-1455-sonli qaroriga muvofiq, davlat soliq xizmati organlarining Ma’lumotlarni qayta ishlash va soliqqa oid axborotlarni saqlash markazini yaratish ishlari olib borildi. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 2-maydag‘i “Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga axborot xizmatlarini ko‘rsatishni yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qaroriga ko‘ra, “Davlat soliq xizmati organlarining yagona ma’lumotlar bazasini yaratish va soliq to‘lovchilarga axborot xizmatlarini ko‘rsatishni yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari” tasdiqlandi.

Belgilangan vazifalarning davlat soliq xizmati organlari tomonidan to'liq, sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash bo'yicha, Davlat soliq qo'mitasining 2011-yil 7-maydagi 128-sonli buyrug'i bilan kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Rejaga asosan, davlat soliq xizmati organlarining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirishi rejalashtirildi.

- Davlat soliq xizmati organlarining mavjud axborot tizimlarini o'rganish va yagona ma'lumotlar bazasini yaratish uchun dastlabki ko'rsatkichlarni aniqlash;

- "Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlarni qayta ishslash va soliqqa oid axborotlarni saqlash Markazini yaratish" investitsion loyihasini amalga oshirish;

- Hududiy davlat soliq xizmati organlarining ma'lumotlar bazalarini davlat soliq xizmati organlarining yagona ma'lumotlar bazasiga birlashtirish;

- Davlat soliq xizmati organlarining yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish va foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlash.

Shu bilan birgalikda, rejaga asosan, moliyaviy, soliq hisobotlari va soliq majburiyatlar bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga elektron hujjat ko'rinishida taqdim etish tizimini takomillashtirish, moliyaviy va soliq hisobotlarini elektron ko'rinishda taqdim etish va qabul qilish bo'yicha dasturiy mahsullarni takomillashtirish, avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni elektron hujjat ko'rinishida taqdim etishning afzalliklarini keng yoritish hamda davlat soliq xizmati xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar belgilandi.

Davlat soliq xizmati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga muhim ahamiyat berilmoqda. Davlat soliq qo'mitasi hay'atining 2010-yil 16-dekabrdagi 12/1-sonli qarori bilan Davlat soliq xizmati organlarida "2011-yil Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soliq organlarini yanada modernizatsiya qilish yili" deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan, amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, 2010-yil 21-dekabrda tasdiqlandi. Shuningdek, Davlat soliq

qo‘mitasida “2011-yil Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soliq organlarini yanada modernizatsiya qilish yili” doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar dasturi 2011-yil 23-yanvarda tasdiqlandi. Davlat soliq xizmati organlarida axborotlarni uzatish tizimining shakllanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-dekabrdagi “Davlat soliq qo‘mitasining global axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi 580-sonli qaroriga binoan barcha hududiy soliq idoralarida yo‘ldosh aloqasi tizimi o‘rnatilib, korporativ axborot-tarmog‘i tashkil etilgan. Tizimda joriy qilingan korporativ axborot-tarmog‘i orqali soliqqa oid va boshqa xizmat ma’lumotlari uzatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, barcha soliq idoralarida ichki lokal tarmoq yaratilgan bo‘lib, ular qo‘mitaning yagona korporativ axborot tarmog‘iga ulangan. Ushbu lokal tarmoqlarning asosiy vazifasi – maxsus dasturiy mahsullar yordamida soliq inspeksiyalaridagi ma’lumotlarni serverlarda yig‘ish, qayta ishslash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun soliq xizmati organlari xodimlariga imkoniyat yaratib berishdan iboratdir. Davlat soliq qo‘mitasining korporativ axborot tarmog‘i ishga tushirilgandan buyon o‘tgan yillar mobaynida uzatilayotgan axborot hajmi yil sayin o‘sib borayotganligi sababli, Davlat soliq xizmati organlarida mahalliy va korporativ kompyuter tarmoqlarini yanada takomillashtirish maqsadida, 2009-yildan boshlab korporativ aloqa kanali tarmog‘ini modernizatsiya qilish va yerusti kanallariga o‘tkazilish ishlari olib borilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlar Davlat soliq boshqarmalari va ulardagi 194 ta tuman (shahar) Davlat soliq inspeksiyalarida optik tolali aloqa jihozlari o‘rnatilib, ishga tushirilgan. Hozirgi paytda barcha DSQ Markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari, hududiy davlat soliq boshqarmalari va davlat soliq inspeksiyalari hamda Davlat soliq qo‘mitasiga qarashli o‘quv yurtlari va muassasalari mahalliy va korporativ kompyuter tarmoqlariga ega. Korporativ aloqa tarmog‘ini yerusti kanallariga o‘tkazilishi munosabati bilan hududiy Davlat soliq inspeksiyalarida ma’lumotlarni uzatish tezligi qariyb 35 marotabaga va hududiy soliq boshqarmalarida esa 71 marotabaga o‘sdi. Natijada hududiy soliq xizmati idoralarida soliqlar

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uzatish – qabul qilishda yo‘ldosh aloqa tarmog‘ining imkoniyatlari chegaralanganligi (3,6 kbit/sek) va ob-havo sharoitlarining tarmoq jihozlariga salbiy ta’siri kabi noqulayliklardan xalos bo‘lindi. Yangi aloqa tarmog‘i orqali soliq to‘lovchilarga elektron raqamli imzo berish va hisobotlarni elektron ko‘rinishda qabul qilish, interaktiv xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari jadallahshdi. Yangi korporativ aloqa tarmog‘i joriy etilishi bilan davlat soliq boshqarmalardagi lokal axborot tarmog‘iga ulangan barcha kompyuterlarda virus hujumlarini aniqlash va ular ustidan monitoring olib borish tizimi yaratildi.

**Davlat soliq xizmati
organlarida yuridik
shasxlarni soliqqa
tortishga doir dasturiy
mahsullar turlari va
mohiyati**

Davlat soliq xizmati organlarida soliq ma’murchiligin avtomatlashtirish Davlat soliq xizmati organlarida soliq ma’murchiligin avtomatlashtirish, idoralararo elektron ma’lumot ayirboshlash ulushini kengaytirish maqsadida, davlat soliq xizmati organlariga ma’lumotlar taqdim etuvchi idoralar bilan ma’lumotlarni elektron ayirboshlash kanallari tashkil etilgan. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Markaziy banki, Ichki ishlar vazirligi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo‘mitasi, hokimiyatlar huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari bilan axborotlarni elektron ko‘rinishda ayirboshlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. 2011-yil boshidan yuqorida ko‘rsatilgan idoralardan 40,6 gigabayt hajmida axborotlar elektron ko‘rinishida qabul qilingan. Soliq ma’murchiligini takomillashtirish, qog‘ozsiz hujjat almashinuvini joriy etish va Davlat soliq xizmati organlari ishining samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘ttizga yaqin dasturiy mahsullar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi: “Soliq hisobotlarini Online va Offline rejimlarda elektron ko‘rinishda yuborish”, “Elektr energiyasi bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik hisobini yuritish”, “Yuridik shaxslarning soliq qarzlarini hisobini yuritish”, “Tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirish”, “Yakka tadbirkorlarda tekshirishlar hisobini yuritish”, “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish”, “Ma’muriy amaliyotni

hisobga olish”, “Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish”, “Kadrlarga oid ma’lumotlar bazasi”, “Interaktiv xizmatlar” va boshqa dasturiy mahsullar. 1993–2000-yillarda soliq to’lovchilarni hisobga olish, ularning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg’armalar bilan o’zaro munosabatlari hisobini yuritish ishlari qog’oz shaklida, ya’ni maxsus daftarlar, kitoblar va jurnallarda amalga oshirilgan bo’lsa, dasturiy mahsullar joriy etilishi bilan ushbu jarayonlar tarixga aylandi. Soliq ma’murchiligining asosiy ish uchastkalarini bosqichma-bosqich avtomatlashtirilishi qog’oz shaklidagi hujjat aylanishidan deyarli voz kechishga imkon berdi.

Birgina, “Yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy mahsuli amaliyotga joriy etilgandan so‘ng, har yili o’rtacha 251,3 mln.so’mlik qat’i blankalarga buyurtma berilishi bekor qilindi. Masalan, aholidan soliq to’lovlarini naqd pulda qabul qilish uchun ishlatiladigan umumiyligi qiymati 102,7 mln.so’mlik jami 4,5 mln. dona 5-shakl patta blankalari, jismoniy shaxslarni soliq to’lovchi sifatida ro’yxatga olish uchun ishlatiladigan 11,3 mln.so’mlik jami 1,3 mln.dona 01-shakl blankalari, yuridik shaxslarning STIR ma’lumotlariga o’zgartirish kiritish uchun ishlatiladigan 4,7 mln.so’mlik jami 550 ming dona 03-shakl blankalari, mol-mulk, yer va suv soliqlari to’lovchilarni hisobga olish uchun ishlatiladigan 94,6 mln.so’mlik jami 100 ming dona 09-shakl blankalari, 38 mln.so’mlik jami 40 ming dona jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlarini yuritish kitoblari va boshqa ish qog’ozlari bekor qilindi. Shu bilan birga, soliq ma’murchiligi jarayonlarining avtomatlashtirilishi nafaqat moddiy resurslarning tejalishiga, balki vaqt sarf-xarajatlarining ham iqtisod qilinishiga imkon yaratdi. Jumladan, soliq tushumlari haqidagi bank ma’lumotlarining 95 foizi “Bank-DSI” dasturiy mahsuli orqali soliq to’lovchilarning shaxsiy kartochkalariga avtomatik ravishda kiritilmoqda va ushbu jarayonga ilgari 8-10 soat sarflangan bo’lsa, hozirda 4-5 daqiqa talab qilinmoqda. Respublika bo’yicha tekshirishlarni muvofiqlashtirish ishlari bilan shug’ullanuvchi 242 nafar xodimlar bir yilda o’rtacha hisobda jami 8716 soat ish vaqtini sarflagan bo’lsa, “Tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirish” dasturiy mahsuli amaliyotga joriy etilgandan keyin bu

vaqt sarfi 1075 soatni tashkil etdi yoki jami xodimlarning 7641 soat ish vaqtı tejaldi. Shuningdek, dasturiy mahsul tekshirishlar reja-jadvalini amaldagi qonun hujjatlari talablariga mos holda ishlab chiqish, tekshirishlar o'tkazilishining tezkor monitoringini olib borish imkonini berdi. So'nggi yillarda naqd pul tushumlari to'g'risida tezkor ma'lumotlarni qabul qilib, hududlarga avtomatik ravishda jo'natuvchi "Naqd pul tushumlari hisobini yuritish" dasturiy mahsuli, "Soliq deklaratsiyalarini elektron tarzda topshirish" dasturiy mahsuli, byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga tushayotgan tushumlar haqida tezkor ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri optik tolali aloqa kanali orqali tijorat banklaridan olish, ularni real vaqtning o'zida kuzatish va guruhlash hamda hisobotlar tayyorlash jarayonini to'liq avtomatlashtiruvchi "Bank-DSQ" kabi dasturiy mahsullari yaratildi va amaliyotga joriy etildi. "Bank-DSQ" dasturiy mahsulni amaliyotga joriy etish bilan ma'lumotlar himoyalangan optik tolali aloqa kanali orqali to'g'ridan-to'g'ri tijorat banklaridan "On-Line" rejimida olinishi yo'lga qo'yilib, ma'lumotlarni banklardan olish va tahliili hisobotlar tayyorlash jarayoni to'liq avtomatlashtirildi. Bundan tashqari, "Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritish 1-N" dasturiy mahsuli joriy etilishi bilan, Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kunlik tushumlar hisobini yuritish ishlari avtomatlashtirildi. Soliq turi bo'yicha viloyatlar, tumanlar, vazirliklar hamda soliq to'lovchilar kesimida tezkor hisobotlar olish va nazorat qilish imkoniyati yaratilib, hisobotlarni tayyorlashga ilgari sarflangan ish vaqtı o'rtacha 25-30 foizga qisqardi. 2011-yilning birinchi choragi davomida davlat soliq organlarida soliq to'lovchilarning soliq majburiyatları hisobini yuritish ishlarini avtomatlashtiruvchi, ularning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirib, hisobot va statistik ma'lumotlarini olish imkoniyatini beruvchi "Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-4)" dasturiy majmuasi respublikaning barcha davlat soliq inspeksiyalariiga joriy etildi. Shuningdek, byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga qarzi mavjud bo'lgan soliq to'lovchilarning hisob raqamiga inkasso topshiriqnomalarini elektron ko'rinishda qo'yish va ijrosini nazorat

qilish borasida “Soliq qarzini elektron inkasso topshiriqnomalari orqali undirish” dasturiy mahsuli ishgaga tushirildi.

Dasturiy mahsul amaliyatga joriy etilgunga qadar respublika bo‘yicha inkasso topshiriqnomalarini qo‘yish uchun 1,5 mingga yaqin soliq inspektorlari jalb qilingan bo‘lsa, bugungi kunda bu ishlarni har bir inspeksiyada 1 kishi uddalamoqda va taxminan 1,3 ming nafar xodimlarning ish hajmi va vaqtiga tejaldi. 2010-yil davomida 3256 mingta inkasso topshiriqnomalarini chop etish uchun 6512 ming dona qog‘oz hamda printer texnikasi, butlovchi materiallar uchun 250 mln.so‘m xarajat qilingan bo‘lsa, inkasso topshiriqnomalarini chop etish ishlari qog‘oz ko‘rinishidan elektron ko‘rinishga o‘tkazilishi evaziga, 35-40 tonnadan iborat qog‘oz sarfi tejaldi. Inkasso topshiriqnomalarini banklarga tarqatish 3-4 kun vaqtini talab qilgan bir vaqtda dasturiy mahsul joriy etilishi bilan bu amallar uchun 10 daqiqa kifoya bo‘lmoqda. Ilgari inkasso topshiriqnomalari harakatini vertikal nazorat qilish imkoniyati bo‘lмаган, bugungi kunda esa ushbu ishlarni avtomatlashtirilib, DSIIlar, vazirliliklar hamda korxona-tashkilotlar kesimida nazorat qilish tizimi joriy etildi. Davlat soliq qo‘mitasi tashabbusi bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo‘jalik faoliyatini avtomatlashtirish orqali hisobotlarni soliq idoralariga elektron ko‘rinishda yuborish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, “BEM-buxgalterga elektron madad” nomli dasturiy mahsul joriy etildi. Soliq to‘lovchilarga qator qulayliklar yaratuvchi ushbu dastur muvaffaqiyat bilan amaliyatga joriy etilishi natijasida 2010-yilning 19-may kuni “Best Soft Uzbekistan – 2010” g‘oliblari qatorida e’lon qilingan bo‘lsa, 2011-yil 12-may kuni bo‘lib o‘tgan dasturiy mahsulotlar ko‘rgazmasida Davlat soliq qo‘mitasining “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi” dasturiy mahsuli “Best Soft Uzbekistan-2011” ko‘rgazmasining “Yilning eng yaxshi joriy etilgan dasturi” nominatsiyasi g‘olibni deb topilib, maxsus sovrin bilan taqdirlandi. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yaratilgan dasturiy mahsullar nafaqat yurtimiz, balki nufuzli xorijiy ekspertlar tomonidan ham yuqori baholanmoqda. 2010-yilda Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan bu yo‘nalishdagi ishlarni o‘rganilib, “Tekshirishlar” reja jadvalini

shakllantirish va bajarilishini nazorat qilish” dasturiy mahsulini qo’shni MDH davlatlarida amaliyatga tatbiq etish taklifi berilgan. 2011-yil boshidan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 29-dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2011-yilgi investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1455-sonli qaroriga muvofiq, davlat soliq xizmati organlarining Ma’lumotlarni qayta ishlash va soliqqa oid axborotlarni saqlash markazini yaratish ishlari olib borilmoqda.

Soliq ma’lumotlarini saqlash va qayta ishlash markazini yaratish yuzasidan “Tarmoq rejasi” ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2011-yil 12-fevralda tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-avgustdagagi 181-sonli “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to‘g‘risidagi Nizom, bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri tasdiqlangan.

Interaktiv xizmatlar ko‘rsatishdan maqsad, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish vositasida jismoniy va yuridik shaxslar bilan tezkor o‘zaro hamkorligini ta’minalash, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan keng foydalanishini ta’minalashdan iboratdir.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Davlat soliq xizmati organlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llagan holda soliq to‘lovchilarga axborot xizmatlar ko‘rsatishni yanada takomillashtirish qaysi hujjatga asosan amalga oshirilmoqda?

2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlariga qachondan boshlab soliq hisobotlarini elektron ko‘rinishda taqdim etishi yo‘lga qo‘yildi?

3. Davlat soliq xizmati organlarida yagona ma’lumotlar bazasini yaratish qachondan boshlab, qaysi hujjatga asosan amalga oshirilmoqda?

4. Davlat soliq xizmati organlariga ma’lumotlar taqdim etuvchi qaysi idoralar bilan ma’lumotlarni elektron ayrboshlash kanallari tashkil etilgan?

5. Davlat soliq xizmati organlari yagona ma’lumotlar bazasini yaratish bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirishi rejalashtirilgan?

7.2. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar

Hozirgi kunda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmat turlari joriy etilgan va ular rasmiy www.my.soliq.uz web portalida joylashtirilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan joriy etilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish uchun barcha soliq to‘lovchilarga keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratilgan.

7.2.1-jadval

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlari turlari

Soliq organlari haqida
 <p>Davlat soliq qo‘mitasining maqomini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat soliq qo‘mitasi tuzilmasi, rahbarlar tarkibi, funksiyalari, vazifalari, vakolatlari hamda asosiy faoliyati</p> <ul style="list-style-type: none">- Davlat soliq xizmati organlarining tuzilmasi, tarkibi, funksiyalari va asosiy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etish- Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish- Davlat soliq xizmati organlariga ishga kirish uchun elektron rezyume qabul qilish

	<p>Jismoniy va Yuridik shaxslarning murojaatlari</p> <p>Mazkur xizmat jismoniy va yuridik shaxslarni davlat soliq xizmati organlariga murojaatlarini jo'natish uchun mo'ljallangan. Xat yozish va jo'natish uchun elektron raqamli imzoga ega bo'lish kerak. Mazkur xizmat yordamida yuborilgan murojaat soliq organlari tomonidan rasmiy deb qabul qilinadi va belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan murojaatni yuborish - Yagona portal orqali murojaatni yuborish - Kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish ahvoli yuzasidan ma'lumot taqdim etish
	<p>Elektron qabulxona</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Raisi, Rais o'rinosarlari, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy davlat soliq xizmati organlari rahbarlari qabuliga yozilish imkoniyatini taqdim etish</p> <ul style="list-style-type: none"> - Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari qabuliga yozilish - Davlat soliq xizmati organlari rahbarlari qabuliga Yagona portal orqali yozilish
	<p>Normativ-huquqiy hujjatlar</p> <p>Soliqqa tortish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, soliqqa tortish masalalariga taaalluqli O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan ma'muriy hujjatlar, soliq organlari tomonidan boshqa vazirliklar bilan birga ishlab chiqilgan ma'muriy hujjatlar, soliqqa tortish bo'yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida ommabop ma'lumot taqdim etiladi.</p>
	<p>Soliq organlarining rasmiy tushuntirishlari</p> <p>Ushbu xizmat orqali soliq to'lovchilarining soliq solish masalalariga oid murojaatlari va ularga davlat soliq xizmati xodimlari tomonidan beriladigan rasmiy javoblari taqdim etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarining murojaatlari asosida berilgan rasmiy

	<p>tushuntirishlarini taqdim etish</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ko‘p uchraydigan savollarga javob berish - Soliq nizolari yuzasidan qabul qilingan Ekspert kengashi qarorlarini taqdim etish
	<p>Tekshirish reja-jadvalidan ko‘chirmalar</p> <p> Yuridik shaxslar uchun. Yuridik shaxs-soliq to‘lovchining “Shaxsiy kabineti”da ERI mavjud bo‘lgan taqdirda, mazkur yuridik shaxs uchun so‘rov bo‘yicha nazorat qiluvchi organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tekshiruvi reja-jadvalidan tegishli davr uchun ko‘chirma taqdim etiladi. Ushbu ko‘chirmada belgilab berilgan davrda tekshiruvlar reja-jadvalida tashkilotning mavjudligi (yoki mavjud emasligi), tekshiruvni o‘tkazish muddatlari hamda tekshiruvda ishtirok etayotgan nazorat qiluvchi organlar ro‘yxati haqida ma’lumot beriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yuridik shaxs uchun tekshirish reja-jadvalidan ko‘chirmalar taqdim etish - Nazorat qiluvchi organ uchun tekshirish reja-jadvalidan ko‘chirmalar taqdim etish
	<p>Bhudjet bilan o‘zaro hisob-kitoblar Soliq qarzi mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumotnomaga berish</p> <p> Yuridik shaxslar uchun. Yuridik shaxs-soliq to‘lovchining “Shaxsiy kabineti”da ERI mavjud bo‘lgan taqdirda, belgilab berilgan davrda shakllantirilgan solishtirish dalolatnomalari, shuningdek, mazkur yuridik shaxs uchun istalgan hisobot davriga soliq va to‘lovlar bo‘yicha shaxsiy hisobvaraq kartochkalaridan nusxa ko‘rinishida byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar bilan o‘zaro hisob-kitoblar to‘g‘risida ma’lumot taqdim etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yuridik shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha shaxsiy kartochkalaridan nusxa berish - Yuridik shaxslarga solishtirma dalolatnomalarini taqdim etish - Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash

	<p>bo‘yicha to‘lov topshiriqnomasini shakllantirish</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yuridik shaxsning soliq qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotni taqdim etish - Yuridik shaxsning asosiy bank hisob raqamini yopish uchun soliq qarzi yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi taqdim etish - Yuridik shaxsning ortiqcha to‘langan soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlari hisobga olish va qaytarish
	<p><u>Budjet bilan o‘zaro hisob-kitoblar Soliq qarzi mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi berish</u></p> <p><u>Jismoniy shaxslar uchun.</u> Jismoniy shaxs-soliq to‘lovchining “Shaxsiy kabinet”da mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, xususiy tadbirkorlarning soliqlari bo‘yicha berilgan sanaga shakllantirilgan shaxsiy kartochkalarning nusxalari ko‘rinishida o‘zaro hisob-kitoblar to‘g‘risida shaxsiy ma’lumot taqdim etiladi. ERI mavjud bo‘lgan taqdirda, soliqlar va to‘lovlardan bo‘yicha solishtirish dalolatnomalarini avtomatik tarzda shakllantirish amalga oshiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yicha shaxsiy kartochkalardan nusxa berish - Jismoniy shaxslarga solishtirma dalolatnomalarini taqdim etish - Jismoniy shaxslarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha to‘lov kvitansiyasini shakllantirish - Jismoniy shaxsning soliq qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotni taqdim etish - Yakka tartibdagi tadbirkorning asosiy bank hisob raqamini yopish uchun soliq qarzi yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi taqdim etish - Yakka tartibdagi tadbirkorning ortiqcha to‘langan soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlari hisobga olish va qaytarish
	<p><u>Jismoniy shaxslar soliqlari bo‘vicha maslahatchi</u></p> <p><u>Jismoniy shaxslar uchun.</u> Mazkur xizmat orqali jismoniy shaxslar yer va mol-mulk solig‘i, jismoniy</p>

	<p>shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqlar to'lash muddatlari, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Jismoniy shaxslarning soliqlari bo'yicha maslahatchi - Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Jismoniy shaxslarning yer solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Jismoniy shaxslarning suv resurslaridan foydalanish solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori - Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badalini hisoblash elektron kalkulyatori - Uchastka davlat soliq inspektorlari to'g'risida ma'lumot berish
	<p><u>Elektron soliq hisobotlari</u></p> <p>Yuridik shaxslar uchun. ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjat ko'rinishidagi soliq hisob-kitoblari va moliyaviy hisobotni qog'ozdagi nuxxalarini olmagan holda soliq to'lovchilar tomonidan avtomatlashtirilgan holda shakllantirish, jo'natish hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan qabul qilish.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Soliq solishning umumbelgilangan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotini yuborish - Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotini yuborish - Yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlarini yuborish - Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar bo'yicha soliq hisobotlarini yuborish
	<p><u>Elektron soliq deklaratsiyalari</u></p> <p>Jismoniy shaxslar uchun. ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjat ko'rinishidagi soliq deklaratsiyalarini qog'ozdagi nuxxalarini olmagan holda soliq</p>

	<p>to‘lovchilar tomonidan avtomatlashtirilgan holda shakllantirish, jo‘natish hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan qabul qilish</p>
	<p><u>Yakka tartibdagи tadbirkorlarning elektron hisobotlari</u></p> <p>Mazkur xizmat yakka tartibdagи tadbirkorlardan hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash uchun qaratilgan.</p>
	<p><u>Soliq to‘lovchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish - STIRni aniqlash</u></p> <ul style="list-style-type: none"> - Soliq to‘lovchilarni hisobga olish - Yuridik shaxslarning ro‘yxatga olish ma’lumotlarini taqdim etish - Jismoniy shaxslarning ro‘yxatga olish ma’lumotlarini taqdim etish - STIRni aniqlash va guvohnomasini shakllantirish - Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish bo‘yicha elektron arizalarni qabul qilish
	<p><u>Tovarlarni olib keluvchi tabdirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish</u></p> <p>“Tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo‘limgan yakka tartibdagи tadbirkorlarni internet tarmog‘i orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” interaktiv davlat xizmati O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali ko‘rsatiladi, unda tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo‘limgan yakka tartibdagи tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish internet tarmog‘i orqali amalga oshiriladi.</p>
	<p><u>Tashqi iqtisodiy faolivatni olib boruvchi soliq to‘lovchilarning arizalari</u></p> <ul style="list-style-type: none"> - Erkin muomaladagi valyutaga eksport qilinganda imtiyoz va preferensiylar berilishining asoslanganligi bo‘yicha ariza-ma’lumotnomasi qabul qilish - Chet elda ochilgan hisob raqamlardagi mablag‘lar

	<p>harakati bo'yicha axborot qabul qilish</p> <p>- Valyuta tushumiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotnomma qabul qilish</p>
	<p>Kichik biznes toifasiga mansubligi to'g'risidagi ma'lumotnomma berish</p> <p>- Soliq solish tartibini belgilash bo'yicha xulosalar berish</p> <p>- aylanmadan soliqni to'lash muddatini uzaytirish yuzasidan arizalarni qabul qilish</p> <p>- Kichik biznes toifasiga mansubligi haqida ma'lumotnomma taqdim etish</p>
	<p>Rezidentligini tasdiqlash</p> <p>Interaktiv xizmatidan foydalanganda, davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan Ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha xalqaro kelishuv qoidalarini qo'llash maqsadida murojaat qilgan yuridik yoki jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlari ekanliklarini tasdiqlab beradi.</p> <p>Xizmatdan foydalanish uchun elektron raqamli imzo bo'lishi shart.</p>
	<p>Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ro'yxatdan o'tkazish</p> <p>Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga orqali ro'yxatdan o'tkazish</p>
	<p>Soliq tekshiruvi natijalari</p> <p>Jismoniy shaxslar uchun. Jismoniy shaxs-soliq to'lovchining "Shaxsiy kabineti"da ERI mavjud bo'lgan taqdirda, xususiy tadbirkorlarning soliq tekshiruvlari natijalari to'g'risida shaxsiy ma'lumot taqdim etiladi.</p>
	<p>OQS to'lovchilari</p> <p>Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar to'g'risida Soliq kodeksi bilan ruxsat berilgan ma'lumotlarni elektron ko'rinishida taqdim etish.</p>

Kontragent haqidagi ma'lumot

Soliq to'lovchilar so'roviga asosan ular haqidagi ma'lumotlarni boshqa soliq to'lovchilarga taqdim etish. "Kontragent haqida ma'lumot" interaktiv xizmati soliq to'lovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda biznes-hamkorlar o'rtasida o'zaro ishonchni oshirish maqsadida ishlab chiqilgan

O'z biznesingni varat

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatishdan maqsad, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslarga zarur ma'lumotlar berish, ularga qulay shart-sharoit yaratish hamda ko'rsatilayotgan axborot xizmatlari sifatini oshirishdan iborat. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslar uchun o'z biznesini yaratish, yuritish, qayta tashkil qilish va tugatishga oid tegishli ma'lumotlar joylashtiriladi.

Imtiyozlар ma'lumotnomasi

Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning soliq imtiyozlari to'g'risida axborot taqdim etish. Mazkur xizmat Davlat soliq qo'mitasining www.soliq.uz rasmiy saytida soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlari to'g'risidagi axborotlarni taqdim etishga qaratilgan.

Soliq nizolarini ko'rib chiqish

Mazkur xizmat orqali soliq solish qonunchiligini amalda qo'llash jarayonida soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o'rtasida yuzaga kelgan o'ta murakkab va munozaralni masalalar hamda ushu nizoning yechimi yuzasidan Davlat soliq qo'mitasini huzuridagi Ekspert kengashi qarorlari taqdim etiladi.

Ko'p uchraydigan savollar

Mazkur xizmat orqali jismoniy va yuridik shaxslar soliq solish masalalariga oid eng ko'p uchraydigan savollar va ularga berilgan javoblar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



STIRingizni aniqlang

Jismoniy shaxslar uchun. Soliq to‘lovchiga o‘zining soliq to‘lovchining individual raqami (STIR)ni bilish imkonini taqdim etiladi. Soliq to‘lovchi (jismoniy shaxs) DSIda ro‘yxatdan o‘tkazish amalga oshiriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlari, ayrim faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalar, shuningdek, pul-hisob-kitob to‘lov hujjatlarida o‘z STIRni aniq yozishi shart.

Soliq to‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida, Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan “STIRingizni aniqlang” yangi interaktiv xizmati joriy etilgan va har bir jismoniy shaxs uchun o‘z STIRini mustaqil ravishda aniqlab olish imkoniyati yaratilgan.

Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, soliqqa oid ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishslash bo‘yicha kompyuter dasturiy mahsullarini amalga joriy etish maqsadida DSQning 2005-yil 5-avgustda “Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarni amalga joriy etish to‘g‘risida”gi 148-sonli buyrug‘i chiqdi. Buyruqda O‘zbekiston Respublikasi DSQ da ishlab chiqilayotgan dasturiy mahsullar bo‘yicha tuzilgan mas’ul ishchi guruh a’zolarining ro‘yxati hamda dasturiy mahsullar texnik topshiriqlarini ishlab chiqish, dasturiy mahsullarni ishlab chiqish va quyida keltirilgan dasturiy mahsullarni tajribaviy ishga tushirish muddatlari belgilab berildi.

Davlat soliq qo‘mitasining 2011-yil 1-martdagи “Davlat soliq qo‘mitasida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarni WEB texnologiyasi asosida takomillashtirish, ma’lumotlar bazasini Oracle platformasiga o‘tkazish va umumlashtirish chora-tadbirlar rejasи”га muvofiq, hamda 2012-yil 11-fevraldagи “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanishni tartibga solish hamda interaktiv Davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha reglamentlarni

tasdiqlash to‘g“risida”gi 64-sonli buyrug“iga asosan Davlat soliq xizmati organlarida joriy etilgan dasturiy mahsullarni takomillashtirish va birlashtirilishi natijasida dasturiy mahsullar joriy qilindi. Shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasining 2015-yil 12-iyulda “Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to‘g“risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 226-sonli buyrug“iga asosan quyidagi dasturiy mahsullar joriy qilindi.

7.2.2-jadval

Soliq solish bazasini kengaytirish,qo‘srimcha soliq solish obyektlarni aniqlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash, soliqdan ochish va shu kabi qo‘srimcha manbalarni aniqlashga xizmat qiluvchi dasturiy mahsullar ro‘yxati:

1.	“Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-4)” dasturiy majmuasi
2.	“Qayta ishslash va tahlil” dasturiy mahsuli
3.	“To‘lovlar monitoringi” dasturiy mahsuli
4.	“Eksport-import opertsiyalarini nazorat qilish” dasturiy mahsuli
5.	“Soliq to‘lovchilarning egaligidagi yer fondi (STEYEF)” dasturiy mahsuli
6.	“Tahlika tahlil” (“Risk analiz”) dasturiy mahsuli
7.	“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmuasi
8.	“Soliq deklaratsiyalarini qayta ishslash” dasturiy mahsuli
9.	“Bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haqlar va ijara to‘lovleri hisobini yuritish va nazorat qilish” dasturiy mahsuli

Barcha qayd etilgan dasturiy mahsullar soliq tizimining barcha bosqichlarida muvaffaqiyat bilan qo‘llanilib kelinmoqda hamda mutaxassislar tomonidan yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinib, takomillashtirilib borilmoqda.

Ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ro'yxatga olish, soliq to'lovchilar va soliq obyektlari hisobini yuritish hamda statistik ma'lumotlarni tayyorlash ish jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ro'yxati

1.	“Davlat byudjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish (1-N)”
2.	“Bank-DSQ”
3.	“Jamg‘arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishslash”
4.	“Kompyuter texnikasini hisobga olish tizimi”
5.	“Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarni foydalanish darajasini aniqlash”
6.	“Davlat soliq xizmati organlarida interaktiv xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha mas’ul xodimlar hisobini yuritish”
7.	“Soliq to‘lovchilar tarixi”
8.	“Interaktiv xizmatlardan foydalanish statistikasi”
9.	“Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlarini hisobini yuritish”
10.	“Soliq qarzini yuritish hisoboti”
11.	“Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish”
12.	“Elektron tarzda yuborilgan hisobotlarini qabul qilish (WEFOINS)”
13.	“Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarni tugatish tartibi”
14.	“Yuridik shaxslar bo‘yicha statistik ma'lumot”
15.	“Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini aniqlash”
16.	“Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish”
17.	“Yakka tartibdagisi tadbirkorlardan hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishslash”
18.	“Davlat boji”
19.	“Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar haqida ma'lumot”

20.	“Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish”
21.	“Tekshiruvchi xodimlarning xizmat safari hisobini yuritish”
22.	“Nazorat kassa mashinalarini ro‘yxati va nazoratini olish”
23.	“Naqd pul tushumlari hisobini yuritish”
24.	“Ma’muriy amaliyotni hisobga olish”
25.	“Moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo’llash to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlarining murojaatlari va ularning natijalarini hisobini yuritish”
26.	“Tekshirishlarni muvofiqlashtirish”
27.	“Ichki idoraviy hujjatlar elektron axborot tizimi”
28.	“Hujjatlar bajarilishini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi”
29.	“Kadrlarga oid ma’lumotlar bazasi”
30.	“Quyi davlat soliq xizmati organlari faoliyatini masofadan turib nazorat qilish tizimi”

Yuqorida qayd etilgan dasturiy mahsullar soliq tizimining barcha bosqichlarida, shu jumladan, soliq tizimi o‘quv muassasalarining o‘qitish tizimini takomillashtirish maqsadida DSQ ning 2007-yil 29-iyundagi 153-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv jarayoniga joriy qilindi. O‘quv jarayonida bo‘lg‘usi mutaxassislar soliq tizimida axborotlarni ishslash va tahlil qilishning yagona kompyuter tizimida ishlatiladigan dasturiy mahsullarni ishlatish texnologik jarayonlarini o‘rganadilar. Shu bilan birgalikda, tizimning ma’lumotlar bazasidagi axborotlardan foydalanish hamda SIAIJda ishslash asoslарini o‘rganib, hamda kelajakda bu dasturiy mahsullardan erkin foydalana olish imkonini beradigan bilimlar olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Davlat soliq xizmati organlarining interaktiv xizmatlar ko‘rsatish maqsadlarini asoslab bering?

2. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilar uchun yaratilgan interaktiv xizmat turlari qaysi rasmiy saytlarga joylashtirilgan?
3. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan qanday interaktiv xizmatlar turlarini bilasiz?
4. Davlat soliq xizmati organlarida joriy etilgan dasturiy mahsullar soliqlarni undirish jarayonida qanday qulayliklarni keltirib chiqardi?
5. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining afzal jihatlarini sanab bering?
6. Soliq to‘lovchilar uchun yaratilgan interaktiv xizmat turlaridan foydalanish jarayoni qanday nazorat qilib boriladi?

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

1. To‘lovlar
2. Soliqlar
3. Soliqqa tortish
4. Davlat byudjeti
5. Soliq to‘lovchilar
6. Davlat soliq xizmati
7. Soliq tizimi
8. Soliqli va soliqsiz to‘lovlar
9. Byudjet daromadlari
10. Yuridik shaxs
11. To‘g‘ri soliqlar
12. Egri soliqlar
13. Inflyatsiya
14. Soliq tamoyillari
15. Soliq tizimi
16. Jarima va penyalar
17. Dalolatnoma
18. Eksport-import
19. To‘lov xabarnomasi
20. Foyda solig‘i
21. Soliq stavkasi
22. Soliq obyekti
23. Soliq subyekti
24. Rezident
25. Soliq imtiyozlari
26. Soliqni to‘lash muddatlari
27. Yalpi daromad va yalpi tushum
28. Mikrofirma va kichik korxona
29. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari
30. Tovar oboroti
31. Qo‘silgan qiymat
32. Nollik stavka
33. Bojxona yuk deklaratsiyasi
34. Schyot-faktura
35. Aksiz solig‘i
36. Aksiz to‘lanadigan tovarlar
37. Sharhnomaviy narx

38. Korxona mol-mulki
39. Mol-mulk solig‘i
40. Mol-mulklar qiymati
41. O‘rtacha yillik qoldiq qiymat
42. Muddatida o‘rnatilmagan asbob-uskunalar
43. Yer maydonlari
44. Sug‘oriladigan yerlar
45. Sug‘orilmaydigan yerlar
46. Norezident
47. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
48. Deklaratsiya
49. Suv resurslari
50. Yerosti suvlari
51. Yerusti suvlari
52. Yerosti qazilma boyliklari
53. Texnogen hosilalar
54. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
55. Yig‘im
56. Byudjetning soliqsiz daromadlari
57. Maqsadli jamg‘arma
58. Majburiy ajratmalar
59. Sug‘urta badallari
60. Qo‘shilgan qiymat solig‘i

“YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANI BO‘YICHA TEST SAVOLLARI

1. Soliqlar – deganda.....

- a. davlat byudjetiga undiriluvchi majburiy to‘lovlar tushuniladi;
- b. yuridik shaxslar tomonidan byudjetga undiriladigan to‘lovlar tushuniladi;
- c. jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar tushuniladi;
- d. Soliq kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

2. Soliq stavkalarining turlarini aniqlang.

- a. to‘g‘ri, egri, resurs;
- b. o‘sib boruvchi, bazaviy stavkalar, egri;
- c. proporsional, progressiv, regressiv;
- d. regressiv, qat‘iy bo‘limgan, bazaviy stavkalar.

3. Soliqqa tortishning qanday usullari mavjud?

- a. kadastrli, deklaratsiya, manba oldida soliqqa tortish;
- b. to‘g‘ri va egri;
- c. bevosita va bilvosita;
- d. to‘lov manbaida soliqqa tortish.

4. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi prinsiplarini ko‘rsating.

- a. oddiylik va xolislik;
- b. soliq solishning majburiyligi, aniqligi,adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi;
- c. tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash;
- d. tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish.

5. Soliqlarning fiskal funksiyasi nimani anglatadi?

- a. soliqlar yordamida davlatning moliyaviy mablag'larni tashkil qilishni;
- b. davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini;
- c. ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek, moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini;
- d. soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni.

6. Resurs to'lovlariga qaysi soliqlar kiradi?

- a. yer solig'i, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq;
- b. yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- c. yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- d. foya solig'i, aksiz solig'i.

7. Soliq agenti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalar;
- b. zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar;
- c. davlat soliq xizmati organlari;
- d. boshqa majburiy to'lovlarini undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.

8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?

- a. 1991-yil 15-fevral;
- b. 1997-yil 24-aprel;
- c. 1997-yil 29-avgust;
- d. 1993-yil 6-may.

9. Yuridik shaxslarning mahsulot (ish, xizmat)larni eksporti hajmi umumiy tushumning 15 foiz va undan ko‘pini tashkil etsa, foyda solig‘ini qanday stavkada to‘laydilar?

- a. belgilangan stavka 0 foiz bo‘yicha to‘lanadi;
- b. belgilangan stavka 10 foizga kamaytiriladi;
- c. belgilangan stavka 30 foizga kamaytiriladi;
- d. belgilangan stavka 2 baravarga kamaytiriladi.

10. Foya solig‘ini hisoblashda soliq solinadigan baza qanday tartibda belgilanadi?

- a. jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida boshqa qonunlarda, qarorlarda nazarda tutilgan imtiyozlar hamda soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi;
- b. soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida belgilanadi;
- c. tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar sifatida belgilanadi;
- d. O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi sifatida belgilanadi.

11. Yuridik shaxsning jami daromadlari tarkibini ko‘rsating?

- a. realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo‘nak) tarzida olingan mablag‘lar;
- b. olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

- c. tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar;
- d. sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar.

12. Quyidagilardan qaysi biri soliq to‘lovchining daromadi sifatida qaralmaydi?

- a. tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- b. ijara beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to‘lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) obyekti qiymatining qoplamasi;
- c. inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- d. majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.

13. Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga qanday daromadlar kiradi?

- a. soliq to‘lovchining byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalari oldidagi qarzining qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summalar;
- b. asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlari;
- c. fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da‘vo muddati o‘tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar; soliq to‘lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar;
- d. fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da‘vo muddati o‘tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar; sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

14. 2020-yil 1-yanvardan boshlab penyalar soliqning to‘lanmagan summasidan kelib chiqib, har bir kechiktirilgan kun uchun qancha miqdorda belgilandi?

- a. penya foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasining uch yuzdan biriga teng etib belgilandi;
- b. penya foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasining ikki yuzdan biriga teng etib belgilandi;
- c. penya foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasining yuzdan biriga teng etib belgilandi;
- d. penya foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasining besh yuzdan biriga teng etib belgilandi.

15.2020-yilda sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar foyda solig‘ini qanday stavkada to‘laydilar?

- a. 20%;
- b. 10%;
- c. 14%;
- d. 15%.

16.2020-yilda tovarlaning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to‘lovchilarga qanday stavkada foyda solig‘i solinadi?

- a. 7,5%;
- b. 12%;
- c. 10%;
- d. 15%.

17.2020-yilda tijorat banklari qanday stavkada foyda solig‘i to‘laydi?

- a. 20%;
- b. 12%;
- c. 10%;
- d. 15%.

18. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- b. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- c. ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- d. ortib boruvchi yakun bilan yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

19. Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi haqida ma’lumotnomma davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. joriy hisobot davri birinchi oyining 5-kunigacha;
- b. joriy hisobot davri ikkinchi oyining 10-kunigacha;
- c. joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha;
- d. joriy hisobot davri ikkinchi oyining 5-kunigacha.

20. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar qanday muddatlarda to‘lanadi?

- a. joriy to‘lovlar har oyning 5-kuniga qadar;
- b. joriy to‘lovlar har oyning 10-kuniga qadar;
- c. joriy to‘lovlar har oyning 15-kuniga qadar;
- d. joriy to‘lovlar har oyning 25-kuniga qadar.

21. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining 200 baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to‘lovchilar ...

- a. joriy to‘lovlarni to‘lamaydi;

- b. joriy to‘lovlarni to‘laydi;
- c. joriy to‘lovlarni ikki muddatga bo‘lgan holda to‘laydilar;
- d. joriy to‘lovlarni bir yilda bir marta to‘laydilar.

22. Qo‘silgan qiymat solig‘ining soliqqa tortish obyekti nima?

- a. soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import;
- b. muomala xarajatlari;
- c. ishlab chiqarish tannarxi;
- d. sof foyda.

23. Qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

- a. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘silgan qiymat solig‘ini kiritgan holda belgilanadi;
- b. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘silgan qiymat solig‘ini kirimagan holda belgilanadi;
- c. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘silgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini kiritgan holda belgilanadi;
- d. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi asosida.

24. Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

- a. qo‘silgan qiymat solig‘ini kirimagan holda ularni qayta ishslash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xomashyoning qiymati asosida belgilanadi;
- b. qo‘silgan qiymat solig‘ini kiritgan holda ularni qayta ishslash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xomashyoning qiymati asosida belgilanadi;

- c. qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida belgilanadi;
- d. qo'shilgan qiymat solig'ini kiritgan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida belgilanadi.

25. Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan baza qanday belgilanadi?

- a. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilgan shartnoma qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- b. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- c. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilgan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- d. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

26. Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga qanday stavkada qo'shilgan qiymat solig'i solinadi?

- a. 0%;
- b. 20%;
- c. 10%;
- d. 15%.

27. Chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga qo'shilgan qiymat solig'i solinadimi?

- a. soliq colinadigan oborot bo'lmaydi;
- b. ozod etilgan;
- c. 20%;
- d. 0%.

28.Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qanday aniqlanadi?

- a. hisobga olinadigan soliq summasi sifatida;
- b. soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinmaydigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida;
- c. soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida;
- d. realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar, xizmatlarga hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i sifatida.

29.Qanday hollarda hisobvaraqtakta qo‘shilgan qiymat solig‘i?

- a. qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan oborotni va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘limgan yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga;
- b. yo‘lovchilar tashishni yo‘l chiptalari bilan rasmiylashtirish jarayoniga;
- c. tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini cheki, terminal cheki, kvitansiya berish holatiga;
- d. tovarlarning eksport-import tarzida yetkazib berilishini rasmiylashtirish jarayoniga.

30.Aksiz solig‘i - O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- a. 1991-yil;
- b. 1992-yil;
- c. 1995-yil;
- d. 1998-yil.

31. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga kiritiladimi?

- a. Kiritiladi;
- b. faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi;
- c. kiritilmaydi;
- d. faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi;

32. O'zbekiston Respublikasida aksiz markalari qachon joriy etilgan?

- a. 1992-yil 1-yanvar;
- b. 1993-yil 6-may;
- c. 1995-yil 1-yanvar;
- d. 1996-yil 1-oktyabr.

33. Aksiz solig'i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

- a. aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga;
- b. aksiz to'lanadigan tovarlarning importiga;
- c. berilgan xomashyodan tayyorlangan mahsulotga;
- d. aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirishga.

34. Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza qanday qiymatni o'z ichiga oladi?

- a. aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini;
- b. aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini;
- c. tovarlarning naturada ifodalangan hajmini;
- d. qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini.

35. Aksiz solig'inинг stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza nima asosida belgilanadi?

- a. tannarx asosida;
- b. bojxona qiymati asosida;
- c. bojxona qiymati va bojxona boji asosida;
- d. shartnomada ko'rsatilgan qiymat asosida.

36. 2020-yilda mobil xizmatlari uchun aksiz solig'i qanday miqdorda belgilandi?

- a. 20%;
- b. 15%;
- c. 22%;
- d. 11%.

37. Aksiz solig'i qanday soliqlar guruhiga kiradi?

- a. egri soliqlar;
- b. resurs soliqlari;
- c. bonuslar;
- d. to'g'ri soliqlar.

38. Aksiz solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating.

- a. har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10 kunidan kechiktirmay;
- b. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay;
- c. joriy oyning 15, 25 kunidan va kelgusi oyning 5 kunidan kechiktirmay;
- d. joriy oyning 13, 23 kunidan va kelgusi oyning 3 kunidan kechiktirmay.

39. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini soliqqa tortiladigan bazasini aniqlang.

- a. asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati;
- b. asosiy vositalarning eskirish summasi;

- c. asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati;
- d. ko‘chmas mulklarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati.

40. Yuridik shaxslarning mol-mulklaridan soliq qanday stavkada undiriladi?

- a. 2%;
- b. 6%;
- c. 8%;
- d. 12%.

41. Qurilishi normativ muddatlarda tugallanmagan obyektlarga nisbatan yuridik shaxslarning mol-mulklaridan soliq qanday stavkada undiriladi?

- a. 4%;
- b. 8%;
- c. 6%;
- d. 12%.

42. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilarini aniqlang.

- a. notijorat tashkilotlar;
- b. O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar;
- c. yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- d. yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar.

43. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo‘yicha soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) qanday tartibda aniqlanadi?

- a. hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik

- qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida;
- b. hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning to'rtadan bir qismi sifatida;
 - c. hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida;
 - d. hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning to'rtadan bir qismi sifatida.

44. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- b. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- c. har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- d. yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda.

45. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'inining soliq solinadigan bazasini aniqlang.

- a. yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni;

- b. yuridik shaxs tasarrufida bo‘lman yer uchastkalari;
- c. yer uchastkasining umumiy maydoni;
- d. yuridik shaxs tassarufida bo‘lgan barcha yer uchastkalari.

46. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq stavkalarini qo‘llashda Toshkent shahri necha zonaga bo‘lingan?

- a. 7 zonaga;
- b. 10 zonaga;
- c. 15 zonaga;
- d. 5 zonaga.

47. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i bo‘yicha soliq obyektini aniqlang.

- a. aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;
- b. mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari;
- c. aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar;
- d. kommunal-maishiy yerlar.

48. Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- a. belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalari;
- b. ijaraga berilgan ko‘chmas mulklar egallagan yer uchastkalari;
- c. bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo‘llari, sug‘orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;
- d. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari.

49. Yer solig‘ini to‘lash mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan qanday muddatlarda amalga oshiriladi?

- a. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar;
- b. har oyning 10 kunidan kechiktirmay;
- c. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 25-kuniga qadar;
- d. har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay.

50. Yer solig‘ini to‘lashdan quyidagi qaysi yuridik shaxslar ozod qilinadi?

- a. ishlovchilari umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar;
- b. madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari;
- c. savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar;
- d. mikrofirma va kichik korxonalar.

51. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad:

- a. ishlab chiqarish subyektlarini qo‘llab-quvvatlash;
- b. davlat byudjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minalash va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag‘batlantirish;
- c. mahsulot tannarxini pasaytirish;
- d. mahsulot narxini pasaytirish.

52. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to‘lovchilarini aniqlang.

- a. notijorat tashkilotlari;

- b. o‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar;
- c. yagona yer solig‘i to‘lovchilari;
- d. barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

53. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang.

- a. yerusti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi;
- b. yerosti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi;
- c. foydalanilgan suvning hajmi;
- d. chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi.

54. Yuridik shaxs o‘z faoliyatida ro‘yxatdan o‘tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi hududga to‘laydi?

- a. ro‘yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga;
- b. Davlat soliq qo‘mitasiga;
- c. davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinish joyidan qat‘iy nazar suvdan foydalanish hududiga;
- d. ro‘yxatdan o‘tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq.

55. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?

- a. har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;
- b. har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- c. yilda bir marta hisobot davrining 1-iyunigacha;
- d. yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

56. Yer qa'ridan foydalanuvchilar qanday soliqlar va maxsus to'lovlarini to'laydilar?

- a. qo'shimcha foyda solig'i;
- b. imzoli va tijoratbop bonuslar;
- c. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- d. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i va bonuslar.

57. Bonus ta'rifi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan

- a. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan doimiy to'lov;
- b. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har oylik to'lov;
- c. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har choraklik to'lov;
- d. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov.

58. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilarni aniqlang.

- a. yuridik shaxslar;
- b. jismoniy shaxslar;
- c. yuridik va jismoniy shaxslar;
- d. yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

59. Ijtimoiy soliqning soliq obyektini ko'rsating.

- a. yalpi tushum;
- b. rag'batlantirish xususiyatiga ega ish haqi tarzidagi daromadlar;
- c. yalpi daromad;
- d. tovar aylanmasi.

60. Ijtimoiy soliqni to'lash qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

- a. har chorakda, chorakdan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan;
- b. har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan;
- c. har chorakda, chorak ikkinchi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan;
- d. har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan.

61. Yirik soliq to'lovchilar toifasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi 100 milliard so'mdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar;
- b. o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi 1 milliard so'mdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar;
- c. o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar;
- d. o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi 100 million so'mdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar.

GLOSSARIY

A

Aksioner – aksionerlik jamiyatining aksiyalariga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Aksiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

Aksiya – aksionerlik jamiyatining kapitaliga hissa qo‘shilganligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi qimmatbaho qog‘oz. Aksiya o‘zining egasiga dvidend shaklida foydani bir qismini olish (o‘zlashtirish) huquqini beradi.

Amortizatsiya – kelgisida asosiy fondlarni to‘liq qayta tiklash uchun pul mablag‘larini jamg‘arish va ularning qiymatini tiklash maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatga asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatining ularning eskirishiga qarab uzlusiz o‘tkazish jarayoni. Ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhitning ta’siri natijasida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskiradi, ularning moddiy va ma’naviy eskirishi sodir bo‘ladi. Bunda mehnat vositalarining qiymati uzlusiz qismlarga bo‘linib, amortizatsiya hisoblash yo‘li bilan normativ xizmat qilish muddati davomida tayyor mahsulotga o‘tkaziladi.

Advalor soliq – tovar qiymatiga nisbatan qat’iy foiz stavkasida o‘rnatilgan to‘lov. Inflyatsiya sharoitida o‘zining funksiyalarini avtomatik ravishda saqlab qoladi. Bu soliqning tarkibiga savdo soliqlari, imoratga nisbatan ko‘pgina poshlinalar va boshqalar kiritilishi mumkin. Tovarlarni (import tovarlarni ham) jismoniy va yuridik shaxslarning mulkclarini soliqqa tortishda qo‘llaniladi.

Asosiy ish joyi – ish beruvchi mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo‘lgan ish joyi.

Asosiy faoliyat turi – yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo‘yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati.

B

Balans qiymati – buxgalteriya balansida asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning pulda ifodalangan bahosi.

Balans foyda – mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha xarajatlar va chiqimlar hamda majburiy to‘lovlar chegirilganidan so‘nggi korxona yalpi daromadining qismi. Balans foyda soliqqa tortilgunga qadar bo‘lgan yalpi foydadir.

Byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Byudjet tizimi – turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, shuningdek, byudjet jarayonida paydo bo‘ladigan ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

Byudjet tashkilotlari – Davlat byudjetida uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarни bajarish bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lgan byudjetdan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan vazirlilik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Boqimanda – belgilangan muddatda o‘tkazilmagan va so‘zsiz undirilishi lozim bo‘lgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning summasi.

Bojlar – iste’mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo‘lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo‘jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy siyosatining dastagi sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan tovarlarning bahosi bilan ichki bozorda xuddi shunga o‘xshash tovarlarning bahosini tenglashtirish lozim.

Bojlarning stavkalari – hukumat tomonidan o‘rnatalib, yagona hisoblanadi va chegaradan tovarlarni olib o‘tuvchi shaxslarga bog‘liq bo‘lмаган holda o‘zgarmasdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni operativ ravishda tartibga solishning dastagi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning quyidagi turlari bo‘lishi mumkin:

a) advalor stavkalar (boj undiriladigan tovarning boj qiymatiga nisbatan foizda o‘rnatalidi);

b) maxsus stavkalar (boj undiriladigan tovarning birligiga nisbatan aniqlanadi);

v) aralash stavkalar (boj undirishning dastlabki ikki varianti qo‘llaniladi).

Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot – birgalikdagi faoliyat natijasi bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

V

Vakolatli organlar – quyidagilar vakolatli organlardir:

1) soliq organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalar;

2) bojxona organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, “Toshkent - AERO” maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

3)yig‘imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.

G

Grant — davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk.

D

Davlat byudjeti daromadlari – o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi:

1) qonun hujjalarda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliqsiz boshqa tushumlar; 2) davlatning moliyaviy aktivlari va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotishga

berilishidan olingen daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, xorijiy davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslar va xorijiy davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Davlat byudjeti – davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat soliq xizmati organlari – davlat soliq xizmati organlari quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

Daromad – nafni baholash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo'lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf;

Daromadlar to'g'risida deklaratsiya – Dividendlar – taqsimlashga mo'ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxona sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma'lum davrdan so'ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to'lanadigan daromad.

Daromad solig'i bo'yicha jarimalar – ushbu soliq to'lanmaganda, noto'liq to'langanda yoki to'lash tartibi buzilganda (rioya qilinmaganda), pulni undirish, moddiy ta'sir ko'rsatishdan iborat. O'z vaqtida ushlab qolinmagan, noto'liq ushlangan yoki tegishli byudjetga o'tkazilmagan soliq summalarini jismoniy shaxslarga daromad to'laydigan korxona, tashkilot va muassasalardan undirishga mo'ljallangan summaning 10 foizi hajmidagi jarimani birgalikda qo'shib, soliq organlari tomonidan so'zsiz undirib olinadi. Korxona, tashkilot, muassasalar va tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy

shaxslardan soliq o‘z vaqtida tegishli byudjetga o‘tkazilmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun to‘lov muddatidan keyingi kundan boshlab to‘langan kungacha (bu kun ham qo‘shiladi) 0,045 foiz miqdorida penya undiriladi. Penyaning undirilishi ularni javobgarlikning boshqa turlaridan ozod etmaydi.

Doimiy muassasa – norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e’tirof etiladi. Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e’tirof etiladi.

I

Ikkiyoqlama soliqqa tortish – 1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbaidan olinishi; 2. Qo‘shma korxona xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o‘tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to‘lanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to‘langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo‘li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin. 1979-yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konvensiya ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolanadi. Ular tomonidan o‘rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko‘ra qo‘shma korxona xorijiy ishtirokchisi o‘z foydasini xorijga o‘tkazayotgan paytda qo‘srimcha soliqdan ozod qilinadi.

Imtiyoz – ma’lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to‘liq) ozod etish, ma’lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo‘lish, masalan, soliq imtiyoziga.

Ijara (lizing) to‘lovi – ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizing oluvchi) tomonidan to‘lanadigan summa;

Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizdan olinadigan daromadi – moliyaviy ijara (lizing) obyektining ijara (lizing) to‘lovi summasi va qiymati o‘rtasidagi farq.

Y

Yig‘imlar – qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan mahalliy byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari jamg‘armalarga o‘tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im, Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar kiradi.

K

Kurs bo‘yicha farq – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o‘zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq.

Kamerallar nazorat – soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazorat.

M

Moddiy xarajatlar – xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yoqilg‘i, energiya va boshqa xarajatlardan iborat. Moddiy resurslarning qiymati ularni sotib olish bahosi (qo‘shilgan qiymat solig‘isiz), ta’minot va tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to‘lanadigan ustamalar, komission mukofotlar, boj to‘lovchisi, tovarlar birjasining xizmat qiymatlari, tashish, saqlash va yetkazib berish haqlarining yig‘indisidan tashkil topadi.

Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Ma’muriy javobgarlik – ma’muriy huquqbazarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.

Moliyaviy sanksiyalar – soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlik chorasi bo‘lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo‘llaniladi.

N

Notijorat tashkilotlar – notijorat tashkilot uchun belgilangan shaklda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, quyidagi shartlarga muvofiq bo‘lgan yuridik shaxs ushbu Kodeks maqsadida notijorat tashkilot deb e’tirof etiladi, agar:

- daromad olish maqsadiga ega bo‘lmasa;
- daromadlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamasa.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari – soliq solish maqsadida bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan chet el yuridik shaxsi nazorat qilinadigan chet el kompaniyasi deb e’tirof etiladi:

1) chet el yuridik shaxsi O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etilmaydi;

2) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladigan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar chet el yuridik shaxsini nazorat qiluvchi shaxslar hisoblanadi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji – soliq to‘lovchining naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji xronometraj o‘tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Nazorat-kassa texnikasi – fiskal xotira bilan jihozlangan nazorat-kassa mashinalari, fiskal to‘plagichlardagi fiskal ma’lumotlar yozib olinishi va saqlanishini ta’minlovchi, fiskal hujjatlarni shakllantiruvchi hamda ularning soliq organlariga fiskal ma’lumotlar operatori orqali topshirilishini, shuningdek, fiskal hujjatlar nazorat-kassa texnikasini qo’llash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq qog‘ozda chop etilishini ta’minlovchi boshqa qurilmalar hamda dasturiy-texnik majmualar

O

Ortiqcha to‘langan soliq summasi (penya, jarima) – soliqning (penyaning, jarimaning) to‘langan summasi bilan haqiqatda to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi o‘rtasidagi ijobiy farq. Soliqning (penyaning, jarimaning) ortiqcha to‘langan summasi u ilgari hisobga olingen va (yoki) soliq to‘lovchiga qaytarilgan summalarini, shuningdek, soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobiga o‘tkaziladigan summalarini hisobga olgan holda uni hisob-kitob qilish sanasida aniqlanadi.

Ortiqcha undirilgan soliq summasi – soliq organlarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida ortiqcha to‘langan soliq summasi.

P

Progressiv soliq – soliqqa tortish bazasining oshishi bilan soliq stavkasining ko‘tarilishi xarakterlidir. Progressiv soliqlarning orasida eng ko‘p uchraydigani jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqdir.

Proporsional soliq – soliq shaklida olinishi mumkin bo‘lgan summa soliqqa tortish bazasining o‘lchamiga (miqdoriga, hajmiga) proporsionaldir. Bu soliq yagona stavkali soliqlar jumlasiga kiradi.

Penya – fuqarolik huquqida jazo choralarining (jarimalarning) ko‘rinishlaridan biri, qonun yoki shartnomaga muvofiq to‘lovlar muddatini buzganlik uchun undiriladigan moliyaviy jazoning shakli. Uning miqdori qonunga ko‘ra to‘loving har bir kechiktirilgan kuni uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan summaga nisbatan foizda belgilanadi.

Korxona tomonidan to‘langan penya summasi noishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

Preferensiya – investitsion va innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozi ko‘rinishida belgilangan (o‘rnatilgan) imtiyoz, afzallik.

R

